

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TASHQI ISHLAR VAZIRLIGI

JAHON IQTISODIYOTI VA DIPLOMATIYA UNIVERSITETI



O'ZBEK VA RUS TILLARI KAFEDRASI, ROMAN-GERMAN KAFEDRASI

**TASHQI SIYOSIY VA TASHQI IQTISODIY ALOQALAR UCHUN KADRLAR
TAYYORLASHDA TIL TA'LIMI VA TARJIMA MASALALARI**

**(ЯЗЫКОВОЕ ОБУЧЕНИЕ И ВОПРОСЫ ПЕРЕВОДА ПРИ ПОДГОТОВКЕ
КАДРОВ ДЛЯ ВНЕШНЕПОЛИТИЧЕСКИХ И ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКИХ
СВЯЗЕЙ)**

MAVZUSIDAGI XV AN'ANAVIY ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

TO'PLAMI

2025-YIL 29-MART

TOSHKENT - 2025

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining Til ta'limi markazi, O'zbek va rus tillari kafedrası hamda Roman-german tillari kafedrası tomonidan 2025-yil 29-martda o'tkazilgan **"Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalar uchun kadrlar tayyorlashda til ta'limi va tarjima masalalari"** mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiya to'plami O'zbek va rus tillari kafedrası yig'ilishining 2025-yil 26-maydagi 17-son majlisi qarori bilan nashrga tavsiya etish uchun JIDU Ilmiy muvofiqlashtiruvchi kengashga tavsiya etildi.

"Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalar uchun kadrlar tayyorlashda til ta'limi va tarjima masalalari" mavzusidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami // – Toshkent: JIDU, 2025. – 172 bet.

Mas'ul muharrir:

O'zbek va rus tillari kafedrası mudiri, dotsent	M.Abduraxmanova
Roman-german tillari kafedrası mudiri, dotsenti, f.f.n	V.Mamatkasimova
Oliy ta'limdan keyingi ta'lim ofisi boshlig'i, s.f.n.	M. Siddiqova

Taqrizchilar:

M.Fozilova - O'zDJTU O'zbek tili va adabiyoti kafedrası dotsenti, p.f.f.d. (Phd)
N.Sharipova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining O'zbek va rus tillari kafedrası dotsenti, p.f.n.

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyaning maqolalarini tahlil qilish va chop etishga tavsiya etish uchun tahririyat-noshirlik guruhi:

Sh. Xudaykulova	- O'zbek va rus tillari kafedrası dotsent v.b., f.f.f.d.(Phd)
Sh. Normatova	- O'zbek va rus tillari kafedrası dotsenti, f.f.n.

MUNDARIJA

JIDU ILMIY ISHLAR VA INNOVATSIYALAR BO'YICHA PROREKTORI. ANJUMAN ISHTIROKCHILARIGA QUTLOV NUTQI.....	7
BOSH MA'RUZACHILAR	9
MEXRIBON ABDURAXMANOVA (JIDU)	
OLIY TA'LIMDA DAVLAT TILINI O'QITISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR	9
LUTFIDDIN XODJAYEV (JIDU)	
DIPLOMATIK XODIM FAOLIYATIDA CHET TILLARINING O'RNI VA O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI TARJIMASI DOLZARB MASALALARI.....	14
MAXTUMQULI MALLAYEV (JIDU)	
DIPLOMATIK KADRLARNI TAYYORLASHDA XORIJIY TIL KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTISHNING AHAMIYATI.....	21
SHOIRA NORMATOVA (JIDU)	
O'ZBEK TILIDA ILMIY TADQIQOT YARATISHNING TAHLILIIY ASPEKTLARI: AKADEMIK ESSE BANDLARINI YOZISH BORASIDA XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA.....	37
NARGIZA SHARIPOVA (UMЭД)	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СИЛЛАБУСА ПО ПРЕДМЕТУ «РУССКИЙ ЯЗЫК» УМЭД С СООТВЕТСТВУЮЩЕЙ ПРОГРАММОЙ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ, ВХОДЯЩЕГО В ТОП-300.....	44
VASILA MAMATKASIMOVA (JIDU)	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FRANSIYAGA RASMIY TASHRIFI NATIJALARINI TA'LIM JARAYONIGA TATBIQ ETISH: FRANSUZ TILI O'QITUVCHILARI OLDIGA QO'YILGAN DOLZARB VAZIFALAR.....	50
GAVHAROI KOMILOVA (ToshDO'TAU)	
PAREMIOLOGIK BIRLIKLARDA QADRIYATLAR IERARXIYASINING AKS ETISHI.....	55
MOHIGUL FOZILOVA (O'zDJTU)	
O'ZBEK TILINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH...	62
SHAXNOZA XUDAYKULOVA (JIDU)	
TIL TA'LIMIDA TALABALARDA ILMIY USLUB KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH TAJRIBASIDAN.....	69
I SHU'BA	
BO'LG'USI DIPLOMATIYA VA XALQARO MUNOSABATLAR SOHASI MUTAXASSISLARI UCHUN TIL TA'LIMI MASALALARI, TAJRIBA VA ZAMONAVIY USULLAR.....	74

GULASAL ROFIYEVA (JIDU)	
XALQARO MUNOSABATLAR MUSTAHKAMLIGIDA TIL VA MADANIYAT TA'LIMINI MUVOFIQLASHTIRISH.....	74
AZIZA ARIPOVA (JIDU)	
BO'LAJAK MUTAXASSIS KASBIY KOMPETENSIYASINI INNOVATSION TA'LIM METODLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH	79
АМИНА АТАБЕКОВА (УМЭД)	
ИНТЕГРАЦИЯ ТРАДИЦИОННЫХ И ИНОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА	86
DILNOZA SAYFULLAYEVA (JIDU)	
XALQARO MUNOSABATLAR TILI VA TA'LIMDA MUTAXASSISLIK TILINI O'RGATISHDA MATN BILAN ISHLASH TEXNOLOGIYASI.....	92
НОЗИМА БАБАМУРАДОВА (СОИСКАТЕЛЬ УЗГУМЯ)	
ОЦЕНКА КАЧЕСТВА ПЕРЕВОДА ТЕКСТОВ РАЗЛИЧНЫХ СТИЛИСТИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ.....	96
НАТАЛЯ БУКРЕЕВА (УМЭД)	
КОММУНИКАТИВНЫЙ ПОДХОД В ПРАКТИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО.....	105
AZIZOVA FERUZA (JIDU)	
TURKIY DAVLATLAR UCHUN UMUMIY ALIFBO MODELİ MASALASI (O'ZBEKISTON İQTISODIYOTIGA TA'SIRI BO'YICHA BA'ZI MULOHAZALAR)	110
SHAXNOZA XASANOVA (JIDU)	
XALQARO MUNOSABATLAR FAKULTETI TALABALARI UCHUN DIPLOMATİK TERMINLARNI DARS JARAYONIDA QO'LLASH USULLARI VA TERMINLARNI KONTEKSTDA O'RGANISHNING AHAMIYATI.....	115
САИДА САИДОВА (УМЭД)	
ПОНИМАНИЕ УСТНОЙ РЕЧИ НА ФРАНЦУЗСКОМ ЯЗЫКЕ: КАК УЛУЧШИТЬ?.....	124
II SHU'BA	
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI TARAQQIYOTI DAVRIDA TARJIMA MASALALARI	131
MUXLISA SADULLAYEVA (JIDU)	
O'ZBEK TILI TA'LIMIDA SIYOSIY MATNLAR TARJIMASIDAGI BA'ZI MUAMMOLAR	131
НАРГИЗА РАХИМОВА (УМЭД)	

ВНЕШНЕЭКОНОМИЧЕСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ УЗБЕКИСТАНА И РОЛЬ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ПОДГОТОВКЕ СПЕЦИАЛИСТОВ	136
NILUFAR SAIDOVA (JIDU)	
REKLAMA TARJIMASIDA KROSS-MADANIYATLI YONDOSHUVLAR - CROSS- CULTURAL APPROACHES IN ADVERTISING TRANSLATION	143
ДИНАРА НАЗАРОВА (ЖИДУ МАГИСТРАНТИ)	
СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ В ОБРАЗОВАНИИ	157
DAVLAT RAXMATOV (JIDU)	
OLIY TA'LIM TALABALARIDA SUZISH TEXNIKASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	162
ЕКАТЕРИНА СЕРЕБРЯКОВА (УМЭД)	
РОЛЬ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ В ФОРМИРОВАНИИ ЯЗЫКОВЫХ И МЕЖКУЛЬТУРНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ У БУДУЩИХ ДИПЛОМАТОВ И СПЕЦИАЛИСТОВ В ОБЛАСТИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ	167

JIDU ILMIY ISHLAR VA INNOVATSIYALAR BO'YICHA PROREKTORI. ANJUMAN ISHTIROKCHILARIGA QUTLOV NUTQI

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari, qadrli hamkasblar!

“Tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy aloqalar uchun kadrlar tayyorlashda til ta’limi va tarjima masalalari” mavzusidagi XV an’anaviy ilmiy-amaliy anjumanimizda sizlarni ko’rib turganimdan behad xursandman.

Hozirgi kunda yurtimizda oliy ta’limni tizimli isloh qilish, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko’tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg’or ta’lim texnologiyalariga asoslangan holda ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish jarayonlari shiddat bilan kechmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Zamonaviy ilm-fan yutuqlariga, innovatsion g’oyalarga tayanmagan davlatning ham, jamiyatning ham kelajagi yo’q. Faqat ilm va ma’rifat, intellektual salohiyat, har tomonlama bilimli kadrlar hisobidan biz O’zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqa olamiz”. Bu ham davlat miqyosida ta’lim sohasiga katta umidlar bog’langanligining isbotidir.

Shiddat bilan o’zgarib borayotgan dunyo biz o’qituvchilar hamda biz yetishtiradigan kadrlar oldiga katta talablar qo’ymoqda, endi shunchaki bilim to’plash, eslab qolish, nazariy bilimlarga ega bo’lishning o’zi yetarli emas, zamonaviy mutaxassis kadrlar nafaqat o’z sohasining bilimdoni bo’lishi, balki kutilmagan vaziyatlarga moslashuvchan, ijodkor, mustaqil mushohada yurita bilish kabi xususiyatlarni egallashi zarur, shaxslararo va kasbiy muloqotga kirishishga tayyorlik ham zamonaviy mutaxassis uchun muhim.

Ilmiy-amaliy konferensiya ishi davomida jahon andozalari talabiga javob bera oladigan zamonaviy informatsion va pedagogik texnologiyalarni tatbiq etib, noan’anaviy va samarali o’qitish usullarini yanada takomillashtirgan holda yangi o’quv qo’llanmalar uchun uslubiy ko’rsatmalar ishlab chiqish, shuningdek,

globallashuv jarayonida bir necha tillarni o'qitishva tarjimonlar tayyorlash, sinxron tarjimani o'quv dasturlariga kiritish, sinxron tarjima qila oladigan kadrlarni tarbiyalashga oid ilmiy-tadqiqot ishlanmalari, elektron manbalar yaratish va amaliyotga tatbiq etish borasida fikr almashish, muammolarning yechimini topish, tavsiya va takliflaringizni tinglash maqsadini qo'ygan.

Ushbu anjumanda ko'tariladigan mavzular va bildiriladigan fikr-mulohazalar oliy ta'lim tizimida til ta'limi muammolarining yechimini topishga yordam berishiga umid bildirib, anjuman ishiga muvaffaqiyat tilayman.

Anjuman ishiga muvaffaqiyat tilayman va barcha ishtirokchilarga universitet rahbariyati va o'z nomimdan minnatdorchilik bildiraman.

G.S. Ismailova
JIDU ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor

BOSH MA'RUZACHILAR

MEXRIBON ABDURAXMANOVA (JIDU)

OLIY TA'LIMDA DAVLAT TILINI O'QITISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15557988>

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy metodologiyada til ta'limining maqsadi kompetensiyalarni, xususan, talaba shaxsini rivojlantirishga hissa qo'shadigan kommunikativ, lingvistik va madaniy kompetensiyalarni rivojlantirish to'g'risida fikr yuritiladi. O'zbek tilini o'rgatish dasturlari har bir ta'lim muassasasi tomonidan ma'lum bir soha bo'yicha bo'lajak mutaxassislarga qo'yiladigan malaka talablari doirasida mustaqil ishlab chiqilishi, tilni bilish darajasini aniqlashda yagona yondashuvni nazarda tutuvchi tizim yaratishkabi masalalar yoritilgan. .

Tayanch so'zlar: davlat tili, tilni ona tili sifatida o'rgatish, o'zbek tilini bilish kompetensiyalari, o'zbek tilini o'qitish va o'rganishga qo'yiladigan talablar

Abstract. In modern language teaching methodology, developing various skills, particularly communicative, linguistic, and cultural competencies is essential, as it promotes students' personal growth and proficiency. In this context, language programs (particularly those focused on the Uzbek language) should be tailored by each educational institution to meet the specific qualification requirements for future professionals in their fields. Moreover, it is crucial to establish a system aligned with international standards which ensures a unified approach to assess students' language proficiency.

O'zbekiston Prezidentining 2019-yil 21-dekabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PF-5850-son Farmoni, 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6084-son Farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qaror, xususan, konsepsiyaga ilova qilingan 2020-2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasida qo'yilgan vazifalardan kelib chiqqan holda, davlat tili ta'limi sifati va

samaradorligini oshirish maqsadida yangicha yondashuv asosida til o'qitishning tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston Respublikasining bugungi kunda xorijiy davlatlar bilan o'zaro aloqalari rivojlanib, xalqaro obro'-e'tibori oshib bormoqda. Bu esa mamlakatimizda dunyo andozalari talablariga javob beradigan malakali mutaxassislar tayyorlashga alohida e'tibor bilan yondashishni taqozo etadi. Shu ma'noda rivojlangan dunyo mamlakatlari ta'lim tajribalaridan kelib chiqqan holda, milliy ta'lim tizimimiz ham jiddiy islohotlarga muhtoj ekanligi ayni haqiqat. Xususan, hozirgi kunda kadrlarning til savodxonligi darajasi talabga javob bermayapti.

Oliy ta'lim o'quv rejasiga davlat tilida erkin, savodli fikrlay olish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv fanlarini kiritish orqali talabanning ma'lum malaka ko'nikmalari, xususan, soha tili, rasmiy nutq, yozma nutq savodxonligi, nutq madaniyati va notiqlik mahoratini shakllantirish mumkin. Bu esa til o'qitishning yangi konsepsiyasini ishlab chiqishni taqozo etmoqda. Xususan, rus guruhlarda o'zbek tili o'quv kurslari leksika va uslubiyat, jumladan, rasmiy uslubning o'ziga xosliklari, turlari hamda janrlari haqida zarur ma'lumotlar berish bilan bir qatorda talabalarning kelgusidagi ilmiy-ijodiy ishlari uchun muhim bo'lgan yozish texnikasini egallash, uslub talablaridan xabardor bo'lish, yozma, og'zaki savodxonliklarini oshirishda amaliy ko'mak bo'la oladigan bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi zarur. Chunki og'zaki va yozma nutq madaniyati yuqori, mantiqiy fikrlash va uni ifoda eta olish ko'nikmalariga ega, nutq uslublarini farqlay oladigan, fikrini usluban to'g'ri bayon eta oladigan, tahliliy fikrlash ko'nikmalari shakllangan mutaxassisga ehtiyoj katta.

Zamonaviy metodikada til ta'limi maqsadi o'quvchi shaxsini rivojlantirishga xizmat qiladigan kompetensiyalar, xususan, kommunikativ, lisoniy, madaniy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Talaba aynan ushbu kompetensiyalarga ega bo'lgandagina nafaqat, muloqotda,

balki o'z sohasi doirasida ham tilni mukammal egallagan, har tomonlama savodli mutaxassis bo'lib yetishadi. Shunday ekan, ta'lim jarayonida tillarni, xususan, o'zbek tilini o'qitish dasturlarini kadrlarga qo'yiladigan malaka talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqish va u yoki bu kompetensiyani shakllantirishga mo'ljallangan maxsus fanlarni tashkil etish, ya'ni soha tilini chuqurroq egallashlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Zero Oliy ta'limda davlat tilida erkin savodli fikrlay olish ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan o'quv fanlarini kiritish orqali talabanning ma'lum malaka ko'nikmalari, xususan, soha tili, rasmiy yoki ilmiy nutq, yozma nutq savodxonligi, nutq madaniyati va notiqlik mahoratini shakllantirish mumkin. Shu maqsadda til o'qitishning yangi konsepsiyasini ishlab chiqish zaruriyati tug'ilmoqda. Bunga sabab bo'lgan asosiy omillardan biri yuqorida qayd etganimizdek, og'zaki va yozma savodxonlik darajasining tushib ketganidir.

O'zbek tili barcha oliy ta'lim muassasalarida kamida 4 kreditli fan sifatida kiritilishi va soha tilini o'qitishga yo'naltirilishi lozim. Bunda turli shartli bosqichlarni joriy etish maqsadga muvofiqdir. Masalan, birinchi bosqich sifatida badiiy asar mutolaasi asosida o'qitish, og'zaki va nutqiy savodxonlik borasida bilim hamda ko'nikmalarni kitob mutolaasi asnosida singdirish, milliy madaniyat va qadriyatlar bilan tanishtirish, shuningdek, so'z boyligini oshirish, so'z tanlash ko'nikmalarini hamda badiiy tafakkurni shakllantirish, murakkab, notanish, kitobiy leksikaga oid so'zlar ustida ishlash, tarixiy so'zlar, frazeologizmlar, maqollar, realiyalar lug'atini tuzish, noyob badiiy ko'chimlarni topish, insho, esse yozish singari xilma-xil usullardan foydalanish mumkin, bu esa nutqning barcha uslublarini rivojlantirishga yordam beradi. Badiiy matn til o'qitishning eng samarali usullaridan biridir.

Ikkinchi bosqich sifatida mutaxassisning ilmiy va rasmiy nutq asoslarini shakllantirish, o'zbek tili uslubiyati, xususan, rasmiy hamda ilmiy vazifaviy uslublar bo'yicha bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Unda uslublarning o'ziga xosliklari, turlari hamda janrlari haqida zarur

ma'lumotlar berish bilan bir qatorda talabalarining kelgusidagi ilmiy-ijodiy ishlari uchun muhim bo'lgan yozish texnikasini egallash, rasmiy hamda ilmiy mavzularda yozma, og'zaki savodxonliklarini oshirish ko'zda tutiladi.

Uchinchi bosqich sifatida bevosita soha tilini egallashga e'tibor qaratilib, til o'qitishning asosiy maqsadi talabalarining o'zbek tilidan egallagan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlash va yanada kengaytirish asosida yuqori darajada nutqiy savodxonlikni ta'minlash, davlat tilidan boshqa tillarga va, aksincha, o'zbek tiliga tarjima qila olish ko'nikmalarini shakllantirish, rasmiy uslub, ilmiy uslubda sohaga doir ma'lumotlarni tayyorlay olish, mutaxassislikka doir atamalarni o'rganib, ulardan turli model (qurilmalar)dagi jumlar tuzishda foydalanish, bayoniy, tasviriy va muhokama tipidagi matnlarni yaratish, berilgan bilim (ma'lumot)lar va hosil qilingan malakalardan foydalanib, ilmiy va rasmiy uslubda matnlar tuza olish kabi bilimlarni shakllantirishga erishishdir. Shu maqsaddan kelib chiqib, o'quv kursi o'z oldiga ixtisoslik doirasida og'zaki va yozma nutqni o'stirish, erkin matn yaratish, hujjat tuza olish, ilm-fan sohasida o'zbek tilida faoliyat yuritish, tadqiqot olib borish, yaratish, kashfiyotlar qilish uchun zamin tayyorlash malakalarini o'stirish vazifalarini qo'yadi.

Demak, xalqaro standartlarga asoslangan holda o'zbek tilini o'rganish bo'yicha talabalarining bilim va ko'nikmasiga qo'yiladigan talablarga yagona yondashuv ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq. Bunda har bir oliy ta'lim muassasasi ma'lum bir sohada faoliyat yurituvchi bo'lajak mutaxassislarga qo'yiladigan malaka talablaridan kelib chiqib, talabalar egallashi zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni shakllantiruvchi o'quv dasturlarini yaratishi hamda dars jarayoniga tatbiq etishi kerak.

Hozirgi kunda oliy ta'limga kirayotgan talabaning o'zbek tilini bilish darajasiga qo'yiladigan boshlang'ich talabalarining mavjud emasligi oliy ta'lim dasturida belgilangan bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda katta muammolarni keltirib chiqarmoqda. Shu bilan birga oliy ta'limda til o'qitish

dasturlari bevosita soha tilini o'rgatishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur, lekin mavjud holat va soatlar hajmi buni amalga oshirish imkonini bermayapti. Tajriba shuni ko'rsatyaptiki, talabanning chet tilini bilish darajasiga qo'yilgan ma'lum minimum talablar (masalan B2 darajasini egallagan bo'lishi kerak) ta'limdagi uzviylikni ta'minlashga, oliy ta'limda chet tilini o'qitish dasturlarini takomillashtirib, soha tilini o'rgatishga yo'naltirishga asos bo'lmoqda. Davlat tilini o'rganishda esa bunday talablarning ishlab chiqilmagani tizimli yondashuvning yo'qligiga olib keldi. Xalqaro standartlardan kelib chiqib, o'zbek tilini o'qitish va o'rgatish talablarini ishlab chiqish davlat tilini bilish darjasini ancha yuqori saviyaga ko'taradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 2019-yil 21-oktabr
2. Общеввропейские компетенции владения иностранным языком: изучение, обучение, оценка. Департамент по языковой политике, Страсбург., Московский государственный лингвистический университет (русская версия), 2003
3. Бершадская М., Серова А., Универсальные компетенции: индикаторы, опыт разработки и оценивания. Научно-методическая конференция ассоциации классических университетов, 2018
4. Куйдина Л. Ю., Формирование ключевых компетенций обучающихся на уроках русского языка и литературы. <https://multiurok.ru>
5. Нормы оценки знаний, умений и навыков учащихся по русскому языку. // Программы для общеобразовательных учебных заведений. Русский язык.

**DIPLOMATIK XODIM FAOLIYATIDA CHET TILLARINING O'RNI
VA O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI TARJIMASI DOLZARB MASALALARI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15557994>

Annotasiya: Maqolada chet tillarini bilish darajasining xalqaro hamkorlik muvaffaqiyatiga va tashqi siyosat mahkamasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirishda tutgan muhim o'rni tahlil etiladi. Diplomatlarning tomonidan mavjud til bilimlarini doimiy ravishda oshirib borish ularning kamolotga yetishlarida hamda diplomatik xizmat pog'onasidan bardavom ko'tarilishlarida muhimligi bayon qilinadi.

Risolada O'zbekistonning xorijdagi diplomatik vakolatxonalari tomonidan o'zbek xalqining boy ilmiy-madaniy merosi, o'zbek tilini targ'ib qilish va ommalashtirish yo'lida duch kelayotgan muammolar yoritilgan hamda va ularni hal etish yuzasidan tavsiyalar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro munosabatlar, tarjimonlar maktabi, tarjimashunoslik, bilvosita, asl, madaniyatlararo muloqot.

Abstract: The article underscores the crucial role of foreign language proficiency in fostering successful international cooperation and effectively executing the responsibilities entrusted to the foreign policy department. It emphasizes the necessity of continuous language skill enhancement for diplomats, both for their professional development and for sustained career advancement within the diplomatic service.

Furthermore, the brochure identifies challenges encountered by Uzbekistan's diplomatic missions abroad in effectively promoting and popularizing the rich scientific, cultural, and linguistic heritage of the Uzbek people. It subsequently proposes actionable recommendations to address these challenges.

Key words: international relations, school of translators, translation studies, indirect, original, intercultural communication.

Qadim zamonlardan beri xalqaro munosabatlar sohasi chet tillarini bilishga asoslangan madaniyatlararo muloqotning rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan.

Xalqaro muloqotda taraqqiyot va samaradorlikka ta'sir etuvchi barcha omillardan asosiysi – bu til, madaniyat, urf-odatlar, mafkura, din, xorijiy

davlatlar qonunlari va boshqalar. Aynan til muzokaralar muhitini yaratish muvaffaqiyatning bosh omili hisoblanadi. Bundan shunday xulosa qilish mumkinki, hamkor sherikning tilini bilish maqsadga erishish yo'lida muhim, qo'shimcha vosita hisoblanadi.

Asrimizning hozirgi bosqichida oliy ta'lim muassasalarida xalqaro aloqalar bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash tashqi siyosat va xalqaro hamkorlik masalalariga daxldor idoralar xodimlariga qo'yiladigan asosiy, o'ziga xos malaka talabi sifatida bir yoki bir nechta xorijiy tillarni chuqur o'rganishni nazarda tutadi.

Bugungi zamonda amalda har bir elchixona o'zining ko'p funktsiyali vakolatlari doirasida qabul qiluvchi, ya'ni mezbon davlatning tegishli vazirliklari va idoralari hamda ushbu malakatda faoliyat ko'rsatadigan diplomatik korpus bilan doimiy ravishda faol yozishmalarni olib boradi. Bularning barchasi tarjima va texnik ishlarni puxta tashkil etishni taqozo etadi. Ammo ko'pgina mamlakatlarning xorijiy vakolatxonalari shtat birligida tarjimon lavozimi ko'zda tutilmaydi.

Elchixonaga mamlakat Tashqi ishlar vazirligidan keladigan turli topshiriqlar, xususan, davlat Rahbarining tashqi siyosat, mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining dolzarb masalalari borasidagi bayonotlari, nutqlari, xorijiy davlatlarga tashriflari yoxud chet el mamlakatlari davlat va hukumat boshliqlarining O'zbekistonga safarlari va hokazolar haqida tezkor xabarlarini mezbon tomon tiliga o'girish til bilishning diplomat faoliyatida qanchalik muhimligini amalda namoyon etadi.

Bunday ishning asosiy og'irligi asosan diplomatik vakolatxona xodimlari yelkasiga tushadi. Ma'lumki, xorijiy mamlakatda elchixona ochish, uning faoliyatini tashkil etish vakolatxona diplomatik va ma'muriy-idoraviy xodimlari uchun turar-joy, transport vositalari ajratish va boshqa moliyaviy masalalar katta hajmda davlat byudjetidan mablag' ajratishni talab etadi.

Chet tillarini bilish darajasi xalqaro hamkorlik muvaffaqiyatiga va tashqi siyosat mahkamasiga yuklangan vazifalarni amalga oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Diplomatlar tomonidan mavjud til bilimlarini doimiy ravishda oshirib borish ularning kamolotga yetishlarida hamda diplomatik xizmat pog'onasidan bardavom ko'tarilishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tajribali diplomatlar mahalliy tilni hatto boshlang'ich bosqichda bo'lsa ham bilish diplomatga nisbatan suhbatdoshida xayrxohlik munosabatini uyg'otadi, muvaffaqiyatli faoliyati uchun poydevor yaratishga yordam beradi hamda uning mezbon mamlakatda siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-akademik, tahliliy markazlar, ommaviy axborot vositalari va diplomatik korpus vakillari orasida ehtiromi va obro'sini mustahkamlashga xizmat qilishini doimo ta'kidlaydilar.

Madaniyat tarixidan ma'lumki, ilm-fan va adabiyot rivojlangan mamlakatlarda butun boshli tarjima oqimlari va tarjima maktablari yuzaga kelgan. Abbosiylar xalifaligi davrida Bag'doddagi "Bayt ul-Hikma" ("Falsafa maktabi", "Bilimlar uyi" – IX asr boshlari), Xorazmda "al-Ma'mun" akademiyasi (XII asr), G'arbiy Yevropada Raymond Toledskiyning tarjima maktabi (XII asr), Xorazm tarjima maktabi (XIX asr), Misrdagi tarjima maktabi (XIX asr, Muhammad Ali boshqaruvi davri) ana shunday muassasalar sirasiga kiradi.

Mustaqil O'zbekistonda yuqori malakali mutaxassislar – o'qituvchilar, muhandislar, texnologlar, artistlar, kutubxonachilar, jurnalistlar va boshqa sohalar vakillarini tayyorlashga ustuvor ahamiyat beriladi. Yuqori malakali tarjimonlarni-chi. Ammo betakror mumtoz adabiyotimiz go'zal badiiy asarlarini chet tillariga, murakkab ijtimoiy-siyosiy adabiyot namunalarini, muhim ilmiy-texnikaviy kitoblarni, ularning butun nozikligi va mas'uliyati bilan bevosita asl tildan o'zbek tiliga o'giradigan, xalqaro madaniy aloqalarning faollashuviga ko'maklashadigan mutaxassislarni bugun kun talablari darajasida tayyorlashga yetarli e'tibor qaratilmaydi.

Mamlakatimizdagi 200 ga yaqin davlat va xususiy oliy ta'lim muassasalaridan taxminan 25%-30% tilga universitet va institutlarda asosan

G'arbiy Yevropa tillari va Sharq tillarini biladigan filolog, tilshunoslar, gid-hamrohlar, tarjimonlar tayyorlanmoqda.

Taniqli adabiyotshunos, tarjimashunos olim va munaqqid G'aybulloh Salomovning bundan qariyb 50 yil oldin ta'kidlagan ta'biri bilan aytganda, "... ko'p ming kishilik tilshunoslar va adabiyotshunoslar otryadiga ega bo'lsak ham, bizda G'arbiy Yevropa va Sharq tillaridan tarjima qilishga yurak yutib kirishganlar soni barmoq bilan sanarli darajada kam? Buning sababi nimada?

Bu muammoni mamlakatimizda hanuzgacha, aksariyat hollarda xorijiy tilni obrazlar tizimi deb emas, balki mavhum tushunchalar tizimi sifatida tushunib, tilning ba'diy quvvati va ma'nolarini chuqur va atroflicha his eta olmaslik bilan izohlash mumkin. V.Rossel'sning ta'kidlashicha, badiiy asar u yaratilgan mamlakat muhiti, milliy hayot tarzi, shakli va san'ati bilan shu qadar chambarchas bog'langan bo'ladiki, o'z tilida faqat vatandoshlariga va ... tarjimonlargagina "to'laligicha" borib yetishi mumkin.

Tarjimon ham asarning asl nusxasini begona tilda o'qisa ham, u tarjima asnosida ijodiy vazifa bilan mashg'ul bo'ladi, asarni o'z ona tili vositasida talqin qilishi va keng kitobxon-mushtariylarga yetkazish uchun qaytadan yaratishi kerak. Belarus tarjimashunos olimi P.I.Kopanov fikricha, tarjimon masalasi muammolar muammosi bo'lib qolmoqda, negaki unga yozuvchilik, zukkolik qobiliyatlariga, yetuk ma'lumot olgan filolog bilimiga ega hamda o'zi tarjima qilayotgan sohada fidoyi kishi bo'lishi talabi qo'yiladi.

Shu bois ham dunyoning ko'pgina mamlakatlarida, jumladan, kamina uzoq muddat faoliyat olib borgan Saudiya Arabistonidagi podshoh Saud, Qatardagi shayx Hamad bin Xalifa, Misrdagi Qohira va Ayn Shams universitetlari magistraturalari bosqichida bozor talablariga mos ravishda turli sohalarda, xususan, yetakchi ommaviy axborot vositalari (CNN, BBC, Al-Jazeera, Russia Today, Al-Arabiyya va boshqalar), sanoat, turizm, reklama, bank, yirik nashriyotlar, moliya, davlat boshqaruvi hamda xalqaro tashkilotlar, birinchi navbatda BMT va uning tarkibiy-qurilmaviy agentliklari uchun

tarjimonlarni tayyorlash tajribasini respublikamizda ham yanada kengroq tatbiq etish zarur. Mazkur universitetlar bitiruvchilariga diplomdan tashqari tarjima ixtisosliklari bo'yicha xalqaro e'tirof etilgan tarjimonlik sertifikatlari beriladi.

Tarjimonlar orqali suhbatlashish muzokaralar jarayoniga sezilarli o'zgarishlar kiritadi; birinchidan, tadbirni o'tkazish xarajatlari oshadi; ikkinchidan, amaliy muzokaralar jarayoni uzaytiriladi; uchinchidan, hamkor sheriklar o'rtasida ayrim tushunmovchiliklarning yuzaga kelishi xavfi ham mavjud. Biroq, muzokaralar qanday mavzuda o'tkazilishidan qat'iy nazar, unda tarjimonning roli juda kattadir. Tarjimon barcha ishtirokchilar e'tiborini bog'laydi, bunda ko'p narsa uning tarjima qilgan narsasiga emas, balki uni qanday bajarishiga ham bog'liq.

Yuqorida qayd etilganidek, Davlatlar va xalqlar o'rtasidagi madaniy hamkorlik diplomatik faoliyatning asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Respublikamizning chet ellardagi elchixonalariga O'zbekistonning boy va betakror ilmiy-madaniy merosi, jumladan, o'zbek tilini targ'ib qilish va ommalashtirish vazifasi ham muhim diplomatik xizmat vazifalariga kiritilgan.

Ushbu sharaflı missiyani bajarishga to'sqinlik qiluvchi muammolar sirasiga avvalambor sifatli darsliklar, mukammal lug'atlar mavjud emasligi, xorijiy tilda o'zbek tilini erkin tushuntira oladigan o'qituvchilar yetishmasligi, ularni moddiy-ma'naviy qo'llab quvvatlash mexanizmi yaratilmaganligini ko'rsatib o'tish joizdir.

Bu muammolarni hal qilish uchun hukumat tomonidan mablag' ajratib hal qilish mumkindir. Ammo asosiy muammo xorijliklar orasida o'zbek tiliga qiziqishning nihoyatda pastligida deb hisoblaymiz.

Qohira universitetida turk tilini o'rganayotgan talabalar 4-kursda qo'shimcha ozarbayjon, qozoq va o'zbek tilarini turkiy tillar shevalari sifatida o'rganishlari lozim. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, o'zbek tilida betakror, o'lmas asarlar yaratgan Lutfiy, Alisher Navoiy, Husayn Boyqaro, Bobur, Xondamir,

Mirxond, Bekzod ijodi, islom sivilizatsiyasi va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan tarixiy shaharlari va buyuk ajdodlari bor xalqning tili va madaniyatini o'rganishga qiziqish katta emas. Albatta, talabalar uchun universitetni tamomlagandan keyin, mehnat bozorida ushbu tilni o'rganib, munosib ish o'rnini topish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yaqin Sharq mintaqasidagi siyosiy vaziyat va voqealar rivojiga Eronning yondashuvi va ta'siri sababli aksariyat arab davlatlarining ushbu mamlakat bilan aloqalari va hamkorlik ko'lami birmuncha cheklangan. Shunday bo'lsa-da, arab mamlakatlari, xususan, Ko'rfaz davlatlarida fors tili va adabiyoti hamda eronshunoslik va tahliliy tadqiqotlarga bo'lgan e'tibor o'zining yuqoriligi bilan ajralib turadi.

Fikrimizcha, buning asosiy sabablaridan biri Tehronning Yaqin Sharqdagi jarayonlarga ta'sir etuvchi yirik mintaqaviy kuch sifatida global aktorlar tomonidan e'tirov qilinishi bo'lsa, boshqa jihatdan fors tilida yozilgan badiiy asarlarning xorijiy tillarga mohirlik bilan tarjima qilinganligi va tarqatilganligini ham ko'rsatib o'tish darkor.

Nafaqat Sharqda, balki G'arbda ham Firdavsiy, Umar Xayyom, Rumiyni bilmagan ziyoli kishini topish amri mahol. Ularning turli tillarga tarjima qilingan she'rlari hozirga qadar qayta-qayta tilga olinadi.

Keyingi yillarda mumtoz o'zbek adabiyoti namunalari (Alisher Navoiy, Bobur, Cho'lpon, Behbudiy va boshqalar asarlari), tarixi, san'atiga oid materiallar, O'zbekistonning mustaqillik yillarida turli sohalarda erishgan yutug'larini aks ettiruvchi ma'lumotlar rus tilidan tashqari boshqa xorijiy tillarga, jumladan arab tiliga tarjimasi amalga oshirilgan bo'lsada, bu yo'nalishda o'zbek tarjimashunosligi oldida keng ko'lamda dolzarb masalalar turibdi.

Xususan, mumtoz adabiyotimiz namunalarini xorijiy tilga tarjima qiluvchi shaxs o'z tilida voqealarni nihoyatda go'zal ifodalay bilishi va ko'p yillik tajribaga ega bo'lishi talab etiladi. Bunda nasrda yozilgan asarni tarjima qilishda voqealar ma'nosi badiiy bezak berilgan holda tarjima qilinishi va asl

matndan biroz farq qilishi tufayli, uning qaysi tildan o'girilishi ikkinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

Lekin, nazmda bitilgan asarlar faqat bevosita asl tildan va nihoyatda katta tajribaga ega shaxslar tomonidan o'girilishi lozim. Navoiy asarlarini tarjima qilishga jur'at etgan shaxs, yoxud navoiyshunos bo'lish istagidagi har bir filolog nafaqat o'zbek tilini mukammal o'zlashtirishi, balki eski o'zbek tili bilan birgalikda arab va fors tillari hamda tasavvuf ilmi va sharq falsafasidan xabardor bo'lishi ham talab etiladi.

O'zbek tilini xorijda o'qitish va targ'ib qilishni istar ekanmiz, bu muammoni nafaqat ba'zi bir tarixiy sanalarda yodga olish, balki uni hal etish mexanizmini yaratish talab etiladi. Ushbu yo'nalishda O'zbekiston madaniyati va san'atini xorijiy mamlakatlarda keng miqyosda targ'ib qilish maqsadida xalqaro Tashqi ishlar vazirligi huzurida hamkorlik agentligini hamda respublikamizning chet ellardagi vakolatxonalari huzurida O'zbekiston madaniyati markazlarini tashkil etish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Mazkur markazlar faoliyatiga xalqimizning boy madaniy-ilmiy merosi, betakror, xilma-xil urf-odatlarini tarannum etish, o'zbek tilini o'qitishdan tashqari xorijiy hamkorlar bilan birgalikda soddalashtirilgan va chet elliklar uchun mo'ljallangan, ularning tillarida yozilgan darsliklar va qo'llanmalar hamda sifatli lug'atlar tayyorlash vazifalari ham kiritiladi.

Uzoq istiqbolda esa, mazkur madaniyat markazlari faoliyati samarasi yurtimiz va xalqimizning jahon miqyosida o'zining munosib "yumshoq kuch"ga ega bo'lishi, xorijliklarning O'zbekistonga oid bilimlarining shakllanishi hamda ularning yurtimizga bo'gan qiziqishlarining ortishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdul Aziz Al-Hurr, Nawzad Abdul Rahman Al-Haiqi. The Art of Report Writing, 2023, Diplomatic Institute in the State of Qatar, pp 99-101 (In arabic)

-
2. Abdulaziz Al-Hurr, Diplomacy, Leadership and Power, Diplomatic Institute in the State of Qatar, pp. 60-61, Doha 2022. (In arabic)
 3. Gibson Robert. Intercultural Business Communication. Oxford University Press, 2002 111p.
 4. Penny Carte, Chis Fox. Bridging the Culture Gap: A Practical Guide to International Business, 2008, p.6
 5. Voevoda Y.V. Podgotovka spetsialistov-mejdunarodnikov k mejkulturnoy kommunikatsii v professionalnom diskurse. Sovremennaya kommunikativistika. 2012, pp.26-31 (In Russian)
 6. Vereshagin Y.M., Kostomarov V.G. V poiskax novix putey razvitiya lingvostranavedeniya: konsepsiya rechapovedenchestkx taktik. <https://cyberleninka.ru/article/n/2001-02-012> (In russian)
 7. Popov V.I. Sovremennaya diplomatiya, p.34-35. Moskva 2003 (In Russian)
 8. Ryabova M.V. Kultura i yazik kak fundamentalnie sostavlyayushie mejkulturnogo obsheniya. https://www.gramota.net/articles/issn_1993-5552_2008_2-1_75.pdf (In russian).
 9. Tarjima sa'ati, pp 56-71, Toshkent-1978
 10. International scientific-practical conference on the topic of "Foreign language in professional communication" Research BIB / Index Copernicus (E)ISSN: 2181-1784 4(25), pp.11-22, Dec., 2024 www.oriens.uz

MAXTUMQULI MALLAYEV (JIDU)

**DIPLOMATIK KADRLARNI TAYYORLASHDA XORIJIY TIL KOMMUNIKATIV
KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15558002>

***Annotatsiya:** Maqolada shaxsiy tajribaga tayangan holda diplomatik faoliyatda chet tilidagi kommunikativ kompetensiyalarning tutgan o'рни tahlil qilingan hamda bo'lg'usi diplomatlarda chet tilida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning ahamiyati va imkoniyatlari haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *globallashuv jarayonlari, siyosiy muloqot, iqtisodiy va madaniy hamkorlik, kommunikativ kompetensiyalar, diplomatik muzokaralar, diplomatik yozishmalar, rasmiy hujjatlar, konsullik xizmati, o'quv dasturi, til bilish darajasi, chet tilini o'qitish va o'rganish davomiyligi va h.k.*

Abstract: *The article analyzes the role of communicative competence in a foreign language in diplomatic activities, based on personal experience, and discusses the importance and opportunities for the formation of communicative competence in a foreign language for future diplomats.*

Keywords: *globalization processes, political dialogue, economic and cultural cooperation, communicative competences, diplomatic negotiations, diplomatic correspondence, official documents, consular service, curriculum, level of language proficiency, duration of foreign language teaching and learning, etc*

Tobora globallashib va yanada izchil tarmoqlashib borayotgan bugungi davr bo'lg'usi mutaxassisdan nafaqat o'z kasbini mukammal egallashni, balki o'z sohasida global muloqotlarga va hamkorlikga tayyor bo'lishni talab qilmoqda.

Chunki hozirgi kunda har bir rivojlangan va rivojlanayotgan, yoki nisbatan kam rivojlangan davlat boshqa davlatlar bilan turli va o'ziga kerakli sohalarda muloqot/hamkorlik o'rnatish va uni rivojlantirib borishdan manfaatdordir va hattoki shunga majburdir, aks holda bu millat yoki davlatning xalqaro taraqqiyotdan orqada qolishi, izolyatsiyaga tushib qolish yoki boshqa kuchli davlatga doimo qaram bo'lib qolaverish ehtimoli ko'pdir.

Biz bu yerda «globallashuv jarayonlari», «global dunyo», «global hamkorlik» yoki «global munosabatlar» tushunchalariga izoh berishdan yiroqmiz, chunki ular barchamizga tushunarli. Bizning maqsad, mazkur jarayonlarda mutaxassisning xorijiy tillardagi kommunikativ kompetensiyalari qanchalik ahamiyatga ega ekanligini aniqlash va ularni yosh diplomatlarda shakllantirish muhimligiga e'tibor qaratishdir. Demak, maqolada diplomatik kadrlarni tayyorlashda chet tilining o'rni va chet tilida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning ahamiyati haqida so'z yuritiladi.

Ma'lumki, xalqaro globallashuv jarayonlari avvalom bor davlatlar o'rtasida o'zaro manfaatli **siyosiy muloqot/hamkorlik** o'rnatishni va uni rivojlantirib (parvarishlab) borishni talab qiladi. Trancchegaraviy va umumjahon miqyosdagi muammolar (*masalan ichimlik suvi, suv havzalari va suv yo'llaridan foydalanish, iqlim o'zgarishi, havoning zararlanishi va boshqa ekologik muammolar, atrof-muhit himoyasi, demografik masalalar, immigratsiya muammolari, xalqaro huquq, tovar va pul aylanmalari (eskport-import), urush va tinchlik masalalari va h.k.*) hech bir davlat tomonidan mustaqil ravishda hal etila olmaydi, chunki bu masalalarda davlatlar bir-biriga bog'liq va bir-biri bilan hisoblashishga majburdir. Shu ma'noda bukun hech bir davlat o'zini boshqalardan mutlaq mustaqilman deb ayta olmaydi va tegishli davlatlar bilan doimiy aloqada/muloqotda bo'lishga majburdir. Bu vaziyatda o'z sohasida chuqur bilim va malakalarga ega bo'lgan, chet tilini mukammal biladigan hamda mazkur til kommunikativ kompetensiyalarini puxta egallagan mutaxassislar muhim o'rin egallashi bizga aniqdir albatta.

Bundan tashqari **xalqaro iqtisodiy hamkorlik/biznes** hamda jahon bozoriga kirib borayotgan va unda faoliyat yuritayotgan kompaniyalar asosan chet tillarida, xususan BMT rasmiy tillari hisoblangan ingliz, fransuz, ispan, rus, xitoy va arab tillari hamda boshqa tillarda (jumladan, nemis tilida) kommunikativ kompetensiyalarga ega bo'lgan mutaxassislarga ustivor ehtiyoj sezayotganligini sezish yoki tushunish qiyin emas. Chunki, jadal rivojlanayotgan va barcha sohalarni qamrab olayotgan raqamli texnologiyalar, boshqacha so'z bilan aytganda xalqaro raqamlashish (raqamli iqtisodiyot) sharoitida ikki va ko'p tomonlama kommunikatsiya qulay va oson, masofa va chegara bilmas Web-saytlar va elektron platformalar/tarmoqlar orqali onlayn tarzda amalga oshirilmoqda. E'tiborlisi shuki, xalqaro hamkorlik zudlik bilan, ya'ni juda qisqa vaqtda kechikmasdan ma'lumot yoki xabarlar almashuvini taqozo qilmoqda. Buni esa chet tilida xalqaro miqyosda faoliyat yurita oladigan mutaxassislarsiz tasavvur qilish qiyin.

Shu o'rinda ***xalqaro madaniy aloqalarda*** ham dunyo xalqlari tili, san'ati, madaniyati, urf-odatlarini, ijtimoiy hayotini va boshqa xususiyatlarni biladigan mutaxassislar talab tobora ko'payib borayotganligini ta'kidlash o'rinlidir.

Ko'rinib turibdiki, chet tillarini bilish xalqaro siyosiy maydonda, global mehnat va tovarlar bozorida va umuman globallashib borayotgan barcha hamkorlik sohalarda yangi va keng imkoniyatlar ochmoqda, madaniyatlararo va xalqlararo totuvlik va hamjihatlikni hamda raqobatbardoshlikni rivojlantirishda muhim rol o'ynamoqda. Demak, chet tillarini mukammal bilish va u tillar kommunikativ kompetensiyalarini puxta egallash hozirgi zamonning bo'g'usi mutaxassislar, xususan oliy va kasbiy ta'lim tizimi oldiga qo'yayotgan asosiy talablaridan biridir. Albatta bu talab so'zsiz kelgusi o'zbek diplomatlarini tayyorlash tizimiga ham tegishlidir.

Bizga ma'lumki, xalqlar va davlatlar o'rtasida turli sohalarda muloqot/hamkorlik o'rnatish, uning barqarorligi va yaxshi yoki yomon tomonga rivojlanishi bevosita va bilvosita diplomatlar faoliyati bilan bog'liqdir. Diplomatning kasbiy mahorati avvalom bor uning o'z ona tilida va bir yoki ko'p chet tillarida nisbatan a'lo darajada ish yurita olishi bilan belgilanadi desak adashmaymiz.

Chunki, oldingi zamonlarda bo'lgani kabi hozirgi vaqtda ham elchilik ya'ni diplomatiya mutaxassislardan xalqaro minbarlarda/maydonlarda samarali muloqot qilishni talab qiladi. Intensiv axborot almashish muhitida va xalqaro siyosatdagi doimiy o'zgarishlar, diplomatlardan muttasil ravishda chet tilidagi ko'nikma va malakalarini rivojlantirib borishni va har qanday global tahdid va talablarga moslashib borishni taqazo qiladi. Bunda eng asosiysi madaniyatlararo kommunikatsiya, siyosiy va iqtisodiy tahlil ko'nikmalari, hamda ko'ptillilik muhitda muammolar yechimini topish qobiliyatiga ega bo'lishdir. Diplomatning chet tilidagi kommunikativ kompetensiyalari turli sohalardagi xalqaro hamkorlikda muvaffaqiyat qozonishda hal qiluvchi omil (faktor) vazifasini o'taydi.

Diplomatlarning “chet tilidagi kommunikativ kompetensiyalari” deganda biz xodim tomonidan o‘rganilgan chet tilining grammatikasi, leksikasi (lug‘ati), fonetikasi bo‘yicha egallagan bilim va ko‘nikmalarni xorijiy davlat vakillari bilan muloqot jarayonida qo‘llash qobiliyatini tushunamiz. Bunda “muloqot” tushunchasi nutqiy, ya‘ni yozish, gapirish, o‘qish va eshitib tushunish kompetensiyalarini nazarda tutadi. O‘z navbatida bu kompetensiyalar sotsiolingvistik va pragmatik bilim va ko‘nikmalar bilan to‘ldirilgan bo‘lishi muhimdir.

Xo‘sh, diplomat chet tilida qanday kommunikativ kompetensiyalarga ega bo‘lmog‘i kerak?

Yuqorida zikr etilganidek, har qanday tilda kommunikativ kompetensiyaga ega bo‘lish *o‘qish, yozish, gapirish va tinglab tushunish hamda tildan vositachi* sifatida unumli foydalanish qobiliyatini nazarda tutadi. Qo‘shimcha sifatida ta‘kidlash joizki, bunda muloqot ishtirokchisining qarama-qarshi tomonning manfaatlariga butunlay putr yetkazmasdan o‘zini suhbat muhitiga mos ravishda tutishi va ikki tomonga ma‘qul bo‘lgan maqsadga yoki yechimga erishish ko‘nikmasi asosiy rol o‘ynaydi.

Chet tilida kommunikativ kompetensiyalar diplomatik kasbiy ko‘nikma va malakalarining ajralmas qismi bo‘lib xalqaro miqyosdagi vazifalarni muvaffaqiyatli bajarishga samarali ta‘sir ko‘rsatadi. Buning uchun quyidagi sabablarni keltirish mumkin:

1. Diplomat chet tilida o‘z fikr mulohazalarini aniq va ravshan ifoda eta olishi lozim. Bu esa boshqa davlat vakillari bilan muloqotda tushunmovchiliklarni oldini oladi va muzokaralar samaradorligiga hissa qo‘shadi. Ma‘lumki, odatda diplomatik muzokaralarda faqat so‘z yoki iboralar emas, balki umumiy mazmun (kontekst), nutq uslubi, prozodik va paralingvistik vositalarni qo‘llash, tushunish yoki anglay olish muhim ahamiyat kashf etadi.

Ta'kidlash joizki, muzoqaralar olib borish, xalqaro uchrashuv va tadbirlarda (konferensiya, siyosiy va iqtisodiy maslahatlashuvlar, forum, seminarlarda va h.k.) ishtirok etish, murakkab va ziddiyatli holatlarda muammoning to'g'ri yechimini topish va h.k., bular hammasi diplomatdan yuqori yoki hech bo'lmaganda yetarli darajada chet tilini bilishni talab qiladi.

2. Chet tilida kommunikativ kompetensiyalarga ega bo'lish xorijiy suhbatdoshning sotsiolingvistik, madaniy, ma'rifiy, etnik, milliy xususiyatlarini hamda qaysi ijtimoiy qatlamga tegishli ekanligini yaxshi anglashga yordam beradi. Bu esa o'z navbatida ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Masalan ba'zi xalqlarda fikrlar to'g'ridan-to'g'ri emas, balki mushohoda shaklida aytilsa, boshqa bir millatda bevositalikka (ya'ni aniq va to'g'ridan-to'g'ri maqsadni ochiqlashga) ahamiyat beriladi. Bunday madaniy va nutqiy farqlarni anglash diplomatik faoliyat uchun zarur hisoblanadi.

Yana bir misol, biz bilamizki har qanday ikki yoki ko'p tomonlama muzokaralar va "tet-a-tet" suhbatlardan ko'zlangan maqsad va xohish-istaklardan kelib chiqqan holda tomonlar o'rtasida har xil nutqiy vaziyatlar (iliqlik, keskinlik, hazil mutoyiba, kinoya, kesatish va boshqalar), manfaatlar to'qnashuvi yoki manfaatlar uyg'unligi vujudga kelishi tabiiydir. Bunday holatlarda diplomat kommunikativ maqsad va vaziyatga mos so'z topa olishi, o'zini tuta bilishi, o'z nutqiga suhbatdoshning ijtimoiy, milliy va madaniy qadriyatlarini hisobga olgan holda kerakli lingvistik shakl bera olishi muhim ahamiyat kasb etadi. Demak ideal ma'noda aytish joizki, diplomat nafaqat chet tilini bilishi, balki chet tili orqali boshqa xalqlarning madaniy i ijtimoiy til xususiyatlarini tushunmog'i ham kerak.

Yuqorida keltirilgan ikki sababni aniqlashtirish maqsadida biz o'z diplomatik ish tajribamizdan bir misolni keltirishni ma'qul ko'rdik.

Demak, 1999 yilda Germaniya poytaxti Berlin shahrida O'zbekiston elchixonasi uchun maydoni yetarli darajada katta bo'lgan hududda joylashgan

eski bino sotib olindi. Ushbu binoni o'zbek milliy uslubida ta'mirlash va hududni obodonlashtirish uchun O'zbekistondan ustolar va ishchilar taklif qilindi. Binoni ta'mirlayotgan ko'pchilik ishchilar elchixona mehmonlari sifatida Germaniyada ishlash vizasi bilan emas, balki "shengen", ya'ni mehmondorchilik va sayoxat uchun beriladigan 90 kunlik viza orqali taklif qilingan edilar. Sabab, Germaniyada ishlash uchun tegishli milliy viza olish kerak va buning uchun biron bir nemis qurilish kompaniyasi ish beruvchi sifatida o'zbekistonlik ishchilarni taklif qilmog'i zarur edi.

Xullas, ta'mirlash ishlari ko'p vaqtni talab qilganligi sababli, ishchilar vizasi muddati tugagan va ularning ko'pchiligi 2 oydan 6 oygacha Germaniyada vizasiz, ya'ni noqonuniy yashashgan va ishlashgan. Endi bu muammoni qanday bo'lmasin ijobiy hal etmoq zaruriyati tug'ildi, va kaminaga bu mushkul ish topshirildi. Muammoni GFR Tashqi ishlar vazirligi va Berlin chet elliklar bilan ishlash boshqarmasi bilan hal qilish kerak edi. Ya'ni nemis tomoni bizning ishchilarning GFRda turish ruxsatnomasini elchixona binosini ta'mirlash ishlari tugagunga kadar cho'zib berishiga erishish lozim edi, aks holda ta'mirlash ishlari o'zoq muddatlarga to'xtab qolishi va ishchilarga ma'lum miqdorda moliyaviy jarimalar solinishi tayin edi.

Aytish joizki, chet tilida kommunikativ kompetensiyalarsiz mazkur vazifani uddalash oson bo'lmadi. Nemis tomonini mazkur holat atayin yoki nemis qonunlarini pisand qilmaslik tufayli yuzaga kelmaganligiga ishontirishga erishildi, va eng asosiysi, bu eski tashlandiq binoni O'zbekiston mablag'lari hisobiga ta'mirlash va hududni obodonlashtirish Berlin shahri uchun ham foydadan xoli bo'lmashligini, shahar ko'rkiga ko'rk qo'shishini nemis rasmiylari tushunishdi va nihoyat bizning ishchilar vizalarini istisno sifatida jarimasiz uzaytirib berishdi. Elchixona binosi va u joylashgan hudud 2001 yil bahorga kelib butunlay ta'mirdan chiqdi va o'sha yili 3 aprel kuni O'zbekiston Prezidentining Germaniyaga rasmiy tashrifi doirasida tantanali ochildi.

3. Diplomati rasmiy hujjatlar (diplomatik yozishmalar - notalar, rasmiy xabar va e'lonlar, memorandumlar, bitim va shartnomalar va h.k.) bilan ishlaydi va ularni tayyorlashda bevosita ishtirok etadi. O'z ona tili va chet tilini yetarli darajada bilmasdan turib bunday hujjatlarni tayyorlash oson emas albatta, aks holda hujjatlarda yuridik xatolarga yo'l qo'yilishi va tushunmovchiliklar kelib chiqishi mumkin.

Yuqoridagi tezisga misol tariqasida ikki tomonlama bitimlarni imzoga tayyorlash jarayonini keltirish mumkin. 2001 yil apreldagi O'zbekiston Rahbarining GFRga tashrifi doirasida 12 dan ortiq ikki tomonlama shartnoma va bitimlar imzolandi. O'sha hujjatlar loyihalarini imzoga tayyorlashda ma'lum tushunchalar va iboralarni ikki tomon ham to'la (to'liq) tushunishi uchun o'zbek va nemis tilida to'g'ri so'z va iboralar topish hamda o'zbekcha va nemischa matnlarga tuzatishlar kiritish orqali ularning autentligini ta'minlash lozim edi, chunki ikki tomonlama bitimlarda har xil tildagi matnlar o'zlarining mantiqiy mazmuni bilan bir-biriga mos bo'lishi kerak. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yuqoridagi holatda ham nemis tilidagi bilim va ko'niklamalar, xususan kommunikativ kompetensiyalarsiz biron bir natijaga erishib bo'lmas edi.

4. Xalqaro maydonda (minbarlarda, xalqaro tashkilotlarda, muzokaralar, konferensiyalar va forumlarda) o'z vatani manfaatlarini himoya qilish, vatani zimmasidagi xalqaro majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash diplomati eng asosiy vazifalaridan biridir. Albatta bu faoliyatda samaradorlikka erishish diplomati chet tilida yetarli kommunikativ kompetensiyalarga ega bo'lishni taqozo qiladi.

5. Ta'kidlash lozimki, chet tilini bilish boshqa davlatlarning ichki va tashqi siyosati, madaniyati, iqtisodiyoti haqidagi ma'lumotlarni to'g'ridan-to'g'ri (birinchi qo'ldan) olishga va tashqi manbalardan olingan ma'lumotlarni taqqoslash va analiz qilishga keng imkoniyat ochadi. Bizga ma'lumki, tahliliy ma'lumotlar va ilmiy ma'qolalar tayyorlashda chet tilini yetarli darajada bilmagan xodimning imkoniyatlari faqat bir til (ona tili) doirasida cheklangan

bo'lsa, aksincha ko'p tillarni yaxshi biladigan xodimning imkoniyatlar diapazoni ancha kengdir. Bundan tashqari bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish, ikki tilda ham tushunarli bo'lgan so'z va iboralar topish, matnlarning kontekstini aniqlay olish ko'nikmalari chet tilini bilgan xodimning ish samaradorligini ancha oshiradi.

6. Tashqi siyosat diplomatdan zamonaviy axborot texnologiyalari va mediaplatformalardan foydalangan holda xorijiy hamkasblar, xalqaro tashkilotlar, iqtisodiy va madaniy hamda ommaviy axborot vositalar vakillari bilan doimiy tarmoqli aloqalar o'rnatishni va bu aloqalarni doimo qo'llab-quvvatlab turishni talab qiladi. Chunki bu aloqalar orqali ba'zi bir xalqaro yoki ikki tomonlama munosabatlardagi masalalarga nisbatan u yoki bu davlat qarashlari va yondoshuvlari haqida tezkorlik bilan ma'lumot olish mumkin, yoki bo'lmasa chet ellik kollegalar orqali qaysidir masalada O'zbekistonning manfaatlarini ilgari surish, xorijiy mamlakat parlamenti yoki partiyalari doirasi O'zbekistonni qo'llab-quvvatlovchi lobbistlar guruhini tashkillashtirish mumkin. Yaxshi darajadagi chet tilidagi kommunikativ kompetensiyalar xorijiy kollegalar bilan o'zaro ishonchli aloqalarni shakllantirishda va rivojlantrishda muhim rol o'ynaydi.

Fikrimizning dalili sifatida ikki va ko'p tomonlama parlamentlararo guruhlar (masalan parlamentlararo aloqalarda "Germaniya-Markaziy Osiyo" parlament guruhi, "O'zbekiston-Fransiya" parlament guruhi, AQSh Kongressining quyi palatasida «O'zbekiston bo'yicha kokus» (hayrihohlar), «O'zbekiston-Italiya» parlamentlararo hamkorlik guruhi va boshqalar) faoliyatini keltirish mumkin. Bu guruhlarda asosan muntazam o'zaro axborot almashish, do'stlik, hamnafaslik va ishonch aloqalari muhim rol o'ynaydi.

7. Ma'lumki diplomatik amaliyotda nafaqat chet ellik bilan muloqot o'tkazish, balki ushbu muloqot natijalari haqida Tashqi ishlar vazirligiga va boshqa tegishli instansiyalarga aniq va to'liq xabar yetqazish lozim. Buning uchun diplomat chet tilidagi termin va iboralarni o'z ona tilida to'g'ri talqin

qilishi, ularning mazmunini aniq va ravshan ifoda etmog'i zarur bo'ladi, aks holda yuqori instansiyalarda tushunmovchilik yuzaga kelishi va noto'g'ri xulosa chiqarishga olib kelishi mumkin. Bu esa o'z navbatida ikki tomonlama munosabatlar rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagiga ko'plab misol keltirish mumkin. Masalan o'zaro rasmiy tashriflar tashkil qilishdagi tushunmovchiliklar. Odatda hukumat vakilining chet elga xizmat tashrifi ikkinchi tomon bilan oldindan kelishilib, bu tashrifdan ko'zlangan maqsad va vazifalar belgilab olinadi. Diplomat aybi bilan chet davlat vakilining masala yuzasidan bildirgan fikr, mulohaza va takliflari noto'g'ri tushunilgani yoki talqin qilinganligi ikkinchi tomonning noto'g'ri qaror qabul qilishiga olib kelgan. Natijada birinchi tomon rozilik bermagan tashrifga ikkinchi tomon tayyorgarlik ko'rgan, tegishli yillik va yarim yillik rejalarga bu "kelishilmagan tashrif" kiritilgan va uni amalga oshirish uchun tegishli tashkilot va resurslar jalb etilgan, tayyorgarliklar boshlanib yuborilgan. Ammo, keyinchalik ikki tomonlama batafsil yozishmalardan bu "rejalashtirilgan tashrif" tomonlar o'rtasida umuman kelishilmaganligi ma'lum bo'lgan.

8. Konsullik xizmati ham diplomatdan chet tilini yaxshi bilishni talab qiladi. Horiyda O'zbekiston fuqarolari huquq va manfaatlarini himoya qilish yoki chet davlat organlari va fuqarolari bilan yuzaga keladigan huquqiy masalalar mazkur davlat mahalliy va markaziy davlat organlari bilan hamkorlik olib borishni taqozo qiladi. Mezbon davlat tilini tushunish va u yordamida muloqot qilish konsulga o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishda ko'mak berishi tayindir.

9. Dunyo mehnat bozorida avj olayotgan global raqobatlashish sharoitida chet tilida mukammal kommunikativ kompetensiyalarga xamda diplomatik bilim va ko'nikmalarga ega mutaxassislar yaqqol ustunlikga egadirlar. Bunday raqobatbardosh mutaxassislar uchun BMT, Jahon savdo tashkiloti, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlarda ishlash imkoniyatlari juda keng desak adashmaysiz.

Biz yuqorida keltirgan maqola mavzusiga taalluqli unchalik to'liq bo'lmagan vaj va sabablar chet tilidagi kommunikativ kompetensiyalar nafaqat chet tilida muloqotga kirish, balki xalqaro munosabatlar kontekstini chuqur anglash qobiliyati sifatida diplomat faoliyatining ajralmas muhim bir qismi ekanligini ko'rsatadi. Demak diplomatda ona tilida qanday nutqiy ko'nikmalar bo'lsa, chet tilida ham shunga yaqinroq (to'g'rirog'i juda yaqin) quyidagi nutqiy qo'nikmalar va kommunikativ kompetensiyalar shakllantirilgan bo'lmog'i lozim:

- chet tilida gapirish ko'nikmalari – diplomatning chet elliklar bilan rasmiy muloqot va uchrashuvlarda verbal faol ishtirok etish qobiliyati;

- chet tilida tinglab tushunish ko'nikmalari – hamsuhbat nutqini eshitish, to'g'ri tushunish va talqin qila olish qobiliyati;

- chet tilida yozish ko'nikmalari – rasmiy xatlar va hujjatlarni diplomatik tilda va uslubda grammatik, leksik va orfografik xatolarsiz tayyorlash qobiliyati;

- chet tilida o'qish yoki o'qib tushunish ko'nikmalari – turli xil hajmda va murakkabligi jihatdan har xil darajada bo'lgan matnlarni, masalan siyosiy bayonot, bitim, tahliliy materiallar va hokozolar ustida ishlash, mazmun va mohiyatini tushunish qobiliyati.

Diplomatik faoliyat o'zining ko'p qirraligi bilan boshqa faoliyatlardan ajralib turishi bizga ayon. Shunday ekan, ushbu faoliyatga tayyorlash umumiy tarzda siyosiy, iqtisodiy va madaniy masalalarda chet tilida yetarlicha yuqoridagi kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishni ko'zda tutmog'i zarur.

Keling endi oddiy misollar yordamida Tashqi ishlar vazirligi tizimida xodimlarning chet tilini bilishlari bilan bog'liq umumiy holat haqida so'z yuritsak. Ma'lum sabablarga ko'ra, bizda qancha diplomat nechta chet tillarini (*izoh: rus tilidan boshqa*) bilishi hamda qay darajada bilishi haqida aniq statistik ma'lumot mavjud emas. Aslida bu biz uchun muhim ham emas. Ammo, ko'p

yillik shaxsiy tajriba, kuzatuvlar va har yilgi chet tilidan imtixon natijalariga suyanagan holda quyidagilarni ta'kidlashni joiz deb topdik:

- vazirlik va elchixonalarimizda ishlayotgan yosh diplomatlarning deyarli barchasi loaqal bitta chet tilini (ayniqsa, ingliz tilini) a'lo va yaxshi darajada bilishadi, deb ayta olamiz. Ammo amaliyotda ularning taxminan yarmidan ko'pida chet tilida muzokaralar olib borish layoqati va rasmiy xat yozish hamda rasmiy hujjatlar bilan ishlash ko'nikmalari yetarli darajada rivojlangan deyish qiyin. Bundan tashqari, diplomatlar oddiy muzokaralarda (uchrashuvlar, bayram tadbirlaridagi ayrim suhbatlarda va h.k.) tarjimonlik qilishda qiyinchiliklarga duch kelishadi, ba'zan oddiy hazilni (qochirimlarni) chin haqiqat sifatida qabul qilishadi, suhbatdosh nutqidagi sotsiolingvistik xususiyatlar e'tibordan chetda qoldiriladi va boshqalar.

Biz albatta bu yerda diplomatlarda bir tildan ikkinchi tilga sinxron tarjima qilish ko'nikmalari bo'lishi lozim degan fikrdan yiroqmiz, garchi ularning bo'lishi, o'ylashimizcha, diplomat faoliyatini yanada samarador bo'lishini ta'minlashi tayindir.

- xodimlarda ikkinchi chet tilini bilish darajasi juda past yoki qariyib yo'q hisob, chunki ikkinchi chet tilidan UMEDda olingan imtixonlar natijalariga ko'ra har 10 kishidan atigi 1 yoki ko'p bo'lsa 2 – 3 kishi qoniqarli daraja ko'rsatgan. Vazirlikda ikkita chet tilini mukammal biladigan xodimlar juda kamchilikni tashkil etadi;

- kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, vazirlik xodimlari orasida rus tilini mukammal biladigan xodimlar soni kamayib bormoqda, xolbuki hozirgi paytgacha SNG davlatlarida, xususan qo'shni mamlakatlarda rus tili (ingliz tili emas) millatlararo asosiy aloqa vositasi sifatida qolmoqda.

Yuqoridagi holat diplomatlarda chet til ko'nikmalari va kompetensiyalarini shakllantirish va rivojlantirish ustida muttasil ishlash va bu ishni yanada takomillashtirib borish lozimligini ko'rsatadi. Shu o'rinda

UMEDda yosh diplomatlarni tayyorlashda chet tilini o'qitishga qanday e'tibor berilayotganiga e'tibor qaratsak.

Hozirgi paytda universitetda rus tili faqat birinchi bosqichda bir yilgina o'tiladi, asosiy chet tili birinchi va ikkinchi bosqichlarda, ikkinchi chet tili esa ikkinchi va uchinchi bosqichlarda bor yo'g'i ikki yil davomida o'quv fani sifatida o'rgatiladi xolos.

Albatta hozirgi amaliyotga ko'ra, universitetga ma'lum bir chet tilini, ayniqcha ingliz tilini kamida V1/V2 yoki S1 darajasida bilgan talabalar qabul qilinadi. Bu esa o'z navbatida universitetni birinchi (asosiy) chet tilini boshidan, ya'ni alfavitdan boshlab o'rgatish vazifasidan ozod qiladi va ta'lim muassasi uchun ancha yengillik yaratadi, chunki tayyor chet tilini yaxshi biladigan auditoriya bilan to'g'ridan-to'g'ri diplomatik faoliyatga tegishli mavzular va kompetensiyalar ustida ishlash imkoniyati mavjuddir.

Ma'lumki, universitetda amal qilinib kelinayotgan fanlar taqsimotiga ko'ra, birinchi bosqich boshidan chet tilini (asosan, ingliz tilini) asosiy til sifatida a'lo, yaxshi va o'rtacha biladigan talabalar tegishli guruhlariga bo'linib, har qaysi guruhga uning tilni bilish darajalariga mos ravishda darslar o'tiladi. Kuzatishlar va dars tahlillari shuni ko'rsatadiki, asosiy (birinchi) chet tilini o'qitish bo'yicha dasturlar/sillabuslar differensial va kommunikativ yondoshuvlar asosida mukammal tuzilgan va ularning yildan yilga sayqallanib yangilanib va takomillashib borayotganligini ko'rish mumkin.

Shuningdek, universitetda chet tili nafaqat fan sifatida o'qitilishi, balki o'qitish tili (vositasi) sifatida ham qo'llanilishini olohada ta'kidlash lozim. Bakalavriat kursini bitirgunga qadar (4 yil davomida) qariyb 70-80 % o'quv fanlari ingliz tilida asosan xorij o'quv qo'llanmalari va adabiyotlari asosida o'qitilishi, talabalarda asosiy chet tilidagi lug'at boyligini kasbga doir so'z va iboralar bilan to'ldirib borish bilan birga og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini ham mustahkamlab borishga xizmat qiladi.

Ammo masalaning ikkinchi tomoni bor, u ham bo'lsa asosiy chet tilining bor yo'g'i ikki yil davomida nazariy va amaliy o'quv fani sifatida o'qitilib, keyin o'quv fanlari qatoridan olib tashlanishidir. Ko'pchilik talabalar fikriga ko'ra, bu holat ma'lum darajada til bo'yicha nazariy bilimlar va nutqiy ko'nikmalarni esdan chiqarib qo'yishga olib keladi, chunki o'qish jarayonida chet tilini fan sifatida o'rganishga ehtiyoj/zaruriyat bo'lmaganligi sababli tabiiy holki talaba til nazariy aspektlari bo'yicha bilimlarni hamda nutqiy malaka va ko'nikmalarni yanada chuqurlashtirish va rivojlantirib borish ustida ishlamay qo'yadi.

Bundan tashqari, ko'pchilik talabalar bildirishlaricha, kasbiy fanlar bo'yicha ma'ruza va seminarlar (amaliy mashg'ulotlar) chet tilida olib borilishiga qaramasdan, ularda chet tilidagi kommunikativ kompetensiyalarning tarkibiy qismi bo'lmish lingvistik, sotsiolingvistik, ijtimoiy-madaniy, diskursiv (*xar xil matnlarni o'qish va eshitish asosida turli funksional uslubda butun, bir-biri bilan mantiqan bog'liq gaplar tuza olish qobiliyati*), pragmatik (*kommunikativ vaziyatdagi tushunmovchiliklarda takroran so'rash, uzr so'rash va murakkab vaziyatdan chiqishni boshqa usullari*) bilim va ko'nikmalar passiv holatga tushib qolayotganligi seziladi.

Shu o'rinda eslash joizki, Yevropa Kengashining "Chet tilini egallash umumevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'rgatish, baholash" ("A Common European Framework of Reference for languages: learning, teaching, assessment", 2018 y.) tavsifiy hujjatiga ko'ra, chet tilini o'qitish va o'rganishdan asosiy maqsad mazkur tilda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishdir. Bu murakkab va davomiy jarayon bo'lganligi tufayli, ushbu maqsadga erishish uchun o'quv muassasasi tomonidan uzluksiz o'qitish jarayoni tashkil etilishi va o'quvchi tomonidan uzluksiz o'qish amaliyoti amalga oshirilib turilishi kerak bo'ladi. Chunki, ma'lumki til faqat uning ustida doimiy ishlash va uning vositasida muloqot qilish bilangina tirikdir yoki faoldir, muloqot yoki mashg'ulot bo'lmasa u passiv holatga tushib qolaveradi.

Shu bilan birga ikkinchi chet tilini o'qitish jarayoni ham bir yo'la ikki yildan keyin umuman to'xtatib qo'yilishi, mazkur fanga nisbatan talabalarda boshidanoq e'tiborsizlik (yoki mensimaslik) hissini uyg'otadi. Talabalar fikriga ko'ra, "bo'lg'usi kasbga doir muhim fanlarni o'zlashtirish ikkinchi chet tilini o'rganishdan muhimroqdir, chunki baribir ikki yilda bu tilni to'liq o'zlashtirib bo'lmaydi".

Agar biz universitet dasturida ikkinchi til uchun auditoriya mashg'ulotlariga ajratilgan (amaliy) soatlarni (*4 semestr, har semestrda 90 soatdan, jami 360 soat*) inobatga olsak, talabalar fikriga qo'shilishimiz mumkin. Chunki ko'rsatilgan vaqt talabalarda chet tilida ko'zlangan V1 darajasida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish imkonini bermaydi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, 4 semestr davomida jami talabalarning qariyb 70-80% ikkinchi chet tilidan faqatgina A1 yoki ko'p bo'lsa A2, qolgan 20-30% V1 bilim darajasini ko'rsata olishadi. Bu esa o'z navbatida, talabalar ikkinchi chet tili fani bo'yicha mustaqil ta'limga e'tiborsiz ekanligidan dalolat beradi.

O'ylaymizki, yuqorida keltirilgan maqola mavzusiga oid tahlil, fikr va mulohazalar bo'lg'usi diplomatlarda chet tilida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishning muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatgan holda, diplomatlar tayyorlash o'quv dasturidagi chet tili fanini o'qitish va o'rganishda uzulishlarga yo'l qo'ymaslik zaruriyatini ham ta'kidlaydi.

Shu munosabat bilan, bizning fikrimizcha, talabalarda chet tilida mukammal kasbiy kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish maqsadida universitetda chet tili fanini o'qitish va o'rganish davomiyligini ta'minlashning yangi konsepsiyasini ishlab chiqish zaruriyati tug'ilmoqda. Bunda chet tillarini fan sifatida ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida (ya'ni 1-bosqichdan 4-bosqichgacha) o'qitish imkoniyatlari, chet tilida amaliy diplomatik xizmatga tayyorgarlik o'quv kurslari (*masalan: siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ijtimoiy diplomatik kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha*), xorijiy davlatlarning diplomatlar tayyorlash maktablariga o'qishga yuborish, talabalar

almashinuvini faollashtirish, mamlakatimizning xorijdagi diplomatik vakolatxonalarida amaliyot o'tashni davom ettirish va boshqalarni nazarda tutish o'rinli bo'lardi. Binobarin, yuqorida ta'kidlanganidek, chet tilidagi kommunikativ kompetensiyalar diplomatik faoliyatning muvaffaqiyatli bo'lishida asosiy vosita-qurol vazifasini o'taydi. Uni yaxshi bilish yoki egallash O'zbekistonning dunyo mamlakatlari bilan manfaatli va do'stona aloqalarini mustahkamlash va kengaytirishda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLARLAR RO'YXATI

1. Vahobov M.M. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy etish – zamonaviy ta'lim paradigmasi sifatida // “Zamonaviy ta'lim” j. – 2016 yil №6.– 3-10-betlar
2. Мавланов И. Р. Экономическая дипломатия: Учеб. пособие / И. Р. Мавланов. испр. и доп. М.: Издательство «Аспект Пресс», 2016. ISBN 978-5-7567-0857-8. 528 с
3. Mirqosimov S.M. Yusupov A.S. Diplomatiya va biznes etiket. O'quv qo'llanma. Toshkent. “Printuz”-2020, 240 bet.
4. Расулов А.Г. Дипломатический протокол, церемониал, этикет. Основы, теория, практика [Текст]: монография / Университет мировой экономики и дипломатии; - Ташкент: ART FLEX, 2014. - 320 с.
5. <https://president.uz/oz/lists/view/4327>
6. “A Common European Framework of Reference for languages: learning, teaching, assessment”, 2018 y.
7. Diplomatisch kommunizieren und so erfolgreich Konflikte lösen. <https://www.jobanzeigen.de/karriere/rhetorik-praesentation/diplomatisch-kommunizieren-und-konflikte-loesen>
8. https://de.wikipedia.org/wiki/Akademie_Ausw%C3%A4rtiger_Dienst
9. <https://altissia.org/de/blog/die-macht-der-sprachen-in-der-internationalisierung-der-hochschulbildung-ein-ueberblick>
10. <https://www.euroakademie.de/magazin/die-bedeutung-von-mehrsprachigkeit-in-einer-globalisierten-welt/>
11. Die Geheimnisse der Diplomatie. https://www.fu-berlin.de/presse/publikationen/alumnimagazin_wir/periskop/diplomatie/index.html
12. Diplomatie. Mit Kommunikation zum Erfolg. <https://www.dashoefer.de/thema/diplomatie.html>

-
13. file:///C:/Users/nerus/Downloads/ABC-Diplomatie_de.pdf
14. <https://www.brightnetwork.de/karriereberatung-fuer-absolventen/kernkompetenzen-im-beruf/diplomatische-kommunikation-unverzichtbare-f%C3%A4higkeit-f%C3%BCr-deinen-karrierestart/>
15. Wie lassen sich kommunikative Kompetenzen messen? – Konzeption einer kompetenzorientierten Prüfung kommunikativer Fähigkeiten von Studierenden Edith Braun, Georgios Athanassiou, Kathleen Pollerhof, Ulrike Schwabe. https://www.bzh.bayern.de/uploads/media/3_2018_Braun_Athanassiou_Pollerhof_Schwabe.pdf

SHOIRA NORMATOVA (JIDU)

O'ZBEK TILIDA ILMIY TADQIQOT YARATISHNING TAHLILIIY ASPEKTLARI: AKADEMIK ESSE BANDLARINI YOZISH BORASIDA XORIJIY VA MILLIY TAJRIBA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15558008>

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi xorij ta'lim amaliyotida keng qo'llaniluvchi akademik esse va uning tuzilishi, xususan, bandlarining tarkibiy qismlari xususida so'z boradi. Muallif akademik esse yozish tajribasini universitetda o'zbek tilini o'qitishga tatbiq etish lozimligi haqidagi fikrni ilgari suradi. Xususan, mahalliy ilmiy tadqiqotlardan olingan namunalar asosida o'zbek tilidagi limiy matnlardan akademik esse talablariga mos keluvchi jihatlarni topish mumkinligi misollar yordamida ko'rsatib beriladi. Tezisdagi esse bandlarini qanday shakllantirish lozimligi, band mavzusi, g'oyasi qanday ifodalanishi, g'oyani rivojlantirish, dalillash, yakunlash qay tarzda amalga oshirilishi mumkinligi kabilar xususida ma'lumot va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: akademik esse, esse, esse bandlari, mavzu, g'oya, bosh g'oya, rivojlantirilishi lozim bo'lgan fikr, quvvatlovchi fikr

Abstract. This paper explores the academic essay, a widely used form of writing in foreign educational practices. The author argues that the experience of writing academic essays should be integrated into the teaching of the Uzbek language. Specifically, the paper presents examples of academic writing in Uzbek that align with the structural requirements of the academic essay. Additionally, the paper offers recommendations on how to effectively structure essay paragraphs, craft topic sentences, strengthen the controlling idea, incorporate supporting sentences, and conclude paragraphs.

Keywords: *academic essay, essay paragraphs, topic, idea, main idea, controlling idea, supporting idea.*

AQSH, Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda esse yozish ta'limning muhim qismiga aylangan. U maktabda o'quvchilarning yozma nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi; universitetlar esa qabul paytidagi tanlovda essedan foydalanadi, shuningdek, gumanitar va ijtimoiy fan sohalarida esse talabalarni yakuniy imtihonlarda baholash usuli sifatida qo'llaniladi.

Lug'atlarda essegga muallifning biror hodisa yoki shaxsga nisbatan o'z fikr-qarashlari, nuqtayi nazarini bildirishga qaratilgan yozma ijod mahsuli sifatida ta'rif beriladi. O'zbek tilidagi ilmiy adabiyotlarda ko'proq essegga maktub, maqola, risola, hikoya, xotira xususiyatlarini o'zida jamlovchi nasriy asar, adabiy janr sifatida qoraladi. Shu sababli eng yaxshi esse namunalari ko'pincha yozuvchilar hamda adabiy tanqidchilar qalamiga mansubdir.

Shuni ta'kidlash joizki, akademik esse ham mohiyatan essegga berilgan asosiy ta'rifga javob berdi, ayni paytda, ma'lum jihatlari bilan farqlanadi. Buni uning rasmiy va norasmiy turga bo'linishi orqali izohlash mumkin: rasmiy esselar odatda muayyan maqsadga qaratilgan, mantiqiy jihatdan izchil hamda aniq ilmiy asoslangan fakt va dalillarga tayanishi bilan ajralib turadi, norasmiy esselarda esa shaxsiy jihatlar ustunlik qiladi, unga munosabatning subyektivligi, shaxsiy did va tajribaga asoslanish, ohangining o'ziga xosligi (hazil, kinoya bilan yo'g'rilganlik) kabi xususiyatlar xosdir. Shu ma'noda akademik essenini birinchi turga mansub deb hisoblash mumkin. O'zbek talabalari akademik esse haqida muayyan tasavvurga egalar va ular ko'pincha bu borada IELTS andozalari bo'yicha yuqori natijalarni namoyon qiladilar. Shunisi qiziqki, talabalarimiz xorijiy tilda erkin ijod qila olgan holda, o'zbek tilida muayyan hodisaga munosabat bildirish borasida yozma nutq ko'nikmalari past ekanligini namoyish qiladilar. Buning sababi akademik essenini faqat xorijiy ta'lim uchun xos degan qarashdan kelib chiqadi. Holbuki, o'zbek

tilida yaratilgan sara ilmiy maqolalarda essegga qo'yiladigan talablarga javob berdigan jihatlarni istagancha topish mumkin.

O'zbek tilida muayyan mavzuda esse yozishga to'g'ri kelganda talabalar yo'l qo'yadigan xatolar asosan quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- mavzu bilan bog'liq bosh g'oya hamda bandlarda ilgari suriladigan fikrning aniq emasligi;
- bandlarda turli xil masalalar o'rtaga tashlanib, birortasi ham ochib berilmasligi;
- bir banddan keyingi bandga o'tishda bog'liqlik yetishmasligi;
- bosh mavzuni aynan takror-takror ta'kidlanaverishi;
- fikrning isboti uchun iqtibos, misol, statistika keltirish ko'nikmasining shakllanmaganligi;
- mustaqil fikrlash yetishmasligi, nuqtayi nazarining noaniqligi;
- esse xulosasi bilan bosh g'oya o'rtasidagi bog'liqlikning zaifligi.

Talabalarning o'zbek tilida ilmiy tadqiqot yatatish ko'nikmalarini rivojlantirish uchun xorij akademik esse yozish tajribasidan ijodiy foydalanish samarali natijalar berishi shubhasiz.

Ma'lumki, akademik esse mavzu, tana (asosiy qism), bandlar va xulosadan tashkil topadi. Bu umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'rgatilgan adabiy insholarning murakkab rejasiga qay bir darajada o'xshaydi, lekin ayni paytda farqlanadi. Bandlar, o'z navbatida, essening bosh mavzusi bilan bog'liq muayyan mavzu, g'oya va detallarni o'z ichiga qamrab oladi. Band puxta va izchil qurilishga ega bo'lishi uchun quyidagilar tavsiya qilinadi: avvalo, band mavzusi va u bilan bog'liq rivojlantirilishi lozim bo'lgan fikrni ifodalovchi jumla zarur. Bunday gap odatda bir qadar umumiy mazmunda va tafsilotlardan xoli bo'ladi. U ikki qismni: 1) **mavzu** va 2) bandda ilgari surilgan **asosiy fikrni** o'z ichiga oladi, ya'ni mavzu haqida xabar beradi hamda rivojlantirilishi lozim bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, Ba'zan biz "o'zlashma so'z" deb ataydigan

so'zlar kelib chiqishi — etimologiyasi jihatidan o'z tilimizdagi so'z bo'lib, boshqa tillarga o'zlashgandir.

Bu gap keyin rivojlantirilishi lozim bo'lgan mavzu – **O'zlashgan so'zlar** va rivojlantirilishi kerak bo'lgan fikr- **etimologiyasi jihatidan o'zimizning so'zlar** ekanligidan xabar beradi.

Band uchun o'ta umumiy mazmundagi gap topic sentence – mavzu go'yasini ifodalovchi jumla bo'la olmaydi. Masalan, Tildagi barcha so'zlar uning lug'at boyligini tashkil etadi. Bu jumlada fikr o'ta umumlashtirilgan tarzda ifodalangan. Shuningek, tafsilotlar va misollarni o'z ichiga olgan gap ham mavzuni ifodalovchi jumla bo'la olmaydi:

Mashhur tilshunos, german va turkiy tillar bilimdoni V.D.Arakinning (1904 - 1983) yozishicha, rus tiliga turkiy tillardan o'tgan “dostakan” so'zi “Igor jangnomasi” asarida qo'llangan va “tostakan/tustugan” shaklida “suv ichiladigan yog'och idish”ni ifodalagan. Keyinchalik bu so'zdagi birinchi bo'g'in -do tushib qolib, u “stakan” shaklini olgan. (A.Abduazizov, 2013)

Bu yerda gap muayyan fikr dalili uchun xizmat qiladi, u tafsilotlarni o'z ichiga oladi, shu sababli bosh g'oyani ifodalovchi jumla bo'la olmaydi.

Ingliz tilda, odatda, band mavzusini ifodalovchi gap band boshida keladi. O'zbek tilidagi ilmiy mant bandlarida bunday holga misollar ko'p:

Qodiriy ijodining, san'atining ko'p qirralari qatori uning hajviy bisoti mohiyati ham o'z vaqtida to'la anglab yetilmadi. Qodiriyga, Qodiriy ijodiga johillarcha munosabat ayni uning hajviy asarlarini noto'g'ri tushunish, talqin etishdan boshlandi; chunonchi, adibning 1926- yili “Mushtum”da bosilgan “Yig'indi gaplar” hajviyasidagi jumhuriyat rahbarlari haqida ovsar bir personaj tilidan aytilgan beozorgina tanqid, hazil aralash haq gap uchun unga siyosiy ayb qo'yilib qamoqqa olindi, adib ustidan ig'vo, bo'htonlar uyushtirildi, bu tabarruk zot sha'ni oyoqosti etildi. O'zbek oyim, Solih maxdum kabi personajlar o'sha davr tanqidchiligida, umuman, yozuvchining yutug'i sifatida nisbatan ijobiy baholangan bo'lsa ham, bu xil obrazlar mohiyati anchayin

yuzaki talqin etildi. Bu hol keyingi yillarga qadar ham davom etib keldi. (U.Normatov, 2010)

Shuningdek, band mavzusini ifodalovchi gap band oxiridan o'rin olishi ham kuzatiladiki, bu ham o'zbek tilidagi matnlarda ko'p uchraydi:

Inson tafakkuri, zakovati eng oliy ne'matdir. Fikrlash qobiliyati uning barcha muvaffaqiyatlari asosi bo'lib keldi. Tafakkur orqaligina u obyektiv borliqni taniy boshladi, mantiqiy bilishga erishdi. Inson ong-u shuuri shu qadar murakkab oliy mahsulki, voqelikni idrok etish, qabul qilish jarayonini boshqaradi. Ong, tafakkur haqida fikr yuritar ekanmiz, bu murakkab insoniy hodisalarning nutq bilan, kishi, xalq tili bilan chambarchas bo'liq ekanligini, **tilsiz tafakkur va tafakkursiz til mavjud emasligini uqtirishimiz zarur.** (Tilshunoslikka kirish, 2021)

Banddagi g'oyani rivojlantirish uchun uni quvvatlovchi fikr zarur. Buning uchun esa **fikr** va **faktni** ajrata bilish lozim. Ma'lumkii, **fikr** – bu shaxsning o'zi ishongan yoki barcha o'rtasida keng tarqalgan qarash. Masalan, 1.Bola tarbiyasi bilan ayollar shug'ullanishi kerak.2. Chekish yomon odat.3. Ingliz tilini o'rganish oson.

Fakt – haqiqat ekanligi tasdiqlangan nisbatan obyektiv xulosa. Masalan, 1. Anatomik jihatdan hozirgi insonning muqobili bo'lgan Homo sapiens, taxminan, 300 000 yil oldin Afrikada paydo bo'lgan. 2. Til ijtimoiy hodisadir. 3. Ayollar erkaklarga nisbatan uzoq umr ko'radi.

Lekin ba'zan faktni ham isbotlashga ehtiyoj tug'iladi, bunday holatda misol, raqamlar va iqtibos keltirish lozim bo'ladi. Yuqorida keltirilgan misollardagi birinchi fakt dalillashni talab qilmaydi, lekin ikkinchi va uchinchi faktlarda dalilga ehtiyoj tug'ilishi mumkin.

1-bosqich talabalarning o'bek tilidagi esselari aynan shu jihatdan oqsaydi, ularda iqtibos keltirish ko'nikmasi past rivojlangan yoki umuman mavjud emas. Ko'pincha ilmiy adabiyotlarga havola qilinmaydi yoki keltirilgan iqtiboslar hikmatli so'zlar, aforizmlar bo'lib, ular ilmiy dalillash uchun yetarli

asos bo'la olmaydi. Ushbu kamchilikni bartaraf etish uchun supporting sentence – fikrni quvvatlovchi gapdan foydalanish ko'nikmasi zarur. Bunday gap banddagi bosh fikrni rivojlantirishda uni asoslovchi tafsilotlarni o'zida ifodalaydi, ular sirasiga hayotiy misol, ilmiy adabiyotlardan olingan iqtiboslar, statistik ma'lumotlar kiradi.

Tilimizga yaqin bo'lmagan arab tiliga xos aruz vaznidagi asarlar turkiy tillarning tub xususiyatini aks ettira olmaydi. Bunda Abdurauf Fitratning qarashlari e'tiborli. O'zbek tilining fonetik qurilishi arab tilinikidan tubdan farq qiladi. Aruzda ijod etgan turkiygo'y shoirlar, Fitrat ta'biricha, **“ikki turli ishga majbur”**: vaznni tugal qilish uchun shoir arabiy va forsiy so'zlarni me'yordan ortiq qo'llaydi. Bu esa oxir-oqibat o'zbek tilini o'zga tillar asoratiga solib qo'yadi. Ikkinchisi shuki, vazn talabi bilan **“turkcha so'zlarning gavdasini buzish”**ga majbur bo'lganlar va bu, **Fitrat aytganidek, kulgili holatni yuzaga keltirgan.** (B. Mengliyev)

Misol hayotiy ham bo'lishi mumkin: Til nasldan naslga, avloddan avlodga o'tadigan irsiy hodisa emas, balki jamiyat taraqqiyotining mahsulidir. Bolaning qaysi tilda so'zlay boshlashi uni o'rab turgan til muhitiga bog'liq. Chunonchi, “Oila va jamiyat” haftanomasining 1992-yil may oyida chiqqan 21-sonining birinchi sahifasida “Larisaning mulla o'g'li” sarlavhali suratli maqola e'lon qilindi. Unda moskvalik Larisa ismli rus qizi Abdujabbor degan qashqadaryolik yigitga turmushga chiqishidan oldin butun qonuniyatlari bilan islom dinini qabul qilganligi, namoz o'qib, ro'za tutganligi, asosiysi, oila qurgach, to'ng'ich farzandi Temurxonga alla emas, “Qur'oni Karim” suralarini o'qib uxlatganligi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Temurxonning birinchi aytgan so'zi “Ollloh” bo'lgan va bola sakkiz oyligida “Lo iloha ilolloh” degan. Erta tili chiqqan bu bola bir yoshga to'lganda “Kalimayi tayiba” hamda “Kalimayi shahodat”ni to'liq aytgan. Ikki yarim yoshida o'n uchta kichik surani yod bilgan va to'qqiz yoshida Qashqadaryo viloyati bo'yicha o'tkazilgan yosh qorilar musobaqasida birinchi o'rinni egallab, ko'plarni hayratga solgan. (Tilshunoslikka kirish, 2021)

Liftning oldiga borib qarang, tugmacha chirog'i yonmagan, bundan uning band emasligini bilasiz. Lekin to'satdan yondi, demak, band bo'ldi. E'tibor bersangiz, bu yerda ham ikkita belgi bor. Chiroqning yongan holati ("bandlik" belgisi) va o'chgan holati ("band emaslik" belgisi). Yoki kursdoshingizga qo'l silkidizingiz (bir belgi) yoki indamay qo'ya qoldingiz (ikkinchi belgi). Telefoningiz ovoz berdi (bir belgi) yoki ovoz bermadi (ikkinchi belgi). Biz dastlab belgi sanamagan bu holat - nol belgi deyiladi. Birov sizga ko'rishish uchun qo'l uzatdi, bu -"ko'rishmoqchiman" ma'nosiga ega belgi. Lekin siz qo'l uzatmadingiz, bu "nol" belgi bo'lib, "ko'rishishni istamayman" ma'nosini ifodalaydi. **Tildagi nol shakllarni ham shu yo'sinda tushunmoq kerak.** (B. Mengliyev, 2018)

Akademik esseda band oxirida xulosalovchi gap bo'lishi tavsiya qilinadi. Bandni xulosalovchi jumlaning ikki vazifasi bor: 1)Band tugaganiga ishora qiladi; 2)o'quvchiga fikrning muhimligini eslatadi. U ko'pincha banddagi asosiy fikrning boshqa shakldagi takrori bo'ladi.

Shunga qaramay, afsus, hanuzga qadar **Qodiriy hayoti, faoliyati, uning fojiaiy qismati**, xususan, Moskvada Valeriy Bryusov nomli Adabiyot institutida o'qigan davri, shoh asarlari – "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlarining dunyoga kelish tarixi, adibning ularga material yig'ish uchun Qo'qon va Marg'ilonga qilgan safarlari, shuningdek, 1936-yilgi Qozon safari tafsilotlari **yetarlicha yoritilgan emas**. Ayniqsa, adib umrining poyoni – uning qayerda, qay tarzda qatl etilgani, tabarruk jismi – xoki-poki qayerda ekani hanuzgacha aniqlangani yo'q. To'g'ri, Davlat Xavfsizlik qo'mitasi arxivida saqlanayotgan "Abdulla Qodiriy ishi"da o'limga mahkum qilinganligi to'g'risidagi sud hukmi 1938-yil 4-oktabrda ijro etilgani haqida aniq hujjat-ma'lumot mavjud. **Ammo u qayerda, qay tarzda amalga oshirilgani xususida ishonchli hujjat yo'q.** (U.Normatov, 2014)

Ingliz tilida maxsus ishora qiluvchi kirish so'zlarni qo'llash tavsiya qilinadiki, o'zbek tilida ham ularning muqobillari istagancha topiladi.

Shunday qilib, “o‘zbekcha leksema” o‘zida tayyorlik, majburiylik, takrorlanuvchanlik, ijtimoiylik xususiyatlarini mujassamlashtirgan, shakl va denotativ ma’no birligidan iborat, mustaqil anglanish va qollanish tabiatiga ega boigan lisoniy birlikdir. (B. Mengliyev, 2018).

Esse bandini xulosalash ixtiyoriy, ba’zan unga hojat bo‘lmaydi o‘zbekcha maqolalarda ham band bosh fikr yetarli rivojlantirilishi va dalillanishi bilan yakuniga yetishini kuzatish mumkin. Akademik esse yozishda xorij tajribasini o‘zbek tilida esse yozishda tatbiq etish, ayni paytda, bu borada mavjud milliy tajribadan foydalanish talabalarning ilmiy tadqiqot yaratish, mustaqil fikrlash, munosabat bildirish, dalillash kabi ko‘nikmalarini rivojlantirishiga shubha yo‘q.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sayfullayeva R.R., Abuzalova M.Q., Mamadaliyeva N.S., Yuldasheva D.N. Tilshunoslikka kirish. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2020.
2. Mengliyev B. Hozirgi o‘zbek tili. – Toshkent: “Tafakkur bo‘stoni” nashriyoti, 2018.
3. Oshima A., Hogue A., Ravitch L. Longman academic writing series 4: Essays. – Pearson, 2017.
4. Normatov U. Qodiriyning so‘nggi iltijosi. – Toshkent: “Movarounnahr”, 2014.
5. Abduazizov A. Tillardan tillarga. // “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati” gazetasi, 2013- yil 26-son.
6. Normatov U. Qodiriy mo‘jizasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2010.
7. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr. – 2013. – 371-b.
8. MacLellan* E. How reflective is the academic essay? //Studies in higher education. – 2004. – T. 29. – №. 1. – C. 75-89.
9. Moffett J. Bridges: From Personal Writing to the Formal Essay. Occasional Paper No. 9. <https://eric.ed.gov/?id=ED305643>

НАРГИЗА ШАРИПОВА (УМЭД)

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ СИЛЛАБУСА ПО ПРЕДМЕТУ «РУССКИЙ ЯЗЫК» УМЭД С СООТВЕТСТВУЮЩЕЙ ПРОГРАММОЙ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО УЧРЕЖДЕНИЯ, ВХОДЯЩЕГО В ТОП-300

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15558011>

Аннотация. В статье проанализированы цели и содержание программ по русскому языку ведущих вузов России и Узбекистана. В работе рассмотрены российская Рабочая программа Иностранный язык (основной) Русский язык (по направлению «Международные отношения»), составленная преподавателями Московского государственного института международных отношений (Университет) МИД России, и Силлабусом по дисциплине «Русский язык», составленный преподавателями Университета мировой экономики и дипломатии (МИД Узбекистана).

Цель статьи – сравнительный анализ преподавания русского языка студентам в Узбекистане и России. В процессе работы были определены сходства и различия обучения аспектам языка и видам речевой деятельности студентов в двух странах.

Ключевые слова: рабочая программа, силлабус, русский язык, сравнительный анализ, цели и содержание обучения.

Abstract. The article analyzes the goals and content of Russian language programs of leading universities in Russia and Uzbekistan. The paper examined the Russian working program Foreign Language (main) Russian Language (in the direction of "International Relations"), compiled by teachers of the Moscow State Institute of International Relations (University) of the Russian Ministry of Foreign Affairs, and Syllabus in the discipline "Russian Language," compiled by teachers of the University of World Economy and Diplomacy (Ministry of Foreign Affairs of Uzbekistan).

The purpose of the article is a comparative analysis of the teaching of the Russian language to students in Uzbekistan and Russia. In the process, similarities and differences in teaching aspects of the language and types of speech activities of students in the two countries were identified.

Keywords: work program, syllabus, Russian language, comparative analysis, goals and content of training.

Целью нашей работы является сравнение российской и узбекской программ по русскому языку.

Материалом исследования послужили российская Рабочая программа Иностранный язык (основной) Русский язык (по направлению «Международные отношения»), составленная преподавателями

Московского государственного института международных отношений (Университет) МИД России, и Силлабусом по дисциплине «Русский язык», составленный преподавателями Университета мировой экономики и дипломатии (МИД Узбекистана).

В основе исследования лежит предположение о том, что сравнение целей и содержания обучения русскому языку в России (в русской языковой среде) и в Узбекистане (в более иноязычной языковой среде) позволит, с одной стороны, выявить общие, универсальные черты учебных программ, а с другой – найти их различия, учет которых может способствовать оптимизации обучения русскому языку в двух странах.

В процессе исследования использовался метод сравнительно-сопоставительного анализа, позволяющий выявить сходства и различия в целях и содержании обучения русскому языку в России и в Узбекистане. Сравнительный анализ дал следующие результаты:

Российская рабочая программа предназначена для студентов-иностранцев, ранее не изучавшие русский язык или владеющие им в объеме элементарного или базового уровня. Программа рассчитана на 4 года и включает материал для начального и продвинутого этапов обучения. Курс русского языка по программе для начального этапа обучения рассчитан на 2100 часов. Из них: Аудиторные занятия – 1250 часов, Самостоятельная работа – 694 часов, Контроль – 156 часов.

Программа по дисциплине «Русский язык» Университета мировой экономики и дипломатии рассчитана на 1 год обучения. Курс русского языка по программе для начального этапа обучения рассчитан на 200 часов. Из них: Аудиторные занятия – 120 часов, Самостоятельная работа – 80 часов.

Сравнение требований к владению аспектами языка показало следующее:

1. Содержание обучения фонетике (то есть обучение произношению, ударению, ритмике и интонации) в двух программах в основном одно и то же. Требования к целям обучения фонетике в российской рабочей программе выше, чем в узбекской. Например, в ней требуются наличие у студентов умения исправлять ошибки в произношении по ходу высказывания, отсутствие фонематических ошибок, в узбекской же программе требуется элементарная правильность.

2. Содержание обучения морфологии, синтаксису в узбекской и русской программах также сходно, то есть в обеих программах представлены одни и те же грамматические темы. Но нужно отметить, что в российской программе словообразование представлено отдельным разделом, в узбекской же программе элементы словообразования даются в процессе всего обучения. Кроме того, в обеих программах представлен грамматический материал в виде семантических блоков, служащих средством выражения отношений: уступительных, условных, целевых, причинно-следственных, пространственных, временных, необходимости и возможности.

3. Отбор лексики тесно связан с представленными в программах темами общения, демонстрирующими использование лексических единиц в пределах каждой темы. В узбекской программе сфера повседневного и профессионального общения представлена 10 темами, а в российской – 21 темой. Но нужно учитывать то, что обучение русскому языку в МГИМО 4 года. Несмотря на то что количество лексических тем в российской программе больше, чем в узбекской, содержание большинства лексических тем в обеих программах сходно. В программах представлены такие сходные темы, как «Биографии выдающихся деятелей», «Международные организации», «Личность и профессия», «Страны мира», «Экология сегодня», «Внешняя и внутренняя политика России (Узбекистана)», «Москва – сердце России (Узбекистан – Родина моя)»,

«Страна, культура (Обычаи и традиции народов мира)». При этом существуют различия: кроме похожих тем, представленных в программах, в российской программе представлены еще такие темы, как «Система образования в России», «Российские писатели и дипломаты XIX в.», «Прошлое и настоящее российской дипломатии», «Государство, политическая власть и права человека», «Типы политических систем. Тоталитаризм. Демократия» и др.

4. Лексический минимум по российской программе составляет 2300 слов общего владения и 700 слов, обслуживающих общеобразовательные учебные дисциплины по профилю вузовской подготовки студентов. Лексический минимум по узбекской программе составляет не менее 1300 слов.

Сравнение требований к владению видами речевой деятельности показало следующее:

Обе программы предполагают обучение студентов ведению диалога с собеседником, пересказу и интерпретации текстов, выражению своего мнения по содержанию прослушанного или прочитанного текста.

В российской программе требования к умениям говорения также выше, чем в узбекской. Узбекская программа требует сформировать у студентов умение участвовать в диалоге или предъявить монологическое высказывание в рамках изученных тем, то есть студентам дается время для подготовки. Российская программа требует наличия у студентов умения строить монологическое высказывание продуктивно-репродуктивного характера и выражать коммуникативное намерение в достаточно широком наборе речевых ситуаций. При этом темы и ситуации общения, представленные в обеих программах, в основном близкие.

Таким образом, российская и узбекская программы для начального этапа обучения русскому языку содержат много общего. Однако, несмотря на эти общие черты, обе программы имеют и свою специфику.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Волкова Е.А. Категория «содержание обучения» в системе преподавания профессионально ориентированного иностранного языка и культуры // Молодой ученый. 2014. № 8 (67). С. 772–775.
2. Клобукова Л.П., Битехтина Г.А., Нахабина М.М. и др. Лингводидактическое описание элементарного уровня общего владения русским языком как иностранным: структура, содержание, функции // Русский язык и литература в пространстве мировой культуры: матер. XIII Конгресса МАПРЯЛ. СПб.: МАПРЯЛ, 2015. С. 472–476.
3. Лapidус Б.А. Проблемы содержания обучения языку в языковом вузе. М.: Высшая школа, 1986. 143 с.
4. Рабочая программа Иностранный язык (основной) Русский язык (по направлению «Международные отношения») Московского государственного института международных отношений (Университет) МИД России // составители Афанасьева Н.Д., Беляков М.В. и др. – М., МГИМО, 2018, 46 с.
5. Силлабус по дисциплине «Русский язык» Университета мировой экономики и дипломатии (МИД Узбекистана) // составитель Шарипова Н.Э. – Ташкент, УМЭД, 2025, 24 с..
6. Юйсyфу.А. Сравнительный анализ учебных программ по русскому языку как иностранному в России и в Китае – Санкт-Петербург, Россия. DOI: <https://doi.org/10.25146/1995-0861-2020-54-4-253>

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTINING FRANSIYAGA RASMIY TASHRIFI NATIJALARINI TA'LIM JARAYONIGA TATBIQ ETISH: FRANSUZ TILI O'QITUVCHILARI OLDIGA QO'YILGAN DOLZARB VAZIFALAR

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15558018>

Annotatsiya. Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Fransiya rasmiy tashrifi natijalariga bag'ishlangan. Tashrif davomida iqtisodiyot, madaniyat va xavfsizlik sohasidagi ikki tomonlama hamkorlikning asosiy masalalari muhokama qilindi. Prezident Fransiyaning yuqori martabali amaldorlari bilan uchrashuvlar o'tkazdi, bu diplomatik aloqalarni mustahkamlash va bir qancha muhim bitimlarni imzolashga xizmat qildi. Maqolada tashrif natijasida frantsuz tili o'qituvchilari uchun yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xulosalar va vazifalar tahlil etiladi. O'zbekiston maktablarida fransuz tilini o'qitish va o'rganish sifatini oshirishga qaratilgan asosiy tashabbuslar, ta'lim jarayoniga joriy etilishi mumkin bo'lgan yangi usullar, yondashuvlar va resurslar tahlil qilinadi. Madaniy va lingvistik jihatlarni ta'limga integratsiya qilish muhimligi ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: amaliy hamkorlik, rasmiy tashrif, fransuz tili, o'quv jarayoni, o'qituvchilar, metodlar, madaniy jihatlar, muammolar, integratsiya.

Abstract. This article is devoted to the results of the official visit of the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev, to France. During the visit, key issues of bilateral cooperation in the fields of economy, culture, and security were discussed. The President held meetings with senior French officials, which contributed to the strengthening of diplomatic relations and the signing of several important agreements. The article analyzes the conclusions and tasks that French language teachers may have as a result of the visit. The main initiatives aimed at improving the quality of teaching and learning French in educational institutions in Uzbekistan, new methods, approaches and resources that can be implemented in the educational process will be analyzed. The importance of integrating cultural and linguistic aspects into education is emphasized.

Keywords: practical cooperation, official visit, French language, educational process, teachers, methods, cultural aspect, integration.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mart oyidagi Fransiya tashrifi ikki mamalakat o'rtasidagi munosabatlar tarixida

muhim voqea bo'lib, o'zining ahamiyati bilan hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilganini ko'rsatdi. Tashrif doirasida keng ko'lamli yo'nalishlarni o'z ichiga olgan 20 dan ortiq kelishuv va shartnomalar imzolandi.[1]

Prezidentning Fransiyaga rasmiy tashrifi O'zbekiston va Fransiya o'rtasida turli sohalar, jumladan, ta'lim sohasidagi hamkorlik uchun yangi ufqlarni ochgan muhim voqea bo'ldi. Xususan, ushbu tashrif natijalari o'zbek o'quv muassalarida fransuz tilini o'qitishga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada biz tashrif davomida taklif qilingan yangi tashabbuslar va dasturlardan kelib chiqqan holda fransuz tili o'qituvchilari oldida turgan dolzarb muammolarni ko'rib chiqamiz.

Shuni takidlash joizki, so'nggi yillarda mamlakatlarimiz o'rtasidagi siyosiy masalada o'zaro aloqalar tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bu tashrif 2018 yildan buyon to'rtinchi hisoblanadi va tashqi siyosiy idoralar o'rtasida siyosiy maslahatlashuvlar muntazam o'tkazilmoqda, parlamentlararo aloqalar faol rivojlanyapti.[2]

Yetakchilar gumanitar yo'nalishdagi amaliy hamkorlikni kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi. Muzokaralar yakunida davlat rahbarlari ikki mamlakat o'rtasida strategik sheriklik munosabatlarini o'rnatish to'g'risida tarixiy qarorga keldilar.

Ushbu asosiy hujjat uzoq muddatli o'zaro hamkorlikning ustuvor yo'nalishlarini belgilab beradi hamda Toshkent va Parijning muhim manfaatlariga javob bergan holda, barcha sohalaridagi hamkorlikni faollashtirishga xizmat qiladi.

Tashrif doirasida Parij shahrida Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevga Fransiya Respublikasining oliy mukofoti – Faxriy legion ordenini tantanali ravishda topshirdi.

Bunday e'tirof – davlatimiz rahbariga bo'lgan alohida hurmat-ehtiromni shuningdek, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yuritayotgan tashqi siyosat samaradorligining yorqin tasdig'i hamdir.

Strategik sheriklikning yana bir muhim qismi – madaniy-gumanitar soha ham ikki tomonlama munosabatlarni rivojlantirishning ajralmas qismidir. Joriy yilda Toshkent shahrida O'zbekiston-Fransiya universitetini tashkil etish to'g'risidagi bitimning imzolanishi buning isboti hisoblanadi. Bu qadam mamlakatlarimiz o'rtasidagi akademik almashinuv aloqalarini mustahkamlaydi. Ushbu o'quv muassasasida Fransiyaning yetakchi mutaxassislarini jalb qilgan holda ta'lim dasturlari amalga oshiriladi hamda talabalarga xalqaro darajadagi diplomlarni olish imkoniyatini taqdim etadi.

O'zbekistonda fransuz tilini o'qitishni kengaytirish hamda mutaxassislar va talabalar mobilligi to'g'risida imzolangan dasturlar ham bu boradagi asosiy hujjatlardandir. Tabiiyki, qo'shma ta'lim dasturlari bo'yicha shartnomalarning imzolanishi fransuz tili o'qituvchilari va fransuz tilini biladigan mutaxassislarga talabni yuzaga keltiradi.

Shu nuqtai nazardan, frantsuz tili o'qituvchilari e'tibor va faol harakatlarni talab qiladigan bir nechta asosiy vazifalarga duch kelishadi:

1. O'quv rejasini yangilash.

Tashrif davomida muhokama qilingan yangi tashabbuslar va dasturlarni hisobga olgan holda, o'qituvchilar o'zlarining o'quv dasturlarini ko'rib chiqishlari va yangilashlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Talabalarning ehtiyojlari va til o'rganishning hozirgi tendensiyalarini hisobga oladigan zamonaviy o'qitish usullarini o'zaro uyg'unlashtirish muhim ahamiyatga ega. O'quv dasturlari yangi madaniy va siyosiy realiyalarga mos ravishda yangilanishi lozim. Bu tashrif davomida qabul qilingan siyosiy qarorlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan migratsiya, ekologiya va inson huquqlari kabi dolzarb mavzularni o'rganishni o'z ichiga olishi mumkin.

2. Yangi texnologiyalarni joriy etish.

Zamonaviy texnologiyalar ta'lim olish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. O'qituvchilar o'quv jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish maqsadida onlayn kurslar, mobil ilovalar va interaktiv platformalar kabi raqamli resurslardan foydalanishlari zamon talabiga aylanmoqda.

3. Madaniy komponentni mustahkamlash.

Mamlakat madaniyatini tushunmasdan til o'rganish mumkin emas. O'qituvchilar o'quv jarayoniga fransuz madaniyati elementlarini, jumladan, adabiyot, kino, musiqa va an'analarni faol joriy etishlari kerak. Bu talabalarga nafaqat til ko'nikmalarini yaxshilashga, balki dunyoqarashini kengaytirishga ham yordam beradi.

4. Tanqidiy fikrlashni o'rgatish.

O'qituvchilar talabalarni turli manbalardan olingan ma'lumotlarni tanqidiy tushunishga undashlari kerak. Bunga tashrif bilan bog'liq yangiliklarni tahlil qilish va ularning frantsuz tili va madaniyatiga ta'sirini muhokama qilish kiradi.

5. Fransiya muassasalari bilan hamkorlik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashrifi Fransiya ta'lim muassasalari bilan hamkorlik qilish uchun yangi imkoniyatlar ochdi. O'qituvchilar almashinuv dasturlari, amaliyot va qo'shma loyihalarini yo'lga qo'yishlari mumkin, bu esa talabalarga til muhitiga chuqur kirib borish va o'z malakalarini oshirish imkonini beradi.

6. O'qituvchilar malakasini oshirish.

Yangi vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o'qituvchilar o'z malakalarini doimiy ravishda oshirib borishlari lozim. Seminarlar, vebinarlar va malaka oshirish kurslarida ishtirok etish ularga zamonaviy tendensiyalar va yangi o'qitish usullaridan xabardor bo'lishga yordam beradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Fransiya tashrifi ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashda muhim qadam bo'ldi va fransuz tili o'qituvchilari uchun yangi istiqbollarni ochdi. Bundan kelib chiqadigan

vazifalarni amalga oshirish sa'y-harakatlar va ijodiy yondashuvni talab qiladi, ammo oxir-oqibat bu ta'lim sifatini yaxshilashga va talabalarni global jamiyatda muvaffaqiyatli hayotga tayyorlashga olib keladi. Fransuz tili o'qituvchilari bu jarayonda asosiy rol o'ynaydi va ularning hissasi kelajak avlodlar uchun uzoq muddatli ta'sirga ega bo'ladi.

Umuman olganda, shuni ishonch bilan aytishimiz mumkinki, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning Parijga tashrifi O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi yuksalib borayotgan ishonch hissini namoyish etibgina qolmay, har ikki davlatning barqaror rivoji va farovonligi yo'lidagi muhim qadam bo'ldi. Bu shuningdek, tomonlarning ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlashga, birgalikda global masalalarni hal etishga va o'zaro manfaatli hamkorlik uchun yangi ufqlarni ochishga bo'lgan intilishini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Tarixiy qaror: Mirziyoyev va Makron strategik sheriklik bo'yicha kelishib oldilar
<https://www.xabar.uz/uz/siyosat/tarixiy-qaror-mirziyoyev-va-makron-strategik>
2. Hamkorlikning yangi ufqlari: Shavkat Mirziyoyevning Parijga tashrifi yakunlari
<https://uza.uz/oz/posts/hamkorlikning-yangi-ufqlari-shavkat-mirziyoyevning-parijga-tashrifi-yakunlari> 698329
3. Дононбаев А. МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ. ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА: учебник. Часть 1. Бишкек: Изд-во КРСУ, 2015.
4. Синчук Ю. В., Матюхин А. В., Сидорова Г. М. - Особенности современных международных отношений: теория и практика, Монография. Издательство "Проспект" -2022
5. «Преподавание французского языка: новые реалии, новые подходы»: электронный сборник научных статей межвузовской научно-практической конференции (Москва, 21–22 апреля 2021 г.) / составитель и научный редактор Н.В. Лосева; Московский государственный институт международных отношений (университет) Министерства иностранных дел Российской Федерации, кафедра французского языка. — Москва: МГИМО-Университет, 2021
6. СБОРНИК НАУЧНЫХ ТРУДОВ. Обучение иностранным языкам в открытом поликультурном пространстве. Материалы II Международной научно-

практической конференции 1–2 декабря 2023 г. / научн. ред. С.В. Титова, М.Г. Бахтиозина. – М. : «КДУ»; «Добросвет», 2024.

GAVHAROY KOMILOVA (ToshDO'TAU)

PAREMIOLOGIK BIRLIKLARDA QADRIYATLAR IERARXIYASINING AKS ETISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15558022>

Annotatsiya. Maqolada paremiologik birliklar milliy qadriyat yo'nalishlarini ko'rsatadigan til birliklari sifatida tahlil qilindi. Har bir xalq ierarxik tarzda tashkil etilgan ma'lum bir qadriyatlar sohibi sanaladi. Aksiologik tadqiqotlarda boshqa madaniyatlardagi qadriyatlar bilan qisman mos keladigan, lekin o'ziga xos xususiyatlarga ega milliy qadriyatlarni o'rganish - milliylikni aniqlash ayni paytda tilshunoslik oldidagi dolzarb hisoblanadi. Xalqning milliy qadriyatlari borasidagi mazkur izlanishlar xalqaro munosabatlarda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Paremiologik birliklar, xususan, maqollarda qadriyatlar ierarxiyasi haqida tasavvurga ega bo'lish maqsadida o'zbek tilidagi leksikografik material o'rganildi.

Kalit so'zlar: paremiologik birlik, maqol, qadriyat, ierarxiya, aksiologiya, aksiologika

Annotatsiya. The article analyzes paremiological units as language units that indicate national value orientations. Each nation is considered to have a certain set of values, organized hierarchically. In axiologistic research, the study of national values, which partially coincide with the values of other cultures, but have their own characteristics, is relevant - the definition of nationality. In order to gain an idea of the hierarchy of values in paremiological units, in particular, proverbs, lexicographical material in the Uzbek language was studied.

Keywords: paremiological unit, proverb, value, hierarchy, axiology, axiologistics

Ma'lumki, tilshunoslikda bir qator maqollar to'plamlari nashr etilgan. Tadqiqotlarda mazkur tematik tasniflar – lug'at mualliflari tomonidan aniqlangan mavzular ma'lum bir xalqning qadriyatlar ierarxiyasi haqida tasavvur berishi aniqlagan. Shuningdek, dunyo tilshunosligida maqollarning aksiologik imkoniyatlari, qadriyatlar tizimini aks ettirish jihatlarini tahlil

qilishga qaratilgan tadqiqotlar mavjud. Zero, me'yoriy vaziyat tilda izohlangan ko'rinishda, asosan, maqollarda ifodalanadi. Chunki maqollarda insonlarning maslahat va bahosi aks etadi.

Fransuz tilida ham bir qator aksiolingvistik tadqiqotlarda maqollar tahlil etilgan, xalqning qadriyat va baho qiymati yoritilgan. P.Breshon fransuzlar qadriyatlar tizimida oila, keyin ish, do'st (oshna-og'ayni), bo'sh vaqt va oxirgi o'ringa siyosat, din qo'yilganligini ta'kidlaydi [Нелюбова, 2019: 233].

Aksiolingvistik tahlilda til madaniy hodisa sifatida o'rganiladi, zero til qadriyatlar tizimini shakllantiradi, ma'lum bir jamiytdagi baholash tizimi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'zida aks ettiradi.

Quyidagi maqollarda donolik xalqning milliy-madaniy o'ziga xosligidan kelib chiqqan holda tasvirlangan bo'lib, ularni tahlil qilish jarayonida xalq hayotidagi qadriyatlarning mazmun-mohiyati haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Mazkur maqollar xalqning intellektual qadriyatlarini ifodalaydi. Tilda *aqli/ahmoq, dono/nodon, ilmli/omi, tajribali/anqov* va ularning darajalari hamda semantik usullar orqali baho beriladi.

Til – aql mezon. O'zbek maqollarida til aql darajasini ko'rsatuvchi omil sifatida baholangan. *Til – aql tarozisi* maqolida baholashga asos bo'lgan jihatlar: 1) til – fikr ifodasi; 2) til – fikrlash darajasini ko'rsatuvchi vosita; 3) til – aqlni baholash asosi. *Tarozi* quyidagi belgilarni namoyon qiladi: a) me'yor; b) o'lchov; v) baho. *Tarozi* fors-tojikcha so'z bo'lib, uning turkiy muqobili bo'lgan *qantar* eng qadimgi shakl, shevalarda "*qantar og'di*" jumlasida uchraydi. *Qantar og'ishi* qish faslining ortga chekinib keyingi faslga yo'l berilishiga nisbatan aytiladi. "Og'ish" belgisi ham taroziga xos bo'lib, og'ir kelgan tomon holati bilan baholangan. *Tarozi* leksemasining ko'chma "taqqoslash, xulosalash, sintezlash" ma'nolari tilda me'yor; qoida; mushohada singari ijtimoiy va intellektual qadriyatlarni voqelantiradi.

Aqli kaltaning tili uzun maqolida so'z birikmalari o'rtasidagi oppozitsiya orqali; *Til – aqlning qilichi, farosat – g'ilofi* matnida *qilich* leksemasidagi "qurol"

va “himoyalovchi vosita” ma’nolarida baho semasi mavjud. *Naql – ibrat o’chog’i, aql – fikr pichog’i* maqolida aqlning kognitiv qiymati ifodalangan. Zotan, hikmat aql va ong birlashishining mevasidir.

Oqillik – boylik. Maqollarda aql boylikka, aqli esa boyga tenglashtirilgan. Bu maqollar aqlning iqtisodiy jihatdan mukammallashuv jarayonidagi qiymatini belgilab keladi. Aqlning mohiyati mol-dunyo hamda boylik, olmos kabi qimmatbaho toshlarga qiyoslash orqali yoritilgan. Moddiy qadriyat sifatida namoyon bo’lgan. *Aqli bolaga mol na kerak* maqolida aql mol-dunyoning o’rnini bosuvchi ne’mat deb baholangan. Baho mol-dunyoni inkor etish, rad qilish asosida reallashgan. *Inson aqli – olmos* maqolida aql olmosga tenglashtirilgan. Olmosning xalq turmush tajribasi orqali aniqlangan qiymati baholash asosi bo’lgan. Birinchi maqol aksiologemasini dunyo=aql tipida modellashtirsak, keyingi maqoldagi aksiologik mazmun aql=olmos modeli orqali ifodalangan. *Yigit orif bo’lsa, aslini so’rama* maqolida aql leksemasi ishtirok etmagan. Lekin orif (arab tilida *biluvchi, xabardor*) “ilm bilan axloqiy yetuklikka erishgan shaxs”, “ma’rifatli”, “dono”, “bilimdon” (O’TIL, III, 137) ma’nosidagi so’z bo’lib, yigitning intellektual darajasiga ishora qiladi. Maqolda “*aslini so’rash*” iborasi orqali o’zbek xalqiga xos “nasl-nasabini surishtirish” qadriyati aks etgan. Maqol presuppozitsiyasida “aqllilik, intellektual qobiliyat genetik asosga bog’liq” degan mazmun yotadi.

Aql insonni boshqaruvchi kuch: *Odamning tizgini – aql; Oy tunda kerak, aql kunda kerak; Aqli bor uyda, ahillik bor; Aql – dunyoning ko’zi, Aql – odamning ko’rki; Aql boshlaydi, Oyoq tashlaydi; Ziyrakning aqli tosh yorar, Nomardning mushti bosh yorar*. Ushbu maqollarda aql inson uchun muhim bo’lgan qobiliyat, xususiyat va oliy maqomdagi qadriyat sifatida e’tirof etilgan. Bu kabi maqollarda aql kishi hayotining mazmuni deb hisoblanishi falsafadagi ratsionalizm tahlillariga mos keladi. Ratsionalizm (lot. ratio – aql, aql idrok) – aqlni bilishning va kishilar xulq-atvorining asosi deb hisoblovchi falsafiy yo’nalish.

Aql – axborot va ma'lumot yig'uvchi: *Dono aql so'rab xormas, Nodon nozin qilib bormas; Aql aqldan quvvat olar* maqollarida aql ma'lumot, bilim olish vositasi sifatida baholangan. Aqlli insonlarni tasvirlashda ularning izlanuvchanligi qadrlanadi.

Aqlli – mehribon: *Ahmoqda aql bo'lmas, Aqlli baxil bo'lmas; Donoda mehr bo'ladi, Nodonda – qahr; Johillar kamon bo'lar, Mehrlilar – chaman.* Til egalari ongida oqillik konsepti mehr, samimiylik tushunchalari bilan parallel ravishda tasvirlangan.

Aql yoshga bog'liq emas: *Ulug'lik yoshda emas, boshda* maqolida *ulug'lik* so'zi yillar osha to'plangan tajriba mohiyatiga ko'ra "aql"ga ishora qilgan. *Aql yoshda emas, boshda* maqolida aqlning yosh bilan bog'liqligi inkor etilgan. Shuningdek, aql va jismoniy yetuklik bir-biriga zid qo'yilib, kishidagi jismoniy xususiyatlar narsa-predmetlarga ko'chirilib ifodalangan maqollar miqdori ko'p. Masalan: *Aql bo'y bilan o'lchanmas; Tuyaday bo'ying bo'lguncha, tugmadak aqling bo'lsin; Tuyaday bo'y berguncha, ninaday aql bersin; Bo'y yetmagan joyga o'y yetadi (aql – o'y, mushohada); Chinorday bo'ying bo'lguncha, Tumordek aqling bo'lsin.* Ushbu maqollardagi *tuya-nina, chinor-tumor* so'zlari orqali o'ziga xos zidlash asosida aqlning ahamiyati ko'rsatilgan va bu so'zlar maqollardagi ifodaning milliy-madaniy jihatini ochib bergan. Bo'yni aqlga zidlash orqali oqillikni ustun qo'yish qadriyati mavjud: *Bo'yi uzun – aqli kalta.*

Aql - tajribalar ombori. Kundalik hayotda ham, badiiy adabiyotda ham aqlga ehtiyoj insonlar bilan o'zaro munosabatlarda ko'rish, his qilish, tasdiqlash yoki rad qilish orqali baho berishdan boshlanadi. Inson idrok, zehn va kuzatish orqali odamlarni farqlay oladi, ularni farqlash inson ongining bilish jarayoni bo'lsa, uni tasdiqlash yoki rad qilish intellektual jihatdan qadrlash hisoblanadi. Hodisalarning farqini anglab, bilim hosil qilgan inson endi uni yoqtirishi yoki ma'lum faoliyat uchun tanlashi uchun unga aniq tajriba kerak bo'ladi.

Ko'p yashagandan emas, ko'pni ko'rgandan so'ra. Bu maqolda yosh emas, bilim, tafakkur, tajriba belgilovchi ahamiyatga egaligi ta'kidlangan. *Yigit ko'pni ko'rsa, odam bo'lar, Qa'da-qoyimni bilmasa – nodon; Ko'rganning ko'ziga foyda; Safar ham – bir ilm; Karvon yo'lida yurib tuzaladi; Yer kezgan – el ko'rar; Ko'rgan ko'p bilar, O'qigan – oz; El oralagan – sinchi, To'qay oralagan – ovchi (sinchi - ko'pni ko'rgan, ko'zi pishgan, tajribali).* Xalq dostonlarida *sinchi* otning nasl-nasabini, sifatini yaxshi bilgan chavandozga nisbatan qo'llangan. Demak, maqolda aql-zakovatning kuzatish, mushohada qilishdan iborat faoliyat belgisi ustun qo'yilib, uni dunyoqarash manbayi sifatidagi qiymati aks etgan. Amaliy faoliyatda esa hamisha ham aql va bilim hukmiga bo'ysunmasdan, hayotiy tajriba bilan yashashga to'g'ri keladi. Ya'ni ilm va haqiqatning eng asosiy mezonini kuzatuv hamda tajriba ekanligi asoslangan.

Aql odob, axloq bilan tenglashtiriladi: *Aql bilan adab egizak.* Biri ikkinchisini taqozo qiluvchi juftlik sifatida qaraladi: *Ilmning kattasi adab, Aql Hasandir, Odob Husan.*

Aql, donolik baxtga tenglashtiriladi: *Qut belg'ici bilik – baxt belgisi ilm va aql*dir [КошҒарий, 1960:403]. *Kishi baxti taxtida emas, aqlida; Aqlli baxt topar, Baxt bilan taxt topar.* Ilmning baxtga, yorqin hayotga yetaklashi ta'kidlangan.

Donolik - vazminlik, mulohazakorlik: *Ko'r siypab topar, Aqlli – o'ylab; Naql qaydan chiqadi, o'y bo'lmasa, Kigiz qaydan chiqadi, qo'y bo'lmasa; Og'ir oshadi, yengil toshadi* (Bosiq odam har qanday qiyinchilikni mulohaza bilan yengib o'tadi, jahli tez, shoshgan esa murodiga yeta olmaydi) kabi. "Devonu lug'otit turk"da shunday keltiriladi: *Bulg'aq ög'ysh bolsa, qachan bilgiñ jētar, Jaḡshaq tēlim sajrab anī tamg'aq qatar – Xalqda fitna ko'paysa, aql ozayadi va to'g'ri yo'lni topolmay qoladi. Behuda so'zlar ko'payib ketsa, og'iz qurib jag' qayishadi* [КошҒарий, 1960:434]. Bu maqol o'ylab so'zlashga undab aytiladi. Demak, mulohazali bo'lish qadriyat sifatida har bir davr uchun ahamiyatli bo'lgan. *Donodan elchi qil, chorvadan yo'lchi qil.* Elchi, sovchilar dono, aqlli, mulohazali insonlardan tanlangan. O'zbek xalqi qadimdan chorvachilik bilan

shug'ullangan bo'lib, ularda yo'lni to'g'ri tanlash, bexavotir joylarni yaxshi bilish muhim hisoblangan. Shuning uchun ham yo'l ko'rsatuvchilikka aqlli insonlar tayinlangan. Maqollardan ko'rish mumkinki, elchi va sovchi tanlash kognitiv qadriyat darajasida baholangan.

Aql – ko'rkamlik, savlat: *Husn to'yda kerak, aql – kunda; Tan pardozi oltmishgacha, Aql pardozi o'lguncha; Tog'ning ko'rki tosh bilan, Odamning ko'rki bosh bilan; Chiroy husn-u jamolda emas, fazl-u kamolda*. Bu maqollarda estetik baho berilib, aql ham insonda estetik zavq uyg'otishi, aql tashqi go'zallikdan kuchliroq va abadiyligi qadrlangan.

Aql – jahlni boshqaruvchi kuch: *Achchig'ing oldin yursa, Aqling keynidan oshib ketsin; Achchig'ing chiqsa ham, aqling qochmasin; Aqliga yondosh, aqlsizdan qoch; Aqlingga aql qo'sh, Jahlingga – sabr; Aqlsiz – jahlli, Jahlsiz – aqli*. Mazkur maqollarda *aql jahlga* qarama-qarshi qo'yilib, murakkab va qiyin vaziyatlarda ham mushohada bilan ish yuritish lozimligi qadrlangan. Zero, *jahl* arabcha so'z bo'lib, mazkur tilda ham “nodonlik”, “aqlsizlik”; “jaholat” ma'nolarini ifodalaydi (O'TIL, II, 78).

Aqlli inson ichki xotirjamlikka ega bo'ladi: *Katta daryo hayqirmas, Aqli kishi baqirmas; Ma'arakada topib gapirgan – dono, O'zini tutib o'tirgan ham – dono*. Ichki xotirjamlik inson botin va zohiri uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Aql esa buni ta'minlovchi, shakllantiruvchi kuch deb baholangan.

Aql – mas'uliyat: *Dono aytsa, el aytgani, Elning g'amin yeb aytgani; Dono hikmat keltirar, nodon – kulfat; Olim adashsa, olam adashar*. Bu maqollarda aql, bilim va tajribaning xalqqa amaliy foydalari, mas'uliyati voqelangan.

Aqli – mustaqil fikr egasi: *Ko'pga kengash, o'z bilganingni qil; Ko'p bilan kengash, Ma'quliga yondash; O'zgalarni eshitishdan tolma, o'z bilganingdan qolma; Kishi aqli bilan boy bo'lguncha, O'z aqling bilan gado bo'l*. Jamiyatda mushohadali va mustaqil fikrli insonlar qadrlangan. Bu kognitiv qadriyat sifatida har bir zamon uchun yuqori qiymat kasb etgan.

Aqli – tinglovchi: *So'zlaganga qarama, So'zlatganga qara; Ahmoq so'zlar, Aqli tinglar; Idrok – aqlning jilovi.*

Aql tavakkalchilik bilan ham bog'lanadi. O'zbek maqollarida o'rni bilan tavakkalchilik ham qadrlanganligining guvohi bo'lamiz: *Tavakkalni boshga ur, baxtingdan ko'r; Tavakkal qil, tosh yut; Ikkilanish o'lim; Tavakkal – erning yo'ldoshi; Tavakkalning eshagini bo'ri yemas, Tavakkalchining kemasi botmas; Tavakkal tog'ni yiqar; Aqli o'ylaguncha, ahmoq daryodan o'tar* kabi paremiyalarda tavakkalchilik ham aql bilan ish tutishning bir usuli sifatida namoyon bo'ladi. Buni islom dinidagi Ollohga tavakkal qilish kerakligi bilan ham izohlash mumkin.

Ta'kidlash joizki, bahoda har doim obyektiv omil bilan o'zaro munosabatda bo'lgan subyektiv omil mavjud bo'ladi. Baho mulohazalari, unda baho subyeksi to'g'ridan-to'g'ri ifodalanmagan bo'lsa-da, fikr subyeksi (baho beruvchi shaxs) va uning obyekti (baho tegishli bo'lgan narsa-predmet yoki hodisa) o'rtasidagi qadriyatli munosabatlarni ko'zlaydi" [Селезнева, 1999:74].

Til inson mavjudligini, uning ijtimoiy tajriba-faoliyatini ta'minlovchi hodisadir. Demak, til tadqiqi bilan shug'ullanayotgan mutaxassis beixtiyor o'zini bilish bilan mashg'uldir, zero, til faoliyati hodisasining mohiyati – uning ijrochisi – shaxs va ushbu shaxsning ijtimoiy, shaxslararo munosabatga kirishishi bilan belgilanadi [Сафаров, 2013;5]. Til har qanday zamonda aql mezoni bo'lib xizmat qilgan. Ma'naviy qadriyatlar iqtisodiy qadriyatlardan farqli ravishda, o'zgaruvchan emas. Insoniyatning unga nisbatan munosabati esa dinamik jarayondir.

Korpus tahlillar va matniy qiyosiy-chog'ishtirma tahlillar orqali badiiy adabiyotlar hamda paremiologik fondagi misollar turli madaniyatlarda oqillik/ahmoqlik milliy-mazmunli maydonidagi qadriyat va aksqadriyatlarning o'xshashligi, ular tanlagan obrazlar va timsollar esa har xil ekanligini ko'rsatmoqda. Aql, bilimni anglash tilda ko'rish, baho va tajriba uchligi orqali amalga oshadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Нелюбова Н.Ю., Хильтбруннер В.И, Ершов В.И. Отражение иерархии ценностей в пословичном фонде русского и французского языков. Вестник РУДН. Серия: Лингвистика. 2019. Т. 23. – № 1. – С. 223– 243.
2. Сафаров Ш. Семантика. – Т.: ЎзМЭ, 2013. – 160 б.
3. Селезнева Е.С. О некоторых особенностях средств вырождения модальности сомнительной оценки (на материале английского, французского и русского языков)//Теоретическая и прикладная лингвистика. Вып.1. Проблемы философии языка и сопоставительной лингвистики. – Воронеж: ВГТУ, 1999. – С.74-80.
4. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 1-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 680 б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 2-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – 672 б.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. – 688 б.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 4-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 608 б.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. 5-жилд. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008. – 592 б.
9. Ўзбек халқ мақоллари. Тузувчилар: проф. Т.Мирзаев, А.Мусақулов, Б.Саримсоқов. – Т., 2019. – 512.
10. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит-турк. – Т.: Mumtoz so'z, 2016. I жилд. 388 б; II жилд. – 292 б.

MOHIGUL FOZILOVA (O'zDJTU)

O'ZBEK TILINI O'QITISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15558031>

Annotatsiya. Oliy o'quv yurtlarining gumanitar ta'lim sohalari orasida o'zbek tili fanining o'z o'rni va ahamiyati bor, chunki u talabalarning vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbek tili fanining o'qitishga qo'yiladigan talablar professor – o'qituvchilarini ta'lim standartlarida belgilangan talablarni ilg'or pedagogik usullar hamda didaktik vositalardan foydalangan holda tashkil etishini taqozo etadi. Zamonaviy ta'lim usullari bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetensiyalarini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, kompetensiya, kadr, texnologiya, modernizatsiya, loyiha, interaktiv usul.

Annotation. In the humanities of higher education, history occupies a special place and is of strategic importance. This is due to the fact that history serves as the main tool for forming students' sense of patriotism, developing their critical thinking and strengthening national values. However, at present, a reduction in the number of classroom hours allocated to the study of history, a shift in emphasis towards exact and natural sciences, as well as modern educational standards require teachers of social and humanitarian fields to introduce advanced pedagogical technologies and didactic innovations. Modern methods of teaching history contribute to the successful formation of professional competencies of future specialists.

Keywords: uzbek language, competence, personnel, technology, modernization, project, interactive method.

Oliy ta'lim tizimi zamon talablaridan kelib chiqqan holda muntazam modernizatsiya qilib borilmoqda. Bugungi kunda ta'lim tizimi modernizatsiyasi tamoyillari oliy ta'lim bitiruvchilarini tashabbuskor, mobil va konstruktiv xususiyatlarini yuzaga chiqarishini talab etadi. Talabalik davridanoq mustaqil qaror qabul qilishni, hayotiy muammolarni hal etish, amalda zamon talablariga mos texnologiyalarni faol qo'llash ehtiyojini tushunish sifatlarini shakllantirish kerak bo'ladi. Oliy ta'lim muassasi bitiruvchilari kelajakda ijtimoiy tarmoqlarini muvaffaqiyatli boshqara oladigan professional rahbar, jamoa bilan ishlash qobiliyatiga ega, ish jarayonida uchraydigan qiyinchiliklar, stressli holatlarga tayyor va ularni bartaraf etish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak[1]. Bo'lajak filolog va pedagoglar mutaxassislik kompetensiyasi talabalarning faol

mustaqil xatti-harakatlari natijasida, xususan, o'zi uchun zarur bo'lgan intellektual axborot bazasini yaratish orqali erishiladi[2].

Maqola ta'lim kompetensiyasi va faoliyatiga yo'naltirilgan ta'limiy yondashuvlarga asoslanadi. Mazkur ishda tadqiqot mavzusi, qo'yilgan muammoga aloqador bo'lgan adabiyotlar mazmuni analiz va sintez qilingan, shuningdek, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasini tajribasini tatbiq etish va ommalashtirish usullari qo'llanildi.

Yangi O'zbekiston ish beruvchi korxona, tashkilot va muassasalari oliy ta'limdan kasbiy kompetentli, qonunlarga qat'iy amal qiladigan, jamiyat taraqqiyoti uchun munosib hissa qo'sha oladigan salohiyatli va qobiliyatli kadrlarni kutmoqda. Ta'limda kompetensiyaga yo'naltirilgan yondashuv, ko'pchilik tadqiqotchilarning fikricha, kutilgan natijaga erishishning garovidir.

Davlat ta'lim standartlari, malaka talablari talabalar mustaqil faoliyatining ajralmas qismi sifatida uni faollashtirish, yuqori motivatsiya berish bilan kafolatgan ta'lim sifati va samaradorligini aks ettiradi. Bunda mustaqil ishni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbek tili fani malaka talablari talabalar bilimi va dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Talabalarda nafaqat tahlil, balki o'zbek tilining dunyo miqyosidagi nufuzi va dunyohamjamiyatiga tutgan o'rni haqida tasavvurlar uyg'otadi. Oliy ta'limda o'qitilayotgan O'zbek tili fani mamlakatimizning jahon hamjamiyatiga har tomonlama integratsiyasini chuqurlashtirish kabi dolzarb masalani xorijiy mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotini tarixiy nuqtayi nazardan bilish insoniyat sivilizatsiyasining yutuqlaridan va tajribasidan to'la bahramand bo'lish, umuminsoniy qadriyatlarni anglab yetishga ko'maklashadi va dunyo miqyosida mavjud bo'lgan muammolarning tarixiy ildizlarini izlab topish yo'llarini yaxshi tushunishga imkon beruvchi fikrlashni rivojlantiradi. Adabiy jarayon bilan tanishish asosida o'tmish to'g'risidagi ma'lumotlarni qabul qilish, tahlil va umumlashtiruvchi muhim ko'nikmalar shakllanadi, intellektual

salohiyat oshadi, bu esa talabalar olgan bilimlarini mustahkamlashga imkon beradi.

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'tkazilgan tajriba-sinov ta'limda zamonaviy, innovatsion usullarni qo'llash zarurligini ko'rsatdi. Tadqiqot jarayonida asosan innovatsion ta'lim metodlari yordamida ta'lim jarayonining barcha jabhasi qamrab olindi.

O'zbek tili va adabiyot kafedrası professor-o'qituvchilari tomonidan o'qitiladigan O'zbek tili fanlari nafaqat o'zbek tilining grammatikasi va grammatik qoidalarini yodlab qolish, balki grammatik qoidalarini nutqiy mavzularda qo'llash bilan analitik ishlash, zamonni chuqur va teran anglashga yordam beradi. Shu boisdan, ta'lim jarayonida innovatsion metodlarni joriy qilishga alohida e'tibor qaratiladi.

An'anaviy ta'lim usullari - ma'ruzalar va seminar mashg'ulotlari tarixiy voqealar, hodisalar va jarayonlarni yuzaki yoritilishiga olib kelmoqdi. Shuning uchun o'qituvchilar yangi usul hamda didaktik vositalarni izlashga majbur bo'lmoqdalar. Shu o'rinda aytish mumkinki, muammoli va o'yinli ta'lim usullari bu borada samarali hisoblanadi, chunki ular ilmiy munozaralarni tashkil etishga imkon beradi, bu esa o'qituvchi faolligini oshirib erkin va mustaqil faoliyatga sharoit yaratadi. Munozaralarda grammatik qoidalarini tahlil qilishdan tashqari, ma'lumotlarni tanqidiy baholash, murakkab muammolarni hal qilish, muqobil variantlari nuqtayi nazaridan kelib chiqib ko'rib chiqadilar. Ushbu usul, talabalarda zamonaviy muammolarni tushunish qobiliyatini faollashtiradi. Masalan, "Badiiy uslub" mavzusini o'rganish jarayonida badiiy matnlarni tahlil qilishda asar qahramonlar nutqining lisoniy tahlili qilish sud jarayonlarini simulyatsiya qilish metodini qo'llash mumkin. Talabalar oldindan dars rejasi va adabiyotlar ro'yxatini oladilar, himoya yoki ayblovlarni pozitsiyasini tanlaydilar, belgilangan rejaga muvofiq asosiy savollarni tayyorlaydilar va o'qituvchi bilan maslahatlashadilar.

Fikrimizcha, bu mashg'ulotga oldindan tayyorgarlik ko'rish maqsadga muvofiq, chunki bu usul talabalarining mustaqil ijodiy ish qilish, til to'g'risidagi bilimlarni va faktlarni qo'llash, ularga baho berish va o'z fikrini erkin ifodalash hamda himoya qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Ta'limda keng qo'llaniladigan usullardan yana biri "Keys-stadi" (case-study) yoki aniq vaziyatlar tahlil usuli bo'lib, undan "Davrimizning global muammolari", "O'zbek tilida natija va to'siqsizlik ma'nolarining ifodalanishi", "Fikrga munosabat bildirish" mavzularini o'qitishda foydalanish mumkin. Ushbu usul talabalarining faolligini oshiradi, real holatlar tahlili orqali fikrlashga undaydi, umumiy kommunikativ va intellektual salohiyatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Keys-stadi metodining o'ziga xosligi shundaki, bu usulda qat'iy belgilangan, yagona yechim yo'q, bu esa talabaga individual qarorlar qabul qilish imkonini beradi va shu bilan birga muammoni elementlari bilan tanishtiradi.

Debat usulida "O'zbek tilida barqaror birikmalarning ifodalanishi", "Fikrni publitsistik uslubda ifodalanishi", rolli o'yin usulida mazkur mavzularni o'qitishda yaxshi samara beradi. Bu kichik guruhlarda ishlashning interaktiv shakli bo'lib, o'tmishda sodir bo'lgan voqealarning "aniq xolatdagi modeli yaratiladi" talabalar u yoki bu tarixiy davr qahramonlarini "jonlantiradi" va "harakat qiladi" o'zlari bevosita o'tmish voqealari ishtirokchisiga aylanadilar[4]. Natijada talabaning analitik fikrlashi rivojlanadi, qaror qabul qilishda alohida argumentatsiya tizimi ko'nikmalari hosil bo'ladi. Muammoli vaziyat hosil qilgan holda dars jarayonini tashkil etish, talabalarining mavzu haqidagi dastlabki bilimlarga ega bo'lgan hollardagina samarali bo'ladi. Muammoli vaziyat usuli nutqiy mavzularni tartib bilan oddiy faktlardan tortib keng-ko'lamdagi jiddiy muammolar muhokamasiga yetaklaydi. Yuqoridagi mulohazadan kelib chiqib, ta'lim jarayonida an'anaviy ma'ruzalar o'rniga, muammoli vaziyatlarni mustaqil idrok etish orqali ta'lim berishga qaratilgan ma'ruzalar tashkil etish tavsiya qilinadi. Bu esa o'quv jarayonini dialog shaklida

olib borishga yordam beradi, talabalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va izlanish, intilish muhitini yaratadi.

Talabalarning o'zbek tili faniga bo'lgan qiziqishini oshirishning yana bir usuli – loyiha ta'limi bo'lib, tarixiy xotirani chuqur anglash, bugungi kun bilan bog'liqligini tushunib yetish orqali unda adabiyot yaratuvchisi ekanini anglab yeta oladigan pozitsiya shakllanadi. Ammo o'zbek tili fanlarini grammatik qoidalarga asoslanib o'qitish maqsadga muvofiqligini e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Manbalarsiz tashkil etilgan darslar grammatik reallikni soddalashtirish, tasodifiy aql-idrok bilan harakat qilishga olib keladi. Shunday ekan, talabalarni grammatik qoidalar va badiiy matnlar bilan ishlash va ulardan unumli foydalangan holda yangi fikrlarni shakllantirishga undash talab etiladi [5].

Bugungi kunda ta'lim tizimida pedagogik faoliyat bilan shug'ullanayotgan barchaning e'tibori zamon talabi va hukumat tomonidan ilgari surilayotgan konsepsiyaga mos shakl, vosita va usullarni izlashga qaratilgan. Kelajakda bizni nafaqat iqtisod, ishlab chiqarish, texnik-texnologik sohadagi kadrlar tayyorlash, balki jamiyat farovonligi va barqarorligini ta'minlash uchun zarur, ijtimoiy muammolarni bartaraf etishga qodir mutaxassislarni ham tayyorlash kabi muhim vazifalar kutib turibdi. Shu nuqtayi nazardan, ijtimoiy-gumanitar fanlar o'qitiladigan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari ahamiyatini pasaytirish noto'g'ri bo'ladi.

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi tomonidan o'tkazilgan tajribalar, o'quv dasturlaridagi gumanitar fanlar, xususan, o'zbek tili fanining an'anaviy ma'ruza va seminar shaklida tashkil etilishi kutilgan natija bermaydi, bu usullar eskirgan, kompetensiyalarni shakllantirish va faoliyatga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvlariga nomutanosib ekanligini ko'rsatdi.

Yangi davlat ta'lim standarti talablarida professor-o'qituvchilar oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarni innovatsion pedagogik texnologiyalar - muammoli, loyiha va o'yin usullarni qo'llash orqali amalga oshirishni taqozo

etadi. Ushbu usullar talabalarni fikrlash qobiliyatini rag'batlantiradi, muloqot (interaktiv) shakllarida o'tkaziladigan darslar, jumladan, keys-stadi, debat, munozaralar o'qituvchi va talabalar o'rtasida o'zaro muvaffaqiyatli muloqotni ta'minlaydi, o'quv vazifalarini interaktiv hal qilishni rag'batlantiradi hamda talabalarda ijobiy kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantiradi. Mazkur ishda ifodalangan usullarni universitetlarda o'qitiladigan boshqa fanlarga ham tatbiq etish mumkin.

Oliy ta'lim muassasasida o'quv soatlari taqsimoti masalasi, ya'ni talabalar mustaqil ishlarining o'quv rejalaridagi ulushining oshirilishi, bizning fikrimizcha, muhokama qilinadigan masalalardan biri bo'lishi kerak. O'zbekistonda, mustaqil ta'limni o'ziga xos mental kodlari bilan, ta'lim jarayonini individuallashtirgan mustaqil o'quv faoliyatiga yo'naltirish, ba'zida o'quv jarayonini mavhumlashtirib yuborishi mumkin. DTS mualliflarining fikriga ko'ra, o'quv rejalarida MT (mustaqil ish) ga ajratilgan soatlar talabalar tomonidan mustaqil tadqiqot amaliyoti sifatida bajariladi. Ammo umumta'lim maktabida o'quvchida mustaqil bilim olish ko'nikmalari shakllanmaganligi sababli, ko'pchilik talabalar, mavzularni mustaqil idrok etish jarayonida bir qator noqulayliklarga duch keladilar, ulardagi ta'limiy va ilmiy faoliyatga yo'налgan motivatsiyalar yo'qoladi. O'qituvchi uchun esa auditoriya darslari bilan mustaqil ta'lim o'rtasidagi yangi nisbat, talabalar sonining ortishi va fanlarga ajratilayotgan soatlar hajmining oshishi sharoitida, nazariy savollarni tanlashda jiddiy muammolar yuzaga keladi. Ya'ni mustaqil ta'lim uchun tayyorlangan topshiriqlar talabalarning samarali lisoniy bilim olishlari uchun ko'maklashish ehtiyoji nazardan chetda qoladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Zvezdova A. B., Oreshkin V. G. Kompetentnostnyy podxod v vysshem professionalnom obrazovanii // Sbornik materialov Yevraziyskogo nauchnogo

foruma. [Elektron. resurs]. Sankt-Peterburg: NOU VPO MIEP, 2010. S. 6–25.
Rejim dostupa: http://www.miep.edu.ru/uploaded/zvezdova_oreshkin.pdf

2. Osmolovskaya I. M. Innovatsii i pedagogicheskaya praktika // Narodnoe obrazovanie. 2010. № 6. S. 184–185.; A. Yu. Suslov, M. V. Salimgareyev, Sh. S. Xammatov. Obrazovanie i nauka. Tom 19, № 9. 2017/The Education and Science Journal. Vol. 19, № 9. 2017 82

4. Salimgareyev M. V., Suslov A. Yu. Metodika rolevoy igrы v kurse istorii v vuze// Upravlenie ustoychivym razvitiyem. 2016. № 2. S. 98–102.

5. Gerich A. A. Ispolzovanie elektronnykh publikatsiy arxivnykh dokumentov pri podgotovke leksionnogo materiala po dissipline «Istoriya»//Vestnik Kazanskogo gosudarstvennogo energeticheskogo universiteta. 2013. № 4. S. 111–112.

SHAXNOZA XUDAYKULOVA (JIDU)

**TIL TA'LIMIDA TALABALARDA ILMIY USLUB KO'NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISH TAJRIBASIDAN**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15558037>

Annotatsiya. Ushbu maqolada til ta'limi jarayonida talabalar nutqida ilmiy uslub ko'nikmalarini shakllantirish masalalari yoritilgan. Muallif til ta'limida talabalarda ilmiy uslub ko'nikmalarini shakllantirishda o'quv jarayonida ilmiy matnlar bilan ishlash, yozma va og'zaki akademik nutqni rivojlantirishga qaratilgan, ya'ni hamkorlikka asoslangan, izlanishga yo'naltirilgan va yozish orqali o'rganish metodlari, amaliyotda qo'llanilib, samarali natija bergan metodlarni taklif qiladi. Tadqiqot natijalari talabalarning mustaqil fikrlashi, dalillash va akademik yozuv ko'nikmalarini shakllantirishda ilmiy uslubning o'rni muhim ekanligini tasdiqlaydi. Shuningdek, maqolada yozish orqali o'rganishning samarali shakllari, ularni dars jarayoniga integratsiya qilish usullari va o'qituvchining yo'naltiruvchi roli yoritilgan.

Kalit so'zlar: izlanishga yo'naltirilgan o'qitish, tanqidiy fikrlash, mustaqil ta'lim, muammoli vaziyat, yozish orqali o'rganish, yozma nutq, akademik yozuv, tanqidiy fikrlash, yozma topshiriqlar.

Abstract. *This article discusses the issues of forming scientific style skills in students' speech in the process of language education. The author proposes methods that are aimed at working with scientific texts in the educational process, developing written and oral academic speech, that is, collaborative, research-oriented and learning through writing, which have been used in practice and have yielded effective results. The results of the study confirm the important role of the scientific style in the formation of students' independent thinking, reasoning and academic writing skills. The article also discusses effective forms of learning through writing, methods of integrating them into the teaching process, and the guiding role of the teacher.*

Keywords: *research-oriented teaching, critical thinking, independent education, problem situation, learning by writing, written speech, academic writing, critical thinking, written assignments.*

Ta'lim jarayonida talabalarni faol ilmiy izlanishga jalb qilish, tahlil qilish, tadqiqot olib borish va xulosalarga kelishni o'rganishga yo'naltirish ilmiy uslub ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu yondashuv ta'lim sifati va talabaning tanqidiy fikrlashini, mustaqil ishlash va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bugungi globallashuv va axborot jamiyati sharoitida oliy ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri - talabalarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdir. Til ta'limi bu jarayonning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, nafaqat til birliklarini o'rgatish, balki talabaning ilmiy tafakkurini rivojlantirishda ham muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, talabalarni ilmiy matn bilan ishlashga, ilmiy uslubda fikr yuritish va ifodalashga o'rgatish, ularni kelgusida ilmiy-tadqiqot faoliyatiga tayyorlash alohida ahamiyatga ega.

Bugun zamonaviy ilm-fanda an'anaviy bilim berishga asoslangan yondashuv o'rnini o'quvchining faolligini ta'minlaydigan, ularni mustaqil fikrlash va muammolarni hal qilishga yo'naltiradigan yondashuvlar egallamoqda. Ilmiy yozishni o'rgatishning samarali usullari turli o'quv ehtiyojlariga mos keladigan hamkorlikka asoslangan, izlanishga yo'naltirilgan yondashuvlarning uyg'unlashuvidan iborat. So'nggi tadqiqotlarga ko'ra, quyidagi asosiy strategiyalar eng samarali hisoblanadi:

Izlanishga yo'naltirilgan o'qitish - ushbu yondashuv ilmiy yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi, chunki u yozish jarayonini izlanishga asoslangan o'qitish bilan birlashtiradi, bu esa oliy ta'lim muassasalari uchun samarali hisoblanadi. Izlanishga yo'naltirilgan o'qitish - talabalarni muammoli vaziyatga olib kirish, savol berishga undash, bilimni mustaqil topishga rag'batlantirishga asoslangan metodik yondashuvdir. Bu jarayonda tanqidiy fikrlash, muammoni tahlil qilish, savol qo'yish va dalillash, ilmiy ma'lumotni izlash, solishtirish, umumlashtirish ko'nikmalari rivojlanadi.

Hamkorlikda o'qitish - ushbu usul talabalarni faol ishtirok etishga va motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Hamkorlikda o'qitish (kooperativ ta'lim) talabalar o'rtasida o'zaro faol muloqotga, bilim almashinuvi va jamoaviy ishga asoslangan yondashuvdir. An'anaviy darslarda o'qituvchi markazda bo'lsa, hamkorlikda o'qitishda o'quvchilar faol subyekt sifatida ta'lim jarayonida ishtirok etadilar. Bu orqali talabalarda umumiy maqsad sari harakat qilish, o'zaro fikr almashish, tinglash, fikr bildirish, murosa qilish, yetakchilik qilish, ijtimoiy va akademik kompetensiyalar rivojlanadi.

Shuningdek, yozish orqali o'rganish metodi yordamida talabalarda ilmiy argumentatsiya keltirish, manba bilan ishlash va ilmiy xulosalar chiqarish ko'nikmalari shakllanadi.

Ilmiy matn yozishni o'rgatish uchun izlanishga yo'naltirilgan, hamkorlikka asoslangan va yozish orqali o'rganish metodlari asosida biz 1-kurs rusiyzabon talabalar bilan quyidagi tartibda amaliy mashg'ulotlar olib borildi:

dastab talabaga sohaga oid terminlar bilan bog'liq topshiriqlar va savollar berilib, mutaxassislik tilini qay darajada bilishi aniqlab olindi;

talabalarga o'qish uchun mutaxassiligiga oid maqolalarning saytlari, ilmiy jurnallar tavsiya qilindi, muayyan muddatdan keyin dars jaroyinda bahs-munozara shaklida maqolalarning mazmun mundarijasi tahlil qilindi;

o'qilgan maqollar asosida fikrni umumlashtirib yozish, tezislar shaklida bayon qilish topshirig'i berildi;

talabalarga huquq, diplomatiya va iqtisodiyotga oid mavzuda ilmiy maqola yozish vazifasi berildi, shuningdek, maqolaning qismlari (kirish, asosiy va xulosa qismi) bo'yicha amaliy mashg'ulotlar davomida ko'rsatmalar berib borildi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagilarga erishildi:

ilmiy xulosani ixcham, tushunarli, aniq, tadqiqotchi bayon etgan tavsiflardan kelib chiqqan holda, qonuniyat sifatida shakllantirish;

statistik ma'lumotlar bilan ishlash;

havola berish tartibi va plagiat muammosi;

ilmiy matnda uyushiq bo'lakli gaplar, murakkab gap qurilmalaridan to'g'ri foydalana olish (*....dolzarbligi shundaki,....., alohida dolzarblik kasb etadi.....,hal etilishi zarur bo'lgan masaladir kabi*);

ergashgan qo'shma gaplar: ergashtiruvchi bog'lovchilar, ko'makchili birikmalar bilan bog'langan sabab, natija, aniqlovchi ergash gap shakllarini to'g'ri qo'llash (*-ki, natijada, negaki, -sa-da, gan holda va h.k.*);

matn qismlari hamda abzaslarni bog'lash uchun kirish so'z va kirish birikmalardan foydalana olish (*shunday qilib, xulosa qilib aytganda, binobarin, demak...*);

xulosa qismida muallifning bayon qilingan g'oyadan foydalanib nimaga erish mumkinligi haqidagi jumlar bilan yakunlay olish (*yuqorida aytib o'tilganlardan kelib chiqib....., tahlil hamda kuzatishlar quyidagi xulosaga olib keladi..... kabi sintaktik qurilmalardan foydalanish*);

asosiy fikrni tezislar shaklida bayon qila olish;

talaba til o'rganishda sohaga oid ilmiy matnlar asosida yangi terminlarni o'rganadi, natijada mutaxassislik tili shakllanishiga erishadi.

Til ta'limida talabalarda ilmiy uslub ko'nikmalarini shakllantirish uchun hamkorlikka asoslangan, izlanishga yo'naltirilgan va yozish orqali o'rganish usullarni uyg'unlashgan holda qo'llash samarali natija beradi. Ushbu yondashuvlar zamonaviy ta'limning asosiy tamoyillariga - faoliyatga

yo'naltirish, shaxsiy yondashuv va mustaqil ta'limga to'liq mos keladi. O'qituvchi tomonidan dars jarayonida bunday metodlarni integratsiya qilish orqali talabalarda nafaqat yozish ko'nikmalarini rivojlantirish, balki ilmiy mavzularda tanqidiy, mustaqil fikrlash, muammoga yechim bera olish va tahlil qila olishni rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abduraxmanova M., Normatova Sh. Amaliy uslubiyat. – T.: JIDU, 2024.
2. Abduraxmanova M. O'zbek tili (leksika va uslubiyat). – T.: JIDU, 2020.
3. Victoria Safronova, Evgeniya Klyukina. The Image of Modern University Teacher: Studying the Student Perceptions. Lomonosov Moscow State University, Russia
4. Rasulova Z.D. Hamkorlik texnologiyasiga asoslangan ta'lim jarayonini tashkil etish. SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 6 | 2021 ISSN: 2181-1601
5. [\(PDF\) Research-Oriented Teaching and Students' Academic Performance: Perception of University Teachers \(researchgate.net\)](#)

I SHU'BA
BO'LG'USI DIPLOMATIYA VA XALQARO MUNOSABATLAR SOHASI
MUTAXASSISLARI UCHUN TIL TA'LIMI MASALALARI,
TAJRIBA VA ZAMONAVIY USULLAR

GULASAL ROFIYEVA (JIDU)

XALQARO MUNOSABATLAR MUSTAHKAMLIGIDA TIL VA MADANIYAT
TA'LIMINI MUVOFIQLASHTIRISH

[**https://doi.org/10.5281/zenodo.15558042**](https://doi.org/10.5281/zenodo.15558042)

Annotatsiya. Mazkur maqolada xorijiy tillarni o'rganishda madaniyatlararo muloqotning ahamiyati, diplomatiya sohasidagi o'rni va o'zaro paradigmatic xususiyatlari ochib berilgan. Til o'qitishning madaniyat bilan bog'liq muammolari hamda mazkur muammolar yechimiga qaratilga ilmiy tadqiqotlar tahlil etilgan. Xususan, madaniy yondashuv samaradorligi fransuz tili misolida ochib berilgan. Ta'limda til va madaniyatning o'zaro kesishuvini teng ta'minlash bo'yicha xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: xalqaro munosabatlar, til ta'limi, madaniy yondashuv, effektiv muloqot.

Abstract. This article reveals the importance of intercultural dialogue in the study of foreign languages, its role in diplomacy, and its paradigmatic features. The problems of language teaching related to culture and scientific research on the solution of these problems are analyzed. In particular, the effectiveness of the cultural approach is revealed using the example of the French language. Conclusions are presented on ensuring the equal intersection of language and culture in education.

Keywords: international relations, language education, cultural approach, effective communication.

Xalqaro munosabatlar murakkab tizim bo'lib, mazkur jarayonda til asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Til turli davlatlar o'rtasidagi muloqot vositasi bo'lish bilan birga xalqlarning madaniyatini ham o'zida aks ettiruvchi omildir. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, madaniyat tilni ham o'z ichiga oluvchi keng qamrovli tushuncha bo'lishiga qaramasdan, xorijiy tillarni o'rganishda til sohiblarining milliy bayramlari, kundalik hayoti va ijtimoiy tuzilmasinigina o'rgatish vazifa etib belgilangan. Biroq xalqaro munosabatlarda madaniyat yuqorida ta'kidlangan mavzular bilan chegaralanmaydi. So'zlovchining til bilish darajasi yuqori bo'lsada,

til sohibi to'g'risidagi madaniy ma'lumotlarning yetishmasligi o'zaro tushunmovchilik holatlarini hamda samarasiz muloqotni yuzaga keltiradi. Shuning uchun ham til o'rganish jarayoniga tilning leksik, grammatik va boshqa kategoriyalari kabi madaniy kategoriyasini ham kengaytirish zamonaviy tilshunoslikning asosiy talablaridan biridir. Shuningdek, har bir xalq tafakkurida "madaniyat" tushunchasi aynan qaysi xususiyatlarni o'zida aks ettirishi to'g'risidagi manbalarni ham o'rganish lozim bo'ladi.

Chet tilini o'qitishda madaniy yondashuvga asos solgan va uni ilmiy jihatdan o'rganganlardan biri — amerikalik antropolog Edward Sapir hamda uning shogirdi Benjamin Lee Whorf hisoblanadi. Ular til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan va Sapir-Whorf gipotezasini ilgari surishgan [Sapir, 1921: 23]. Biroq, chet tilini o'qitishda madaniy yondashuv mustaqil yo'nalish sifatida keyinchalik rivojlangan. Mazkur sohada Robert Lado ning "Linguistics Across Cultures" [Lado, 1957: 42] asari muhim ahamiyatga ega. Lado til o'rgatishda madaniy farqlarni hisobga olish zarurligini ta'kidlagan. Shuningdek, Claire Kramersch ham madaniy yondashuvning zamonaviy rivojlanishiga katta hissa qo'shgan [Kramersch, 1993: 23].

Chet tilini o'rganishda madaniy yondashuvning yetarli darajada o'rganilmasligi bir qancha muammolarga olib kelishi mumkin. Bu muammolar quyidagicha bo'lishi mumkin:

Noto'g'ri tushunish va noto'g'ri talqin qilish

Har bir til o'ziga xos madaniy kontekstga ega. Agar o'quvchi madaniy tafovutlarni bilmasa, u gaplarning ma'nosini noto'g'ri tushunishi yoki noto'g'ri talqin qilishi mumkin. Masalan, fransuz tilidagi "Ça va?" (Qalay?) savoli ko'pincha oddiy salomlashuv sifatida ishlatiladi, lekin o'quvchi buni faqat sog'liq haqida so'rov deb o'ylashi mumkin.

Muloqotda noqulaylik va xijolat bo'lish

Madaniy nozikliklarni bilmaslik, noo'rin so'z yoki iboralarni qo'llashga olib keladi. Masalan, rasmiy va norasmiy muhitlarda qanday gapirish kerakligini bilmaslik muloqotda noqulay vaziyatlarga sabab bo'lishi mumkin.

Stereotiplar va noto'g'ri fikrlar shakllanishi

Madaniy kontekstdan xabardor bo'lmagan o'quvchilar begona madaniyatga nisbatan stereotip yoki noto'g'ri tasavvurlarga ega bo'lishi mumkin. Masalan, faqat kitobiy bilimga ega bo'lish orqali milliy urf-odatlar yoki bayramlarni noto'g'ri tushunish ehtimoli mavjud.

Effektiv muloqot qila olmaslik

Tilda so'zlashish qobiliyati yetarli bo'lsa ham, madaniy qoidalarni bilmaslik muloqot samaradorligini pasaytiradi. Masalan, Fransiyada ovqat paytida "Bon appétit" demaslik yoki noto'g'ri tarzda ovqatlanish madaniy jihatdan noo'rin hisoblanishi mumkin.

Qiziqish va motivatsiya yetishmasligi

Madaniy aspektlarni o'rganmaslik o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini kamaytirishi mumkin. Madaniy jihatlar o'rganish jarayonini yanada qiziqarli va mazmunli qiladi.

Tarbiyaviy va ijtimoiy muammolar

Boshqa madaniyatga nisbatan tushunmovchilik va hurmatsizlik yuzaga kelishi mumkin. Bu esa xalqaro muloqotda muammolar tug'diradi.

Madaniy yondashuvni chet tili o'rganish jarayoniga qo'shish nafaqat til bilimini oshiradi, balki madaniy bag'rikenglik va boshqa xalqlarga nisbatan hurmat hissini ham shakllantiradi.

Diplomatiya sohasida madaniy muloqotning o'rni va uning til o'rganish jarayoni bilan bog'liqligi bo'yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Diplomatik muloqotda til nafaqat axborot uzatish vositasi, balki madaniyatlararo tushunish va hamkorlikni rivojlantirish uchun muhim vosita sifatida qaraladi.

Edward T. Hall "Beyond Culture" (1976) va "The Silent Language" (1959) mavzusidagi tadqiqotlarida madaniy muloqotning noverbal jihatlariga urg'u beradi.

U diplomatiyada madaniy kontekst va noverbal belgilar muhim rol o'ynashini ta'kidlagan. Uning "yuqori va past kontekstli madaniyatlar" (***high-context vs. low-context cultures***) nazariyasi diplomatik muloqotda madaniy farqlarni tushunishga yordam beradi.

Geert Hofstede o'zining "Culture's Consequences" (1980) asarida madaniyatning biznes va diplomatiyadagi rolini o'rgangan. Uning "madaniy o'lchamlar" nazariyasi, jumladan, individualizm va kollektivizm, kuch masofasi va noaniqlikdan qochish kabi tushunchalar diplomatik muzokaralarda qanday qarorlar qabul qilinishiga ta'sir qiladi.

Michael Byramning "Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence" (1997) asari madaniyatlararo kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish bo'yicha muhim qo'llanma hisoblanadi. U diplomatlar uchun chet tilini o'rganishda madaniy kompetensiyaning ahamiyatini ta'kidlaydi. Diplomatik muvaffaqiyat uchun lingvistik bilimdan tashqari, madaniy anglash ham zarurdir.

Fransuz tilida muloqot jarayonida murakkab holatlar yuzaga kelishiga sabab bo'ladigan bir qancha madaniy o'ziga xosliklar mavjud. Ular quyidagicha:

1. Rasmiylik va Norasmiylik (Formel et Informel). Fransuzlar muloqotda "vous" (siz) va "tu" (sen) so'zlaridan foydalanishadi. Notanish yoki katta yoshdagilar bilan "vous" shaklini ishlatish odob hisoblanadi. Ammo noqulaylik yuzaga kelishi mumkin, chunki qachon "tu" shakliga o'tish mumkinligini bilish har doim ham oson emas. Fransuzlar odatda bu o'tishni o'zlari taklif qilishadi.

2. Bahslashish Madaniyati. Fransuzlar fikr almashish va intellektual bahslarda qatnashishni qadrlashadi. Ular o'z fikrlarini ochiq ifoda etishni yoqtirishadi. Biroq, bu boshqa madaniyat vakillari uchun tajovuzkor yoki qo'pol muloqot sifatida qabul qilinishi mumkin. Gap talashish emas, balki fikrlar xilma-xilligini muhokama qilish ekanini tushunish muhim.

3. Yumor va ironiya. Fransuzlar ironiyani va kinoyali hazillarni afzal ko'radilar. Biroq, bu turdagi hazillar begona odamlar yoki boshqa madaniyat vakillari tomonidan noto'g'ri tushunilishi yoki haqorat sifatida qabul qilinishi mumkin.

4. Tana tili va jestlar. Fransuzlar muloqotda yuz ifodalari va qo'l harakatlaridan faol foydalanadilar. Biroq, ba'zi jestlar boshqa madaniyatlarda boshqa ma'noga ega bo'lishi mumkin, bu esa tushunmovchiliklarga olib keladi.

5. Nutqdagi bevosita va bilvosita muloqot. Fransuzlar ko'pincha fikrlarini bilvosita ifoda etadilar, ayniqsa, tanqidiy fikrlar bildirayotgan bo'lsalar. Bu esa chet elliklar uchun ma'noni to'liq anglashda qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

6. Odob-axloq qoidalari va protokol. Rasmiy tadbirlarda yoki xizmat doirasidagi uchrashuvlarda qat'iy protokolga amal qilinadi. Masalan, kim birinchi bo'lib so'z boshlashi, kim bilan qanday salomlashish kerakligi muhim ahamiyatga ega. Bu qoidalaridan bexabar bo'lish noqulay vaziyatlarga olib kelishi mumkin.

7. Ovqatlanish madaniyati. Fransuzlar ovqatlanish jarayoniga katta ahamiyat berishadi. Stolda olib boriladigan muloqotning ham o'ziga xos qoidalari bor. Masalan, ovqatlanish paytida muayyan mavzulardan (siyosat, din kabi) qochish tavsiya etiladi.

Fransuz tilida samarali muloqot qilish uchun bu madaniy o'ziga xosliklarni tushunish va ularga hurmat bilan yondashish muhim. Bu nafaqat til o'rganishda, balki madaniyatlararo muloqotda ham muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi. Ta'lim jarayonida madaniy xususiyatlarni o'zaro muvofiqlashtirish til o'rganish dasturida berilgan mavzuga oid reja asosida shakllantiriladi. Chet tilidagi har bir leksik yoki grammatik kategoriyalar dars davomida ma'lum bir holatda qo'llanilishi mumkinligi aniq vaziyatlarga tayanib ochib berilishi lozim. Bugungi texnologik taraqqiyot turli madaniyatlarga oid ma'lumotlarni tez va oson olishda yordam berishiga qaramasdan, shaxslar o'rtasida madaniy tushunmovchiliklar yuzaga kelishida davom etmoqda. Muammolarni oldini olish bir qator ilmiy izlanishlar o'tkazishni talab etadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hall, E. T. (1976). Beyond Culture. Garden City, NY: Anchor Press/Doubleday.
2. Hall, E. T. (1959). The Silent Language. New York: Doubleday.
3. Hofstede, G. (1980). Culture's Consequences: International Differences in Work-Related Values. Beverly Hills, CA: Sage Publications.
4. Byram, M. (1997). Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. Clevedon: Multilingual Matters.
5. Meyer, E. (2014). The Culture Map: Breaking Through the Invisible Boundaries of Global Business. New York: PublicAffairs.
6. Lewis, R. D. (1996). When Cultures Collide: Leading Across Cultures. London: Nicholas Brealey Publishing.
7. Lado, R. (1957). Linguistics Across Cultures: Applied Linguistics for Language Teachers. University of Michigan Press.
8. Kramsch, C. (1993). Context and Culture in Language Teaching. Oxford University Press.
9. Sapir, E. (1921). Language: An Introduction to the Study of Speech. Harcourt, Brace & Company.
10. Whorf, B. L. (1956). Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf (J. B. Carroll, Ed.). MIT Press.

AZIZA ARIPOVA (JIDU)

BO'LAJAK MUTAXASSIS KASBIY KOMPETENSIYASINI INNOVATSION TA'LIM METODLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15558046>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'qituvchi va talabaning shaxsga yo'naltirilgan o'zaro hamkorligi jarayonida ta'lim uchun muhim sanalgan interfaol texnologiyalar, innovatsion yondashuvning ijtimoiy-pedagogik jihatlari, pedagogik kompetentlikni amalga oshiruvchi masalalar doirasi, innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashning pedagogik-psixologik va metodik shart-sharoitlari, kasbiy kompetentlikni rivojlantirish yo'llari, shakl va

metodlari yoritilgan. Interfaol metodlarning o'z mohiyatiga ko'ra ta'limiy yoki tarbiyaviy maqsadlari ochib berilgan.

Kalit so'zlari: o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ijodiy faoliyat, innovatsiya, texnologiya, boshqarish jarayoni, pedagogik jarayonyangilik, o'zgartishlar kiritish, interfaol usul, ta'limda boshqaruv roli.

Abstract: The article describes interactive technologies important for education in the process of personal interaction between a teacher and a student, social and pedagogical aspects of the innovative approach, a range of issues implementing pedagogical competence, pedagogical, psychological and methodological conditions for the use of innovative educational technologies, ways, forms and methods of developing professional competence. Interactive methods of an educational goals are disclosed or educational nature.

Key words: creative activity of teacher and student, innovation, technology, management process, innovation of pedagogical process, introduction of changes, interactive method, role of management in education.

Ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash mutaxassislarni tayyorlashning sifatini oshirishga hamda talabalarning mustaqil ishlarining rolini faollashtirishga ko'maklashadi. Bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda innovatsion ta'lim metodlarini joriy etish kelajakda uning mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishiga zamin yaratadi. Innovatsiya yoki yangilash insonning har qanday kasbiy faoliyatiga xosdir. Innovatsiyalar o'z-o'zidan paydo bo'lmay, ilmiy izlanishlar, ilg'or pedagogik tajriba natijalari sirasiga kiradi. Bugungi kunda mamlakatimizga chuqur bilimli, malakali, tezkor va konstruktiv tarzda qaror qabul qila oladigan mutaxassislar zarurligi bois, o'qituvchi va talabaning shaxsga yo'naltirilgan o'zaro hamkorligi ta'lim jarayonining muhim jihatiga aylanib, bunda ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish katta rol o'ynaydi.

O'qituvchi ta'lim jarayonida interfaol ta'lim texnologiyalari yordamida talabalarning qobiliyatlarini rivojlantirish, o'z-o'zini nazorat qilish va boshqarish, samarali suhbat olib borish, tengdoshlari bilan ishlash, ularning fikrlarini tinglash va tushunish, mustaqil, ijodiy, tanqidiy fikrlash, muqobil takliflarni ilgari surish, fikr-mulohazalarini erkin bayon qilish, o'z nuqtai

nazarlarini himoya qilish, muammoning yechimini topishga intilish, murakkab vaziyatlardan chiqa olish kabi sifatlarni shakllantirishga erishish mumkin. Eng muhimi, interfaol ta'lim texnologiyalarini qo'llash orqali o'qituvchi talabalarning ta'lim-tarbiya jarayonidagi aniq maqsadga erishish yo'lida o'zaro hamkorlikka asoslangan harakatlarini tashkil etadi. Shuningdek, talabalarni muayyan bilimlar sohasini egallashga yo'naltirish, boshqarish, nazorat va tahlil qilish orqali ularning bilim va ko'nikmalarini xolis baholash imkonini beradi.

“Innovatsiya” tushunchasi lotinchadan tarjima qilinganda «yangilanish, yangilik, o'zgarish» ma'nosini anglatadi. Pedagogik jarayonda innovatsiya ta'lim va tarbiyaning maqsadlari, mazmuni, metod va shakllariga yangilik joriy qilish, o'qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyatini tashkil etish demakdir. Bugungi kunda pedagogikada aynan innovatsiyalar ta'lim samaradorligini oshirishning eng maqbul vositasi bo'lib bormoqda.

Hozirgi globallashuv jarayonlarida ta'limga innovatsion yondashuvning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati quyidagilar bilan o'lchanadi:

1.Fan-texnika taraqqiyoti va ijtimoiy-iqtisodiy yangilanish uzluksiz ta'lim tizimi, xususan, oliy ta'lim muassasalaridagi o'quv jarayonini ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, ta'limdagi innovatsion yondashuvlar va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda takomillashtirish;

2.Talaba-yoshlardagi ma'lumotlilik darajasi, intellektual salohiyat, ijtimoiy faollik, ijodkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi shaxsga yo'naltirilgan o'qitishning samarali tashkiliy shakllari, texnologiyalarini yaratish va amaliyotga tatbiq etish;

3.Pedagogik innovatsiyalarni o'zlashtirish va uni tatbiq etishga nisbatan o'qituvchining kasbiy-innovatsion kompetentligini rivojlantirish zarurati.

Hozirgi davrda sodir bo'layotgan innovatsion jarayonlarda ta'lim tizimi oldidagi muammolarni hal etish uchun yangi axborotni o'zlashtirgan, bu axborotlarni o'zlari tomonidan baholashga qodir, zarur qarorlar qabul qiluvchi, mustaqil va erkin fikrlaydigan shaxslar kerak. Bu borada kasb-hunar ta'limida

innovatsion texnologiyalarning boshqarish jarayonidagi o'rni va ahamiyati beqiyosdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon, hamda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ijodiy faoliyatiga yangilik, o'zgartishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalaniladi, chunki ta'limda boshqaruv rolini o'qituvchi bajaradi.

Hozirgi kunda interfaol ta'lim texnologiyalaridan ommaviylari quyidagilar sanaladi: **interfaol metodlar** ("Keys-stadi", "Blits-so'rov", "Modellashtirish", "Ijodiy ish", "Munosabat", "Reja", "Suhbat", "Musobaqabellashuv" va b.); **strategiyalar** ("Aqliy hujum", "Bumerang", "Galereya", "Zigzag", "Zinama-zina", "Muzyorar", "Rotatsiya", "T-jadval" va h.k.); **grafik organayzerlar** ("Baliq skeleti", "BBB", "Konseptual jadval", "Venn diagrammasi", "Nilufar guli", "Insert", "Klaster", "Nima uchun?", "Qanday?") va boshqalar.

"Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik"ni amalga oshiriladigan masalalar doirasida **o'qituvchi**:

- innovatsion ta'lim texnologiyalarining funksiyalari;
- innovatsion ta'lim texnologiyalarining turlari va qo'llanilish sohalari;
- innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llashning pedagogik-psixologik va metodik shart-sharoitlari;
- innovatsion ta'lim texnologiyalarini loyihalash qoidalari;
- innovatsion ta'lim texnologiyalari: amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modulli-kredit tizimi, blended learning (aralash o'qitish), case study (keys stadi), masofali o'qitish, mahorat darslari, vebinar va assesment texnologiyalarining mohiyati;
- pedagogik kompetentlik asoslari va sifatlari;
- pedagoglarda kasbiy kompetentlikni rivojlantirish yo'llari, shakl va metodlari;
- pedagogik kompetentlik potentsiali va undan oqilona foydalanish shartlari;

- pedagoglarning kasbiy faoliyat (o'quv mashg'ulotlari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish)ga kreativ yondashishlari haqidagi **bilimlarga ega bo'lishi**;

- aniqlashtirilgan o'quv maqsadlarini shakllantirish;

- interfaol ta'lim texnologiyalariga asoslangan o'quv mashg'ulotlarini loyihalash va rejalashtirish;

- shaxsga yo'naltirilgan o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish va boshqarish;

- talabalarning birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish;

- interfaol ta'lim texnologiyalari (amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modulli-kredit tizimi, blended learning (aralash o'qitish), case-study (keys-stadi), masofali o'qitish, mahorat darslari, vebinar va assesment texnologilari)ni oliy ta'lim amaliyotiga samarali **tatbiq etish ko'nikmalarini egallashi**;

- innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'quv jarayonini "jonli", ijodiy tashkil etish;

- innovatsion faoliyatni tashkil etish;

- innovatsion tafakkur yuritish orqali ta'lim jarayonida ijodiy muhitni yaratish;

- innovatsion ta'lim texnologiyalarining oqilona tanlab olish;

- mutaxassislik bilan bog'liqlikda innovatsion ta'lim texnologiyalarini real amaliyot bilan uyg'unlashtirishga erishish;

- innovatsion ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqish va ommalashtirish malakalarini egallashi;

- pedagogik innovatsion faoliyatni samarali amalga oshirish;

- ta'lim jarayonining innovatsion xarakter kasb etishini ta'minlash;

- innovatsion ta'lim texnologiyalari (innovatsion ta'lim texnologiyalari: amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modulli-kredit tizimi, blended learning (aralash o'qitish), case study (keys stadi), masofali o'qitish,

mahorat darslari, vebinar va assesment texnologilari)ga asoslangan **o'quv-bilish faoliyatini tashkil etishi;**

- talabalarni izlanishli-ijodiy faoliyatga yo'naltirish **kompetensiyalarni egallashi lozim.**

"Innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik kompetentlik" **asosida o'qitish jarayonida:**

- ma'ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezentatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan;

- o'tkaziladigan amaliy mashg'ulotlarda texnik vositalardan, ekspress so'rovlar, test so'rovlari, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta'lim usullarini qo'llash nazarda tutiladi:

Dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash talabalarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg'otadi, ijodkorlik va bunyodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim, ko'nikma va malakalar amaliy faoliyatda tatbiq etiladi, o'zlashtirish sifati oshadi:

Darsda kompyuter, **smartteybll**ardan foydalanish o'qitish jarayonini qiziqarli olib borish, har bir talabaga individual yondashish imkonini beradi. Bunda, birinchidan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng imkoniyatlari orqali talabalarga juda ko'p bilim, fakt va ma'lumotlarni yetkazish mumkin bo'ladi. Ikkinchidan, o'qituvchining innovatsion reja, g'oya va o'y-fikrlarini to'laqonli amalga oshirish yengil va samarali tarzda kechadi. Bunday jarayonlar, ayniqsa, sohaga yo'naltirilgan fanlar ta'limida salmoqli o'rin tutadi.

Uzluksiz ta'lim tizimida bilim oluvchi va tarbiyalanuvchilarni innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish bilan cheklanib qolmasdan, kelajakda amaliy faoliyatlarida o'zlari innovatsion texnologiyalarni muvaffaqiyatli qo'llashlariga o'rgatishni uzviylik va uzluksizlikni ta'minlashning asosiy vazifalaridan biri, deb hisoblanadi.

Fanlar integratsiyasi evaziga sivilizatsiyaning eng noyob yutuqlari qo'lga kiritilmoqda. Insonning tashqi dunyoni va o'zligini anglashi, odam va jamiyat munosabatlarining yangi qonuniyatlarini bilib olishi sodir bo'lmoqda. Ana shunday dialektik jarayonda ishlab chiqarishdek inson aql-zakovati bilan yo'lga qo'yilgan iqtisodiy hodisa yetakchi pozitsiyaga ko'tarilmoqda.

Interfaol metodlar: ta'lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'lim jarayonining markazida ta'lim oluvchi bo'lgan metodlar tushuniladi. Bu metodlar qo'llanilganda ta'lim beruvchi ta'lim oluvchini faol ishtirok etishga chorlaydi. Ta'lim oluvchi butun jarayon davomida ishtirok etadi. Ta'lim oluvchi markazda bo'lgan yondoshuvning foydali jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- ta'lim samarasi yuqoriroq bo'lgan o'qish-o'rganish;
- ta'lim oluvchining yuqori darajada rag'batlantirilishi;
- ilgari orttirilgan bilimning ham e'tiborga olinishi;
- o'qish shiddatini ta'lim oluvchining ehtiyojiga muvofiqlashtirilishi;
- ta'lim oluvchining tashabbuskorligi va mas'uliyatining qo'llabquvvatlanishi;
- amalda bajarish orqali o'rganilishi;
- ikki taraflama fikr-mulohazalarga sharoit yaratilishi.

Interfaol metodlar o'z mohiyatiga ko'ra ta'limiy yoki tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirishda ma'lum darajada samaradorlikka erishishni ta'minlasa-da, ammo, ularning har birini ta'lim jarayonida qo'llashda individual yondashuvni talab qiladi. Shu sababli pedagoglar interfaol metodlar va texnologiyalarni tanlashda o'rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinishi lozim bo'lgan masalaga e'tibor qaratishlari maqsadga muvofiqdir. Interfaol metodlarning samaradorligini oshirish uchun o'qituvchi metod yoki texnologiyani tanlaganda talabaning psixologik xususiyatlari, dunyoqarash darajasi, bilim va ko'nikmalari hamda tinglovchilarning tajribalarini ham

inobatga olishi lozim. Albatta bu holat o'qituvchilardan kasbiy mahorat, malaka, bilimdonlik, sezgirlik va intuitsiyaga ega bo'lishni taqozo etadi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. The ideal appearance of a modern teacher
2. Methods, aspects and components of teaching the Uzbek (Russian) language as a foreign language on the experience of foreign students
3. Идея совершенной и всесторонне развитой личности как социокультурный феномен в развитии человека
4. ZAMONAVIY TA'LIMDAGI MUAMMOLAR
5. TIL TA'LIMIDA ZAMONAVIY TRENDLAR

АМИНА АТАБЕКОВА (УМЭД).

ИНТЕГРАЦИЯ ТРАДИЦИОННЫХ И ИНОВАЦИОННЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15558052>

Аннотация В статье подробно рассматриваются традиционные и инновационные методы и подходы к обучению русского языка как иностранного. В ней рассматриваются основные методы, используемые в процессе преподавания русского языка, и их эффективность в современных образовательных условиях.

Ключевые слова педагогические технологии, к обучению русского языка, традиционные и инновационные подходы, применения приемов и методов активного обучения, цифровые технологии.

Abstract The article discusses in detail the traditional and innovative methods and approaches to teaching Russian as a foreign language. It examines the main methods used in the process of teaching Russian and their effectiveness in modern educational conditions.

Key words pedagogical technologies, teaching of the Russian language, traditional and innovative approaches, application of active learning techniques and methods, digital technologies.

Введение

В современных условиях развития образования особую актуальность приобретает внедрение инновационных педагогических технологий в процесс преподавания русского языка. Современное образование требует постоянного поиска новых подходов и методов обучения, что особенно актуально для университетов, ориентированных на подготовку специалистов в области мировой экономики и дипломатии. Целью данного исследования является всесторонний анализ современных педагогических технологий и их влияние на качество преподавания русского языка. Университеты, занимающиеся подготовкой специалистов в области международных отношений, должны использовать как традиционные, так и инновационные методы преподавания, чтобы достичь максимальной эффективности в обучении.

Методы

Традиционные методы обучения русского языка

Для целенаправленного обучения традиционные методы обучения русского языка включают в себя такие подходы, как лекции, семинары, практические занятия, а также самостоятельную работу студентов. Важно отметить, что эти методы продолжают оставаться актуальными, поскольку они обеспечивают прочную основу для овладения языковыми навыками. [1]

Необходимо отметить, что в последние десятилетия появляются новые подходы к обучению, которые используют современные технологии и методы взаимодействия. Естественно, что эти инновации способствуют более глубокому и интересному освоению русского языка, особенно в контексте международных отношений.

Инновационные методы обучения русского языка.

1. Значительно повышает интерес студентов к изучению языка использование *цифровых технологий*: внедрение мультимедийных

технологий, онлайн-платформ и образовательных приложений. Платформы, такие как Duolingo, Memrise.

2. Также актуально и *интерактивное обучение*: современные методы обучения все больше ориентируются на интерактивность. Включение в учебный процесс таких элементов, как игровые методики, и кейс-метод, помогает студентам развивать не только языковые, но и аналитические и коммуникативные навыки. Ролевые игры, где студенты играют роли дипломатов или экономистов, общающихся на русском языке, способствуют развитию практических навыков, необходимых для профессиональной деятельности.

Рассмотрим применение современных педагогических технологий на уроках русского языка

Интерактивные методы:

1. "Лингвистический конструктор"

Группы получают набор слов, составляют грамматически правильные предложения на время. Победители объясняют использованные правила.

2. "Языковой детектив". Анализ текста с ошибками, их исправление с обязательным объяснением правил.

3. "Экспертное мнение". Учащиеся становятся экспертами по разделам (морфология, синтаксис и т.д.), затем обучают других в мини-группах.

4. Геймификация. Игровые элементы интегрируются в образовательные приложения и платформы для стимулирования мотивации студентов и повышения их учебной активности.

"Грамматический квест"

Цифровая игра с уровнями сложности, где каждый уровень - новая тема грамматики. Система очков и достижений.

5. Kahoot-викторины. Интерактивные тесты по темам урока с рейтингом участников.

6. "Орфографический баттл" Командное соревнование на платформе Quizizz с мгновенной проверкой правописания.

7. Инновационное оценивание. Цифровое портфолио. Электронная коллекция работ ученика с отслеживанием прогресса. Система бейджей. Цифровые награды за освоение конкретных навыков (письмо, говорение и т.д.). Следует отметить, что использование цифровых квестов и платформы Kahoot привело к улучшению запоминания грамматических правил.

3. На сегодняшний день более эффективный *метод- использование искусственного интеллекта*: с развитием искусственного интеллекта появляются новые возможности для обучения, такие как индивидуализированные программы обучения, автоматическое исправление ошибок в письменной и устной речи, а также создание виртуальных преподавателей. Искусственный интеллект может анализировать ошибки студентов и предлагать индивидуальные рекомендации для улучшения.

Использование искусственного интеллекта и аналитики: Некоторые образовательные платформы применяют искусственный интеллект и аналитические методы для отслеживания прогресса студентов, предоставления персонализированных рекомендаций и улучшения качества обучения.

4. *Мобильное обучение*: использование смартфонов и планшетов для обучения языка дает студентам возможность в любое время и в любом месте улучшать свои знания. Программы и приложения, адаптированные под мобильные устройства, позволяют студентам не только изучать русский язык, но и практиковать его в реальных ситуациях, например, через общение в чатах или форумах.

Социальные сети и форумы: Использование социальных сетей и онлайн-форумов стимулирует практику письменной коммуникации и взаимодействия на языке между студентами и носителями языка.

При этом выбор конкретных технологий и методов должен осуществляться с учетом целей обучения, возрастных особенностей учащихся и специфики изучаемого материала. [2]

Обсуждение

Подготовка статьи на тему «Интеграция традиционных и инновационных методов обучения русского языка» требует глубокого изучения существующих подходов, и исследований в этой области. Важно рассмотреть, как традиционные методы дополняются и модифицируются в свете современных образовательных практик. Инновации в обучении русского языка как иностранного тесно связаны с применением технологий, включая онлайн-курсы, мобильные приложения и интерактивные платформы. Эти методы способствуют активному участию студентов в процессе обучения. Также использование игр, сценариев и ситуационных упражнений не только делает обучение более увлекательным, но и способствует лучшему запоминанию и пониманию материала.

Наиболее эффективным является комбинированный подход, который включает в себя как традиционные, так и инновационные методы. Такой метод позволяет учитывать разнообразные стили обучения студентов и их предпочтения, создавая тем самым более благоприятную атмосферу для освоения языка. Важно взаимодействовать с учащимися, проводить регулярные практические занятия и позволяющие им применять полученные знания в необходимых контекстах. [3]

Также следует отметить, что современные программы обучения все чаще включают элементы культурологии, подчеркивающие связь языка

и культуры. Это позволяет студентам не только изучать правила, но и понимать их применение в реальном речевом контексте, что значительно повышает интерес к изучаемому предмету. Интеграция культурных аспектов в обучение помогает сделать занятия более живыми и интерактивными, а также повышает уровень мотивации студентов. [4]

Заключение

Интерактивные формы обучения способствуют высокой мотивации студентов, укреплению знаний, развитию творчества и фантазии, улучшению коммуникативных навыков, формированию активной жизненной позиции и командного духа.

Также интерактивное обучение способствует развитию критического мышления у студентов и помогает раскрыть творческий потенциал как группы, так и каждого отдельного участника образовательного процесса.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. Азимов Э.Г. Цифровые технологии в преподавании русского языка. М.: Русский язык, 2022.
2. Бахриева Ш.Д. «ТРАДИЦИИ И НОВАЦИИ В ОБУЧЕНИИ ГРАММАТИКЕ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК ИНОСТРАННОГО» //Qo‘qon DRI. Ilmiy xabarlar //2025-yil 1-son c.978-983.
3. Атабекова А.Б. «ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МАСТЕРСКИХ ПРИ ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ БУДУЩИХ ДИПЛОМАТОВ И ПОЛИТОЛОГОВ»// «Преподавание языка и литературы»// Ташкент №12 2023. с.75-77.
4. Сидоров К.М. Мультимедийные технологии в преподавании русского языка. М.: Академия, 2023.

5. Федорова, Л. П. Использование цифровых технологий в обучении русскому языку: опыт и перспективы // Педагогика. // 2020. № 4. с. 78–83.

6. ИНТЕРАКТИВНОЕ ОБУЧЕНИЕ КАК СПОСОБ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСКОЙ СРЕДЫ// Шейхмамбетов С. Р. «СОВРЕМЕННАЯ ФИЛОЛОГИЧЕСКАЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНАЯ ПАРАДИГМА: КОНЦЕПЦИИ, ПОИСКИ, РЕШЕНИЯ» //Сборник статей по результатам работы международной научно-практической конференции //2024. с.455-458.

7. Миронова, С. А. Информационно-коммуникационные технологии в преподавании русского языка // Вестник МГПУ. Серия: Филология. // 2022. № 2. с. 56–63.

DILNOZA SAYFULLAYEVA (JIDU)

XALQARO MUNOSABATLAR TILI VA TA'LIMDA MUTAXASSISLIK TILINI O'RGATISHDA MATN BILAN ISHLASH TEXNOLOGIYASI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15558056>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro munosabatlar sohasiga oid mutaxassislik tilini o'qitishda matn bilan ishlash texnologiyalarining o'rne, usullari va samaradorligi o'rganiladi. O'zbek tilidagi autentik matnlar asosida mutaxassislik terminologiyasini o'zlashtirish, funksional savodxonlikni shakllantirish va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: mutaxassislik tili, matn bilan ishlash, kasbiy kommunikatsiya, terminologiya, diskurs, autentik matn, xalqaro munosabatlar.

Abstract. This article examines the role, methods, and effectiveness of text processing technologies in teaching a specialized language in the field of international relations. The possibilities of mastering specialized terminology, forming functional literacy, and developing professional competencies based on authentic texts in the Uzbek language are analyzed.

Keywords: specialized language, working with text, professional communication, terminology, discourse, authentic text, international relations.

Zamonaviy ta'lim tizimi kasbiy yo'naltirilgan til o'qitishni yanada dolzarb masalaga aylantirmoqda. Ayniqsa, xalqaro munosabatlar sohasida faoliyat

yurituvchi mutaxassislar uchun til nafaqat aloqa vositasi, balki diplomatik, siyosiy va madaniy diskurslarni tahlil qilish vositasidir. Shuning uchun mutaxassislik tilini o'rgatishda an'anaviy yondashuvlardan tashqari, matn bilan ishlashga asoslangan integrativ texnologiyalar muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Matn bilan ishlash texnologiyasining nazariy asoslari

Matn bilan ishlash texnologiyasi – bu o'quvchilarni kasbiy matnni o'qish, tahlil qilish, tushunish va qayta tuzish orqali mutaxassislik tilini chuqur o'zlashtirishga yo'naltiruvchi metodik yondashuvdir. Bu texnologiya quyidagi nazariy asoslarga tayangan:

- Kognitiv lingvistika: tilni idrok etish va tushunish orqali o'zlashtirish;
- Diskurs tahlili: matn tarkibidagi kommunikativ niyatlar, stilistik vositalar va terminlarning semantik tahlili;
- Faol o'qitish texnologiyalari: interaktiv metodlar, klaster, insert, konseptual xaritalar.

2. Xalqaro munosabatlar tilining o'ziga xosligi

Xalqaro munosabatlar sohasi o'ziga xos terminologiya, frazeologik birliklar, protokol nutqi va siyosiy diskurs elementlari bilan ajralib turadi. Ushbu sohada:

- terminlarning aniqligi va normativligi;
- neytral uslub va rivojlangan ijtimoiy-siyosiy leksika;
- hujjatlar bilan ishlash madaniyati alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu sababli o'quvchilarga tilni o'rgatishda zamonaviy siyosiy matnlar, xalqaro hujjatlar, yangiliklar va diplomatlar nutqidan foydalanish zarur.

3. Matn bilan ishlash bosqichlari

Mutaxassislik tilini o'rgatishda matn bilan ishlash quyidagi bosqichlarda tashkil qilinadi:

1. Matn tanlash – dolzarb, autentik va kasbiy yo'naltirilgan matnlar asosida.
2. Oldindan ishlov – asosiy terminlar, kontekst, muallif pozitsiyasini aniqlash.

3. Tahlil bosqichi – matn mazmunini anglash, savollarga javob, diskurs tahlili.

4. Qayta ishlov – konspekt, annotatsiya yozish, bahs-munozara.

5. Interaktiv bosqich – rolda chiqish, taqdimotlar, diplomatik vaziyatlarni modellashtirish.

4. O‘zbek tilidagi matnlardan foydalanish imkoniyatlari

O‘zbek tilidagi quyidagi matnlar xalqaro munosabatlar tilini o‘rgatishda katta ahamiyatga ega:

- O‘zbekiston TIV rasmiy bayonotlari;
- diplomatik yozishmalar namunasi;
- siyosiy-analitik maqolalar (masalan, “president.uz” rasmiy sayti);
- Prezident chiqishlaridan parcha;
- BMT va SHHTga oid o‘zbekcha tarjimalar.

Bu matnlar orqali o‘quvchilar nafaqat terminologiyani, balki rasmiy-diplomatik uslubni, nutq etiketini va xalqaro kommunikatsiya madaniyatini ham o‘zlashtiradi.

Zamonaviy til ta’limida matndan foydalanish kommunikativ yondashuvning asosiy vositalaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Xususan, xalqaro munosabatlar yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar uchun o‘zbek tilida kasbiy atamalar, rasmiy uslub va siyosiy nutq elementlarini chuqur o‘zlashtirish muhimdir. Bunday bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda davlat rahbarlarining nutqlari, rasmiy murojaatlar kabi matnlar o‘quv vositasi sifatida alohida ahamiyatga ega.

1. Matn tanlash asoslari

Prezident Shavkat Mirziyoyevning “O‘zbekiston Fanlar akademiyasi jamoasiga” nomli tabrik nutqi mazmun va til uslubi jihatidan xalqaro munosabatlar sohasidagi kasbiy muloqotga mos bo‘lgan matndir. Unda:

- rasmiy uslubdagi iboralar;

-
- davlat siyosati bilan bog'liq terminlar (masalan, "ilmiy-intellektual salohiyat", "O'zbekiston – 2030 strategiyasi");
 - xalqaro hamkorlik konseptlari mavjud bo'lib, ular o'quvchilarning kasbiy bilim va til ko'nikmalarini shakllantiradi.

2. Matn bilan ishlash bosqichlari

Leksik tahlil: talabalarga matndagi kasbiy terminlar (masalan, infratuzilma, integratsiya, innovatsiya, ilmiy maktab) izohli lug'atlar bilan mustaqil tahlil qilish topshiriladi.

Matn mazmunini aniqlash

Matn asosida quyidagi savollar ishlab chiqiladi:

- Prezident murojaatining asosiy maqsadi nima?
- Qaysi tashkilotlar faoliyati yoritilgan?
- Ilm-fan sohasida qanday islohotlar amalga oshirilgan?

Diskurs tahlili: matndagi siyosiy nutqqa xos xususiyatlar, uslubiy vositalar (epitet, metafora, iqtibos) aniqlanadi. Masalan: "Olimning yostig'i toshdandir" degan iqtibosning ma'no yuklamasi tahlil qilinadi.

Muloqotga tayyorgarlik: matn asosida talabalar o'z fikrini bildiradi: "Ilm-fan taraqqiyotining xalqaro munosabatlardagi o'rni qanday?" mavzusida og'zaki va yozma nutq tayyorlaydilar.

Xalqaro munosabatlar tilini o'rgatishda matn bilan ishlash texnologiyasi nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki kasbiy muloqotga tayyorlikni ham shakllantiradi. O'zbek tilidagi autentik matnlar bu jarayonni milliy kontekstda samarali tashkil etish imkonini beradi. Kelgusida multimodal matnlar, sun'iy intellekt asosida tahliliy vositalarni qo'llash bu yo'nalishni yangi bosqichga olib chiqadi. Matn bilan ishlash texnologiyasi kasbiy tilni o'rgatishda faqat grammatik bilim emas, balki sohaning mazmuniy jihatlarini ham o'zlashtirishga xizmat qiladi. Prezident murojaatlari kabi matnlar orqali talabalarda rasmiy nutq, kasbiy leksika va zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga doir tushunchalar shakllanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sayfullayeva R.R., Abuzalova M.Q., Mamadaliyeva N.S., Yuldasheva D.N. Tilshunoslikka kirish. – Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2020.
2. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: “Tafakkur bo'stoni” nashriyoti, 2018.
3. Narmatova Sh. Use of case study method for Russian-student students in Uzbek language classes. T. 2021.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. V jild. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi NMIU, 2023.
5. <https://president.uz/oz/lists/view/6920>

НОЗИМА БАБАМУРАДОВА (СОИСКАТЕЛЬ УЗГУМЯ)

ОЦЕНКА КАЧЕСТВА ПЕРЕВОДА ТЕКСТОВ РАЗЛИЧНЫХ СТИЛИСТИЧЕСКИХ НАПРАВЛЕНИЙ

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15558061>

Аннотация. Оценка качества перевода является важным аспектом учебного процесса подготовки специалистов в области перевода. Данная статья направлена на предоставление преподавателям эффективных инструментов и критериев для оценки качества переводов студентов в зависимости от стилевых направлений текста. В процессе обучения студентов специальности "Перевод" одной из важнейших задач является подготовка их к точному, адекватному и художественно грамотному передаче информации с одного языка на другой. Оценка качества перевода играет ключевую роль в этом процессе, поскольку позволяет не только определить уровень владения языком и знания перевода как дисциплины, но и развить у студентов навыки, которые помогут им справляться с переводами различных текстов. В связи с этим важным является понимание различий между стилями перевода, особенностями работы с ними, а также выработка методик оценки их качества. В процессе обучения студенты сталкиваются с различными стилевыми направлениями, каждое из которых имеет свои особенности и требует индивидуального подхода к оценке.

Ключевые слова: оценка, качество, преподавание, уровень владения, компетенция, стили, особенности, методика, модели, критерии, современные технологии, CAT, авторский стиль.

Abstract. *The evaluation of translation quality is a critical aspect of the educational process in training specialists in the field of translation. This article aims to provide instructors with effective tools and criteria for assessing student translations based on the stylistic characteristics of source texts. One of the key objectives in the training of students majoring in Translation is to prepare them for the accurate, adequate, and stylistically competent rendering of information from one language to another. Translation quality assessment plays a pivotal role in this process, as it not only determines students' language proficiency and understanding of translation as a discipline but also fosters the development of skills necessary for handling texts of various types. Therefore, it is essential to understand the differences among translation styles, the specific features of working with each, and to develop appropriate methods for evaluating their quality. During their training, students encounter a range of stylistic genres, each with its own characteristics and requiring an individualized approach to assessment*

Keywords: *assessment, quality, teaching, proficiency level, competence, styles, characteristics, methodology, models, criteria, modern technologies, CAT tools, authorial style.*

Введение. Оценочная компетенция в области переводоведения является важным аспектом профессиональной подготовки переводчиков и специалистов в области лингвистики. Она охватывает широкий спектр навыков, от способности адекватно оценивать качество перевода до использования методов и подходов для улучшения перевода в конкретных контекстах. Эффективная оценка качества перевода влияет не только на восприятие перевода аудиторией, но и на развитие теории и практики перевода в целом. В особенности, преподаватель должен уметь точно и объективно оценивать работы студентов, принимая во внимание специфику различных текстов. Перевод является сложной деятельностью, требующей не только знаний грамматики и лексики, но и умения адекватно передавать содержание текста в зависимости от его стиля.

Переводческий процесс включает множество разных стилей — от научных до художественных, от официальных до публицистических — и каждый из них требует своего подхода. Методика оценки перевода, в свою очередь, должна учитывать эти различия. От того, как преподаватель будет оценивать качество перевода, зависит, насколько эффективно студент сможет развить свои навыки и улучшить работу. Данная статья направлена на разработку оптимальных методов оценки перевода с учетом специфики каждого стилевого направления.

Основная часть. Перевод текстов разных стилей всегда представляет собой определенную задачу, поскольку каждое стилевое направление имеет свои особенности и требования. Это напрямую влияет на методику оценки качества перевода.

Научный стиль. Этот стиль характеризуется высоким уровнем точности и объективности. Переводчик должен сохранять логическую структуру текста, точно передавать научные термины и избегать двусмысленности. Ошибки в передаче терминологии могут существенно исказить смысл и нарушать научную аргументацию.

Художественный стиль. Перевод художественных текстов требует от переводчика креативности и способности передавать авторский стиль, его индивидуальность и эмоциональную окраску. Этот стиль более субъективен и часто включает разнообразные метафоры, образы и художественные приемы, что ставит задачу не только в точности, но и в сохранении выразительности.

Официально-деловой стиль. Это стиль, который применяется в юридических, деловых, административных и официальных документах. В таком переводе важно соблюдать точность терминов и формальностей, избежать двусмысленности и четко следовать структуре и формулировкам оригинала. Здесь ошибки могут привести к юридическим последствиям, поэтому важна особая внимательность.

Публицистический стиль. В публицистике основное внимание уделяется сочетанию точности и выразительности. Переводчик должен передавать не только факты, но и атмосферу текста, его эмоциональную окраску, что может быть особенно важно при переводе новостей, статей или аналитических материалов.

Для корректной оценки качества перевода преподаватель должен использовать несколько ключевых критериев, которые могут варьироваться в зависимости от типа текста. Эти критерии позволяют более точно определить уровень работы студента.

Точность — один из основных критериев оценки перевода. Это касается как точности передачи смысла, так и соответствия терминам, фразам и структуре. Точность особенно важна в научных и официальных текстах.

Сохранение стиля. Преподаватель должен обратить внимание на то, как

